

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**



**O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI**

**“Tasdiqlayman”**  
**O'quv ishlari bo'yicha prorektor**  
**\_\_\_\_\_ prof. R. Eshonqulov**

**O'ZBEK TILINING SOHADA QO'LLANISHI  
FANIDAN**

# **O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

**Bilim sohasi:** 800 000 – Qishloq, o'rmon, baliq ho'jaligi va veterinariya  
**Ta'lim sohasi:** 810 000 – Qishloq ho'jaligi  
**Ta'lim yo'nalishi:** 60811300 – Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki qayta ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha)

**QARSHI – 2022**

Fan sillabusi namunaviy o'quv dasturi (QMIIrektori tomonidan 2022-yil 28-iyunda insitut Kengashining № 11-sonli qarori bilan tasdiqlangan) va o'quv rejasi asosida ishlab chiqildi.

**Tuzuvchi:** **O. Begimov** - QMII “O’zbek tili va adabiyoti”  
kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori

### Taqrizchilar:

**Jabborov X. J.** – QarDU “O’zbek tilshunosligi” kafedrası professori, f.f.d.

**Aminova Z.P.** – QarMII “O’zbek tili va adabiyoti” kafedrası dotsenti,p.f.n.

Fan sillabusi “Oʻzbek tili va adabiyoti” kafedrasining 2022-yil \_\_\_\_ \_\_\_\_  
dagi \_\_\_\_ -son yigʻilishida maʼqullangan hamda Institut Uslubiy kengashining  
2022-yil \_\_\_\_ \_\_\_\_ dagi \_\_\_\_-son yigʻilishi qarori bilan oʻquv jarayonida  
foydalanishga tavsiya etilgan.

## MUNDARIJA

|      |                                                  |  |
|------|--------------------------------------------------|--|
| 1.   | Fanning o'quv materiallari                       |  |
| 1.   | Amaliy mashg'ulotlar uchun uslubiy ko'rsatma     |  |
| 2.   | Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari uchun materiallar |  |
| 3.   | Glossariy                                        |  |
| 4.   | Ilovalar                                         |  |
| 4.1. | Fan dasturi                                      |  |
| 4.2. | Ishchi fan dasturi(Sillabus)                     |  |
| 4.3. | Tarqatma materiallar                             |  |
| 4.4. | Testlar                                          |  |
| 4.5. | Fan bo'yicha baholash mezonlari                  |  |

# AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR

## IKKINCHI DARS

### MAVZU. “O‘ZBEK TILINING SOHADA QO‘LLANISHI” FANINI O‘QITISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

#### **Mashg'ulot rejasi:**

1. Til va tafakkur.
2. Til va nutq.

**Til va tafakkur.** Tafakkur arabcha so‘z bo‘lib, fikr yuritish, o‘ylash, fikrlash kabi ma“nolarni ifodalaydi. Tafakkur orqali obyektiv borliqni taniy boshlaymiz. Bu borada mutafakkir Alisher Navoiy shunday yozadi:

Ki har ishni qildi odamizod,  
Tafakkur birla qildi oni bunyod.

Ko‘rinadiki, inson tafakkuri, zakovati va ongi eng oliy ne‘mat hisoblanadi.

Tafakkur fikrning ko‘pligi hisoblanar ekan, til mana shu fikrlarning voqe bo‘lishidir, ya‘ni fikr (tafakkur)ning ro‘yobga chiqishida til asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Til va tafakkur uzviy bog‘liq. Tilsiz tafakkur va tafakkursiz til mavjud bo‘lolmaydi (obrazli qilib aytadigan bo‘lsak, tansiz jon, jonsiz tan bo‘lolmaganidek).

XX asrning buyuk yozuvchilaridan biri Oybek “Navoiy” asarida “Bir soatlik tafakkur bir yillik toatdan afzal” deydi. Buning ma‘nosi shuki, kishi qanchalik ko‘p o‘ylasa, fikr yuritsa, uning qiladigan amali ham, aytadigan so‘zi ham shunchalik go‘zal bo‘ladi, boshqalarga ibrat bo‘ladi.

Tafakkur, jamiyat, mehnat faoliyati davomida o‘sib, rivojlanib boradi. Demakki, til va uning ko‘rinishi bo‘lgan nutq ham tafakkur bilan bog‘liq holda takomillashib boradi.

**1-topshiriq.** Matnni o‘qib, quyidagi savollarga javob bering.

1. Buyuk bobomiz A.Navoiyning yuqoridagi fikrini o‘z so‘zlaringiz bilan izohlang.
2. Til va tafakkur bog‘liqligi haqida gapiring, misollar bilan tushuntiring.
3. Tilning rivojida tafakkurning, tafakkurning rivojida tilning qay darajada ahamiyati bor?
4. “Bir soatlik tafakkur bir yillik toatdan afzal” deganda nimani tushunasiz?
5. “O‘zga bir tilni egallash boshqa bir xalqning(millatning) tafakkur tarzini o‘zlashtirish demakdir”. Ushbu fikrga izoh bering.

**Til va nutq.** “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “til”ga shunday ta‘rif beriladi: “Kishilar o‘rtasida, jamiyatda o‘zaro fikr almashishning muhim vositasi; tilshunoslikning asosiy o‘rganilish obyekti”. Biz o‘z fikrimizni tilsiz turli vositalar bilan (qo‘l, bosh, yuz, ko‘z harakati bilan) ham bir qism ifodalashimiz mumkin. Biroq til va uni ro‘yobga chiqaruvchi nutqimizsiz ko‘zlangan maqsadga to‘liq erisholmaymiz.

Inson ongi biror bir voqelik aks ettirar ekan, u so'zlar orqali (nuqt vositalari bilan) yuzaga chiqaradi. Odamzodning bolaligidan to umrining oxirigacha oladigan ilmiy va hayotiy ta'limi so'z va til vositasida amalga oshadi. Tafakkur, til va uning yuzaga chiqaruvchi (og'zaki, yozma shaklda) vosita so'z bo'lar ekan (nutq), bu borada A.Navoiyning quyidagi misralarini eslatib o'tish maqsadga muvofiq:

Insonni so'z ayladi judo hayvondin,

Bilki, guhari sharif yo'qdur ondin.

Bilim va tafakkurni rivojlantiruvchi manba til. Olimlar ta'kidlaganidek, ona tili fani boshqa fanlarni o'rganishda ko'prik vazifasini o'taydi. Boshqa fanlarga tilshunoslik orqali erishiladi.

Til va nutq o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi:

1. Til – aloqa quroli. Nutq ana shu aloqa jarayonini amalga oshiruvchi vosita, aloqa shaklidir.

2. Tilning umri uni yaratgan xalqning o'zidek uzoq tarixga ega. Nutqning umri alohida bir shaxs umri bilan teng.

3. Til muayyan bir tilda so'zlovchilar uchun umumiy bo'ladi. Til me'yorlaridan kelib chiqib, barchaga bir xil talab qo'yiladi. Masalan, maktab so'zi turli hududlarda turlicha talaffuz etilsa ham (jumladan, maktab, mektep va h.k.), orfoepiya qoidasiga ko'ra shu millatning barcha vakili maktab tarzida talaffuz etishi me'yoriy hol sanaydi.

4. Til nisbatan turg'un, barqaror bo'lsa, nutq doim harakatda bo'lib, o'zgaruvchan bo'ladi. Til va nutq o'z birliklariga ega. Til birliklari sifatida quyidagilarni sanash mumkin:

Fonema – tilning eng kichik birligi bo'lib, aloqa quroli uchun muhim ahamiyatli bo'lgan farqlovchi belgi.

Fonema – tilning ma'no farqlash qiymatiga ega bo'lgan eng kichik birligi. Fonema hozirgi zamon tilshunosligining mustaqil tarmog'i bo'lmish fonologiyada o'rganiladi.

Morfema – tilning xususiy ma'noga ega bo'lgan, boshqa ma'noli qismlarga bo'linmaydigan birligi: tur, yur, boshliq va b.

Leksema – jamiyat a'zolari uchun tayyor, umumiy, majburiy bo'lgan, shakl va mazmunning barqaror birikuvidan tashkil topgan til birligi.

Nutq kundalik hayotda kishilar orasidagi o'zaro aloqa ehtiyojini qondiruvchi vositadir. Nutq til materialining namoyon bo'lish jarayoni. Nutq birliklari quyidagilar:

Tovush – havo oqimining nutq a'zolari orqali shakllanib, ma'no ifodalash uchun xizmat qiladigan nutq birligi.

Harf – tovushning yozuvdagi shartli belgisi.

So'z – leksemaning nutqda reallashishi.

So'z birikmasi – ikki va undan ortiq mustaqil so'zdan tashkil topgan, tushuncha ifodalaydigan grammatik hodisadir.

Gap – nutqning bir va undan ortiq so'z vositasida hosil qilingan birligi.

5. Tilning hajmi noaniq, nutqning hajmi esa aniq. U dialog, monolog, matn shaklida bo'ladi. Nutqning ikki shakli bor: og'zaki va yozma.

**2- topshiriq.** Nutqqa qo'yiladigan talablarni o'qituvchi hamkorligida izohlashga harakat qiling. Misollar bilan izohlang. Matn tuzing.

**1-mashq.**

Gaplarni o'qing va o'z fikr-mulohazalaringizni bildiring.

1. Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurg'on oynayi hayoti til va adabiyotdir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdir. (A. Avloniy)

2. Nutq – qudratli kuch: u ishontiradi, undaydi, majbur etadi. (R.Emirson)

3. Har bir kishining madaniylik darajasi, o'qib qanchalik tarbiya ko'rganligi uning yozma va og'zaki nutqidan bilinadi. (S.Ibrohimov)

4. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir. (I.A. Karimov)

5. So'zlash qobiliyati – hodisalar ichiga kirishining yagona va betakror vositasi.

(L.I. Tolstoy)

**3-topshiriq.** Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Kaykovusning "Qobusnoma", A. Navoiyning "Hayrat ul-abror", A.Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarlaridan til va so'z qudratiga bag'ishlangan o'rinlarni o'qib, parchalar yod oling.

Nutqning faoliyat ko'rinishlari. Nutq faoliyati ikki usulda namoyon bo'ladi: og'zaki va yozma shaklda.

Og'zaki nutqning ikki ko'rinishi bor:

1) oddiy so'zlashuv nutqi;

2) adabiy so'zlashuv nutqi.

Oddiy so'zlashuv nutqi tabiiy nutq sifatida namoyon bo'lib, sheva ta'sirida bo'lgan nutq hisoblanadi. Bunda adabiy til me'yorlariga amal qilinmaydi, noadabiy qatlam so'zlari uchrab qoladi (o'rinsiz qo'llangan chet so'z va so'z birikmalari – varvarizm, so'kinch, haqorat so'zlar–vulgarizm, nutqda ortiqcha takrorlanadigan parazit so'zlar, jumladan, haligi, shu desangiz, ibi, innaykeyin, habba va h.k.).

Adabiy so'zlashuv nutqida til me'yorlari (orfoepiya qoidalariga) qat'iy amal qilinadi. Yozma nutqning paydo bo'lishi og'zaki nutq ta'sirida bo'lgan. Yozma nutq adabiy tilning imloviy, punktuatsion, uslubiy qonun-qoidalariga bo'ysunuvchi grafik shaklidagi nutqdir.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. Til va tafakkurning o'zaro munosabati haqida ma'lumot bering.
2. Til va tafakkurning rivojini ta'minlovchi holat nima?
3. Til va nutq, ularning farqi haqida nima deya olasiz?
4. Nutqning to'g'riligi va aniqligi nutq madaniyati uchun qanday ahamiyatga ega?
5. Nutqning ravonligi, soddaligiga qanday erishiladi?
6. Nutqning mantiqiyliigi va ta'sirchanligi deganda nimani tushunasiz?
7. Og'zaki va yozma nutq shakllariga xos xususiyat nimadan iborat?
8. Til, nutq va so'zlashuv odobi haqida maqol, hikmatli so'z ayting.

## IKKINCHI DARS

### MAVZU: O‘ZBEK TILI – DAVLAT TILI

#### 1. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalarini izohlang.

|                                                                                                                      |                                                                                                                 |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| muqaddas<br>mangu ehtirom<br>vatan tuyg‘usi<br>tabarruk zamin<br>munosib farzand<br>tarixiy davlatchilik<br>poydevor | yurtboshi<br>urf-odatlar<br>milliy an‘analar<br>mahalla<br>keng jamoatchilik<br>o‘zaro yordam<br>tuy-tantanalar |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

#### 2. Matnni o‘rganing va so‘zlab bering.

O‘zbek tili – O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili va shu bilan bir qatorda, mamlakatimizda va boshqa yurtlarda yashaydigan o‘zbek millatiga mansub kishilarning ona tilisi hisoblanadi. O‘zbek tili o‘zining boy tarixi va ulkan merosi bilan dunyodagi tillar orasida o‘ziga xos mavqe va e‘tiborga ega. U o‘z tarixiy taraqqiyoti davomida boy lug‘at fondiga, fan va texnikaning turli sohalariga tegishli terminologiyasiga, nutqni aniq, qisqa va mazmunli ifodalashning o‘ziga xos grammatik shakl hamda vositalariga ega bo‘ldi.

O‘zbekistonda 1989- yil 21-oktabrda xalqimiz asrlar davomida orzu qilib, intilib va kurashib kelgan davlat tili haqidagi Qonunning qabul qilinishi mamlakat suvereniteti va mustaqilligi sari qo‘yilgan dastlabki dadil qadam edi. Aynan ana shu tarixiy hujjatga binoan o‘zbek tili mustahkam huquqiy asos va yuksak maqomga ega bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2- oktabrda, Davlat tili to‘g‘risidagi Qonun qabul qilinganligining 30 yilligi munosabati bilan tasdiqlangan “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5850-sonli farmoni o‘zbek xalqi hayotida muhim tarixiy voqea bo‘ldi. Mazkur farmon o‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e‘tiborini tubdan oshirish, o‘z kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an‘ana va qadriyatlarga sadoqat, ulug‘ ajdodlarimizning boy merosiga vorislik ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to‘laqonli joriy etishni ta‘minlash maqsadida bir qancha chora-tadbirlar belgilangan. Shulardan biri Oliy Majlisi palatalari, Madaniyat vazirligi, Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi, O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi, O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi, “Taraqqiyot strategiyasi” markazi va keng jamoatchilikning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun — 21 oktabr sanasini «O‘zbek tili bayrami kuni» deb e‘lon qilish to‘g‘risidagi taklifni ma‘qullashda o‘z ifodasini topgan. Farmonga ko‘ra, bu taklifni hayotga tatbiq etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi uch oy muddatda «O‘zbek tili bayrami kuni»ni belgilash bo‘yicha qonun loyihasini ishlab chiqishi

lozim edi. Bu qonun belgilangan muddatda ishlab chiqildi. 2020-yil 23-martda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan, 2020-yil 24-martda Senat tomonidan ma'qullangan "O'zbek tili bayrami kunini belgilash to'g'risida"gi O'RQ-615-sonli Qonun 2020-yil 10-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlandi. Bu qonun bor-yo'g'i ikki moddadan iborat bo'lib, uning **1-moddasida** "21-oktabr O'zbek tili bayrami kuni etib belgilansin" degan so'zlar bitilgan. Qonunning **2-moddasida esa**, ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kirishi e'tirof etilgan.

O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish bo'yicha amalga oshirilgan muhim choralardan biri O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tuzilmasida xodimlarining umumiy cheklangan soni 9 ta shtat birligidan iborat Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etilishi bo'ldi. Davlat tilini rivojlantirish departamenti o'z vakolati doirasida oldiga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun uning huquqiy asoslarini yaratish maqsadida "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti to'g'risidagi nizom" ishlab chiqildi. Bu Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrda 984-son qarori bilan tasdiqlandi.

### **3. Matn yuzasidan quyidagi topshiriqlarni bajaring**

1. Matn mazmunidan kelib chiqib, uni nomlang.
2. Matn yuzasidan savollar tuzing.
3. Matnning asosiy mazmuni nimadan iborat.
4. Quyidagi so'z va so'z birikmalarini izohlab bering: ona yurtga muhabbat, tabarruk zamin, boqiy davlat, kuch-qudrat, aql-farosat, sabr-toqat, adolat, ma'rifat.

### **4. Tilga bag'ishlangan quyidagi maqol va matallarni o'qing va ma'nosini o'rganing.**

Tilingni so'zlashga so'z, muhayyo qil, tilingni o'q qil, aqlni yoy qil.

(Abdulqosim Ferdavsiy).

Til – so'zlovchi istaginin eshituvchiga yetkazuvchi tarjimondir.

(Beruniy)

So'zni ko'ngildan chiqarmaguncha tilga keltirma va har nekim ko'ngilda bor – tilga urma.

(Navoiy)

### **5. She'rni yod oling. Uni nomlang va mazmunini o'z so'zingiz bilan aytib bering.**

O'z tilini unitgan xalqning,  
Bog'larida o'sgan gullarin.  
Chirmab uxlar zaharli ilon  
O'z tilini unitgan xalqning  
Osmonida porlamas quyosh -  
Nur o'rniga tukiladi tosh.  
O'z tilini unutgan xalqning  
Uyqusida aslo orom yuq –  
Tegib turar kuragiga o'q.

O'z tilini unutgan xalqning  
Mozorida ajdodlar qabri  
Uzra qo'yar bolalar tikan.

(Xurshid Davron)

### **7. Quyidagi matnni o'rganing va so'zlab bering.**

O'zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeini anglash, uni tan olish va unga amal qilish muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, tilimizda "davlat tili", "rasmiy til" degan atamalar va ularning o'ziga xos talqini bor. Aytish joizki, ko'pgina kishilar bu ikkala atamani mohiyatini to'liq va to'g'ri anglab yetmaydi. Shu sababli ularni qo'llashda o'ziga xos chalkashlik, ularni noo'rin qo'llash holatlari kuzatiladi. Agar biz yuridik, etnologik va lingvistik lug'atlarga nazar tashlasak, ularda bu tushunchalarga nisbatan turli izohlar berilganini guvohi bo'lamiz.

YUNESKO ekspertlari "davlat tili" va "rasmiy til" tushunchalarini farqlashni taklif etgan holda, quyidagi aniqlashtirishni tavsiya etadilar: "Davlat tili – ma'lum bir davlat doirasida siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohada integratsiyalash vazifasini bajaruvchi va mazkur davlatning ramzi hisoblangan tildir". "Rasmiy til - davlat boshqaruvi, qonunchilik va sud ishlarini yuritishda qo'llaniladigan tildir". Akademik Ye.P. Chelishevning fikricha, "davlat tili" tushunchasi "rasmiy til" tushunchasiga nisbatan kengroq mazmun va mohiyat kasb etadi. Chunki davlat tili nafaqat rasmiy muloqot sohasida, balki u keng ma'noda madaniyat sohasida ham amal qiladi.

Davlat tili — muayyan mamlakatda qonun chiqarish, ijroiya va sud hokimiyatlarida ish yuritish uchun rasmiy belgilangan til. Odatda, ko'p millatli mamlakatlarda, masalan, Hindiston, Kanada, Shveytsariya kabi mamlakatlarda qaysi til yoki tillar rasmiy ekanligi konstitutsiyalarida belgilab qo'yilgan. Ko'pchilik davlatlarda rasmiy til bilan davlat tili aynan bir xil ma'no va maqomga egadir. Faqat ayrim mamlakatlardagina rasmiy til maqomi davlat tili maqomidan farqlanadi. Masalan, Shveytsariyada konstitutsiyaga binoan nemis, frantsuz, italyan tillari — rasmiy til; nemis, frantsuz, italyan va retoroman tillari davlat tili hisoblanadi.

### **8. O'rgangan nazariy ma'lumotlarga asoslangan holda quyidagi topshiriqlarni bajaring.**

**1-topshiriq.** Nuqtalar o'rniga –ga, -ka, -qa qo'shimchalaridan mosini qo'yib yozing.

1. Hayot daraxtlari o'sgan bog'larda So'zni payvand eting har bir yurak..., Toki u bitta dard, bitta ishq bilan Zaminga o'rnashsin, o'ssin falak... (N. Ostonov) Toshkent... kelib, Navoiy bo'ini sayr etdilar. Badiiy so'zini nutq... nisbatan ishlatish mumkin. Badiiy kishilar deyish xato, yosh san'atkorlar deyilsa, ma'qulroq. (A. Rustamov). Tepdim – terak... chiqdim. (Maqol)

**2-topshiriq.** Berilgan so'zlarning ma'nosini izohlang. Ularning shakl va ma'no jihatidan farqlanishiga bittadan misol yozing.

Xush – hush, tuz – tus, yod – yot, ho'p – xo'p, sof – sop, bot – bod, ham – xam, yog'du – yog'di, sa'va – sava, yondosh – yondash, asl – asil, yuvundi – yuvindi.

## UCHINCHI DARS

### MAVZU. TIL VA YOZUV MASALALARI

Har soʻzki ko'ngildin o'ldi mavjud,  
Xat bo'lmasa, bo'lgay erdi nobud.  
(Munis)

#### Mashg'ulot rejasi:

1. Yozuv haqida umumiy tushuncha.
2. O'zbek yozuvlari tarixi.
3. O'zbek yozuvlarining rivojlanish bosqichlari.

#### 1. Yozuv haqida umumiy tushuncha.

**Bilib oling.** Yozuv fikrning tashqi shakliy ifodasidir. Yozuv orqali kishilar o'z fikrlarini bir-birlariga yetkazadilar, avlodlarga qoldiradilar. Yozuv orqali biz minglab yillar oldin o'tgan voqealar, shaxslar, ilm va odatlar to'g'risida ma'lumotga ega bo'lamiz. Ana shunday qiymatga ega bo'lgan yozuv birdan paydo bo'lmagan.

Dastlabki yozuv rasmlar orqali (bu xil yozuv piktografik „pictus“ — chizilgan, „graphie“ — yozaman, yozuv deyiladi) bolgan. Bunda har bir rasm (yoki narsa) biror ma'no ifodalagan (quyosh — kunduzni, oy — tunni, toshbaqa — baxtni kabi).

Yozuvning keyingi davri — ideografik yozuvdir (grekcha „idea“ — tushuncha, „graphie“ — yozaman). Bu xil yozuvda har bir yoki bir guruh tushuncha uchun bir xil ramziy simvolik shakl olinadi.

Piktografik va ideografik (uning birinchi bosqichlarini logografik („logo“ — soʻz, „graphie“ — yozaman) yozuv ancha murakkab bo'lib, yuzlab shakllarni chizish va ularning mazmunini bilishni talab etgan. Shuning uchun kishilar yozuvning yangi bosqichi — fonografik (yun. „phane“ — tovush, „graphie“ — yozamari) yozuvga — avvalo ayrim bo'g'inlarni, keyinroq ayrim tovushlarni biror belgi bilan ifodalash usuliga o'tadilar. Fonetik yozuvning kelib chiqishi qadimgi Finikiya yozuvi bilan bog'lanadi.

Xalqlar fonetik yozuvning turli — lotin, arman, gruzin, slavyan, arab yozuvlari va ularning ayrim o'zgargan turlari kabi shakllarini yaratganlar.

Qadimgi yozuvlar tosh, suyak, yog'och, qamish kabi qattiq jismlarga, sokngra pergament va qog'ozga yozilgan. Yozuvlar o'ngdan chapga, chapdan okngga yoki yuqoridan pastga qarab o'qilishi mumkin.

#### 2. O'zbek yozuvlari tarixi.

**Bilib oling.** Sobiq Ittifoq tarkibidagi turkiy va boshqa xalqlar (arman, gruzin, Boltiqbo'yi xalqlaridan tashqari) 1940-yil 8-may kuni qabul qilingan farmonga ko'ra rus (kirill) alifbosi asosida tuzilgan alifbodan foydalanib keldilar. Ungacha Okzbekiston va boshqa respublikalarda lotin alifbosi joriy etilgan edi.

O'zbekiston Markaziy Ijroiya Komitetining 1928-yil mart oyidagi III sessiyasida lotin alifbosini davlat alifbosi deb qaror qabul qilindi. Sobiq Ittifoq Markaziy Ijroiya Komiteti Prezidiumi va Xalq Komissarlar Soveti bu qarorni 1929-yil 7-avgustdagi maxsus qarori bilan ma'qulladi.

Lotin alifbosiga o'tishdan avval butun musulmon xalqlari va elatlari arab yozuvini qo'llar edilar. XX asrning 20- yillari arab alifbosi ma'lum darajada isloh qilindi. Chunki arab alifbosida unli tovushlarni ko'rsatadigan alohida belgilar yo'q edi. Zer-u zabar (harfning osti va ustida qo'llanadigan belgilar) faqat „Qur'on“ va arab tilda yozilgan diniy asarlardagina qo'llanar edi. 1921-yil 1-, 5-yanvarda Toshkentda chaqirilgan til-imlo qurultoyi, boshqa masalalar bilan birga, arab harflarining so'z boshi, o'ftasi va oxirida qo'llanish shakllarini soddalashtirdi. O'zbek tiliga xos bo'lmagan sod, zod, itqi, izg'iharflari alifbodan chiqarildi, u, o', i, a tovushlari uchun alohida harflar belgilandi. 1922-yil aprel oyida bo'lgan maorif va madaniyat xodimlarining ikkinchi qurultoyi ham birinchi qurultoy qarorlarini ma'qulladi.

Qayd etilgan yozuvlarda bitilgan ko'p yozma yodgorliklar hozirgacha saqlanib keladi. Runiy yozuvda — O'rxun-Enasoy tosh bitiklari, uyg'ur yozuvida (uni Mahmud Koshg'ariy „turkcha yozuv“ deb nomlaydi) — qadimgi turkiy yodnomalar (VIII—X asrlar); „Oltin yorug“, „Maytri simit“, budda va xristian diniga oid yodnomalar, yuridik hujjatlar esa sug'dyozuvida bitilgan. Moniy yozuvida „Xuastuanift“ yodgorligi yozilgan. Uyg'ur yozuvi, arab yozuvi bilan barobar, XV asrgacha qo'lanadi. „Qutadg'u bilig“ning Vena (Hiro) nusxasi (XI asr), „Hibatul haqoyiq“ (XII asr)ning A nusxasi, „O'gkuznoma“ning qadimiy nusxasi (XIII asr oxiri), Xorazmiy qalamiga mansub „Muhabbatnoma“ (1353- yil) asarining qadimgi nusxasi, „Latofatnoma“, „Dahnoma“, „Mahzanul asror“ (XIV—XV asrlar) kabi asarlarning ayrim nusxasi yoki parchalari uyg'ur yozuvida bitilgan. Uyg'ur yozuvi sug'd yozuvi asosida kelib chiqqan. Runiy yozuvi ham qadimgi oromiy yozuvi asosida kelib chiqqan, degan nazariya hozir asosiy o'rinni egallaydi.

**Bilib oling.** Grafika muayyan tilning fonetik-fonologik, leksik-semantik va orfologik birliklarini yozuvda ifodalash uchun shakllantirilgan optik-grafik belgilar tizimidir. Bu tizim belgilarining har biri grafik tilshunoslikda grafemalar sanaladi.

Yozuvning tovush tili bilan aloqasi, odatda, ana shu grafemalar vositasida amalga oshiriladi. Shuning uchun grafema muayyan til yozuv tizimining eng asosiy strukturaviy va funksional birligi sanaladi.

Yangi (lotincha) o'zbek yozuvida ham, kirill o'zbek yozuvida bo'lganidek, monograflar ko'pchilikni tashkil qiladi, ularning aksariyati yozma nutq oqimida oddiy grafema sifatida qatnashib, harf va tovush aloqasida simmetriyani - «bir tovushga bir harf» munosabatini ta'minlaydi. Qiyos qiling: maktab (fonemalar - 6 ta, grafemalar - 6 ta, harflar - 6 ta) - мактаб (fonemalar — 6 ta, grafemalar — 6 ta, harflar — 6 ta) kabi. Bu hoi har ikkala tizim vositasida yozish va o'qish ko'nikmalarining shakllantirilishini osonlashtiradi, shunga ko'ra yozuv amaliyotining pedagogik aspektida ijobiy baholanishi mumkin.

2. sh, ch, ng, ts kabi digraflarning (analitik grafemalarning) mavjudligi yozma nutq oqimida fonetik-grafik asimmetriyaning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

**Bilib oling.** Orfografiya (grek. orthos - «to'g'ri» + grapho - «yozaman») yozuv sistemasining ikkinchi komponenti bo'lib, u to'g'ri yozish me'yorlarini belgilaydigan qoidalar tizimidan tarkib topadi. Orfografiya grafikadan quyidagi belgilari bilan farqlanadi: grafika qoidalari grafemalarning mazmun planini (referentini) kodlashtirishga, orfografiya qoidalari esa ma'lum prinsiplar asosida orfogrammалarni tanlashga asoslanadi. Chunonchi, odam so'zida "d" ning yozilishi «d» grafemasining grafikada kodlashtirilgan fonemasiga mos, shu sababli bu so'zning yozilishi grafika tomonidan boshqariladi.

**1- mashq.** Quyidagi she'riy parchadagi tegishli so'zlarga tutuq belgisini qo'yib kochiring.

Shaklim mitti vergul go'yo,

Mano, Rano men-la ro'yo.

Kaba, qala, vada, surat

Meyor-u etibor, jurat

Davat, talat, suniy, sanat

Mensiz yozilmasdir, albat.

Etiroz-u, elon, ezoz

Hamisha men bilan hamroz. (R. Jumaniyozov)

### **Mavzuni mustahkamlash uchun topshiriqlar.**

1. Yozuv haqida umumiy tushuncha bering.
2. O'zbek yozuvlari tarixi haqida tushuncha bering.
3. O'zbek yozuvlarining rivojlanish bosqichlari haqida tushuncha bering .
4. Grafika haqida tushuncha bering.
5. Orfografiya haqida tushuncha bering.

## **TO'RTINCHI DARS**

### **MAVZU: TIL VA ME'YOR TUSHUNCHASI**

**Bilib oling.** Me'yor - jamiyat a'zolari tomonidan qabul qilingan, ma'qullangan va ularga tushunarli bo'lgan til birliklarining nutq jarayonida qo'llanish holati va imkoniyatidir.

Me'yor - tilning yashash shaklidir. Til va nutq tizimida me'yor o'ziga xos o'rniga ega. Til material sifatida nutq jarayonida xizmat qila boshlagan lahzalardanoq uni me'yorlashtirish jamiyat ehtiyojiga aylangan va me'yoriy muammolar kun tartibiga qo'yilgan.

Nutq madaniyati to'g'risida gap borar ekan, tabiiyki, nutqda so'zlarning o'rinli va o'rinsiz ishlatilishi to'g'risida ham bahs boradi. Qo'llangan til birligini

to'g'ri yoki noto'g'ri deyilganda, albatta, ma'lum bir o'lchovga asoslanamiz. Mana shu o'lchov tilshunoslikda adabiy til me'yori deb yuritiladi.

**Esda tuting.** Har bir lahjaning, so'zlashuv tilining, adabiy tilning o'z me'yorlari bo'lganidek, nutqning alohida ko'rinishlari bo'lgan argolar, jargonlar ham o'z me'yoriga ega. Xususiyl me'yorlar quyidagicha ko'rsatiladi: 1. Dialektal me'yor. 2. So'zlashuv nutqi me'yori. 3. Argolar, jargonlar me'yori. 4. Adabiy til me'yori.

Jamiyat taraqqiyoti bilan baravar holda til va nutqdagi me'yoriyl holatlarni o'rganish, tahlil qilishga ham ehtiyoj kuchayib borgan va bu muammolarni hal qilishda xalqning maishiy, ma'naviy-ma'rifiyl turmushi, ijtimoiyl-falsafiy va estetik dunyoqarashi, urf-odatlarl singari qator omillar e'tiborga olingan. Til hodisalarini, uning me'yoriyl jihatlarini tadqiq etishda yana tilning milliy xususiyatlarini hisobga olmaslik ham aslo mumkin bo'lmagan.

Demak, me'yor milliylik va tarixiyl mazmunini kasb etadi, necha yuz, ming yillar davomida shakllangan an'anaviylikka ega bo'ladi. Tildan foydalanishdagi an'anaviyl me'yorlarning davrlar o'tishi bilan o'zgarib, yangilanib turishi ham tarixiy jarayondir.

### **Quyidagi topshiriqlarni bajaring.**

**1-topshiriql.** "Mutaxassisning nutq madaniyatl" mavzusida matn tuzing.

**2-topshiriql.** Ish jarayonidagi muomala madaniyatl haqida kasbiyl o'yin senariysini tuzing va uni insseniroyka qilish.

**3-topshiriql.** Berilgan gaplardagi mantiqqa zid qo'llangan so'zlar o'rniga mantiqan mosini qo'yib ko'chiring.

1. Sattoroy yolvorgan ohangda ko'zlarimga umidvor qaradi. 2. Ikkalamiz ham tubsiz ko'ngilsizlik oldidan picha tinchlanishimiz kerak edi. 3. Sattoroy zarda bilan planshetni irg'itib yubordi-da, mening so'zlashim ga erk bermay, sakrab o'rnidan turdi. 4. Men Ahmadni chaqirish oldidan stol ustiga uning Valitoy bilan tushgan suratini ham, Zaremaning foto-suratlarini ham sochib qo'ygan edim. 5. Mana, u oyoq uchida sekin yonimga yo'rg'alab keldi-da, meni odatdagiday so'roqlarga ko'mib yubordi. (M. Nasibullin) 6. U jamiyat taraqqiyotini rivojlantirish uchun insonlarning ma'naviyatini yuksaltiruvchi asarlar yaratdi. (A. Olimov)

## **BESHINCHI DARS**

### **MAVZU: O'ZBEK TILI IMLO ME'YORLARI**

**1- mashql.** Gaplarni o'qing. Xato yozilgan so'zlarni aniqlab, to'g'rilari bilan almashtirib ko'chiring. Xato yozishsabablarini tushuntiring.

1.Til tafakkurning in'ikosi, uning hosilasidir. 2. Bu yerning iqlimi issiq siz mo'tadil havoga ko'nikgansiz. 3. Samarqanddan olgan taasurotlaringiz asosida insho yozing. 4. Bog'ga chiqib,qipqizil olmalarni tariflang, baxru dilingiz ochiladi. 5. Davo hujatlari tayyor bo'lguncha, ish joyingizdan tafsivnoma keltiring.6. To'y

boshi dev qomat bir yigitni saxnaga chiqardi. 7. Amudaryoning bu qadar shiddatli oqishini endi ko‘rishim edida!

**Esda tuting!** Imlo me‘yorlari, ya’ni to‘g‘ri yozish me‘yorlari nutqiy savodxonlikni belgilovchi asosiy mezon sanaladi. Imlo me‘yorlari til vakillari tomonidan ongli ravishda kelishilgan holda yaratiladi. Bu me‘yorlarning amal qilishi maxsus imlo qoidalari bilan tasdiqlanadi. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi asosidagi yozuv me‘yorlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1995-yil 24-avgustda tasdiqlangan «O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari»ga tayanadi. Unga harflar imlosi, o‘zak va qo‘shimchalar imlosi, bo‘g‘in ko‘chirish, so‘zlarni qo‘shib va ajratib yozish kabilarga oid qoidalar kiritilgan. Yozma nutqda bu qoidalariga amal qilish majburiydir.

**1- topshiriq.** Ko‘chiring. Qo‘sh unlilaming yozilishi va talaffuziga diqqat qiling:

sharoit, tabiat, radio, million, maishat, said, oila, ellipsoid, lauréat, okean, poema, aerostat, manfaat, inshoot, aorta, vakuum, muammo, tabiiy, rioya.

**2- topshiriq.** Matnni o‘qing va shu asosda to‘g‘ri yozish uchun nimalarni bilish kerakligi to‘g‘risida taklif-tavsiyalariningizni yozma ravishda bayon qiling.

So‘z va qo‘shimchalarni to‘g‘ri yozish, qo‘shib va ajratib yoziladigan so‘z va so‘z shakllarini bilish, bosh harflar bilan yozilishi kerak bo‘lgan so‘zlarni farqlash kabi imlo amallarini o‘zlashtirmasdan turib yozma savodxonlikka erishish mumkin emas. Imlo qoidalarini bilish faqat to‘g‘ri yozishni o‘rganish uchungina zarur deyish xato bo‘ladi. So‘zlarni to‘g‘ri o‘qish, nutq jarayonida to‘g‘ri talaffuz qilish, hatto so‘zning matndagi ma’nosini to‘g‘ri anglash va o‘rinli qo‘llay bilish uchun ham imlo qoidalarini puxta egallash taqozo etiladi. Shuning uchun ham Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan «O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari»ni chuqur o‘rganish va yozma nutqda ularga to‘la amal qilish har bir o‘quvchi, qolaversa, barcha fuqarolarning burchidir. Afsuski, ko‘zga tashlanib turgan ko‘cha peshtoqlarida, idoralar nomi yozilgan lavhalarda Yunus-obod, Yangi—bozor, orom—baxsh, ko‘z oynak, elektro texnika kabi xato yozuvlar uchrab turibdi.

Vatanini, millatini sevgan har bir kishi yozuv madaniyati azal-azaldan milliy qadriyatlarining ko‘zgusi, ilmiy-ma’rifiy salohiyatning belgisi bo‘lib kelayotganini aslo unutmasligi lozim. Ulug‘lanayotgan qadriyatlarimizdan biri bo‘lgan milliy yozuvimizga hurmat va e’tiqodni to‘g‘ri va chiroyli yozish orqali tarbiyalashimiz maqsadga muvofiqdir.

**3- mashq.** So‘zlarni ko‘chirib yozing, qo‘sh unli va undosh harflarning to‘g‘ri yozilishini esda tuting.

I. Matbaa, mutolaa, manfaat, mudofaa, murojaat, mutaassib, taassurot, taajjub, taassuf, shuur, vakuum, inshoot, badiiy.

II. Muqaddam, muddat, modda, moddiy, muqaddas, malla, metall, murakkab, mutafakkir, mukammal, tavakkal, tasarruv, tafakkur, tullak, taraddud, zukko,

ziddiyat, Zahiriddin, gamma, grammatika, diagramma, hujjat, himmat, hammom, hurriyat, hakka, dukkak, lazzat, kollej, kakku, kalla, silliq, salla, sakkiz, sodda, jiddiy, go'mma, chappa, chillaki, xatti-harakat, qaddiqomat, achchiq, avvalo, omma, okkulist, yollanma.

**4- mashq.** Gaplarni o'qing. Ajratilgan so'zlarning o'zagidagi o'zgarishlarni aniqlang va sababini izohlang.

1. O'ynab gapirsang ham o'ylab gapir. 2. Xalq botir o'g'lonlarni hech qachon unutmaydi. 3. Og'zaki nutq qisqa va ifodali bo'lishi kerak. 4. Qizcha erkanib opasining bo'ynidan mahkam quchdi. 5. Bolaning ko'ngli o'ksimasin deb yumshoq o'rindiqqa o'tqazdi. 6. So'roq qilingan kishining ayblarini sanab berdik. 7. Sog'lom va zehnli bo'lib ulg'aygan bola hayotda qiynalmaydi. 8. So'z bilan o'ynovchilardan yuragim bezillaydi. 9. Musavvirning bo'yog'ida hayot chizgilari aniq ifodalangan edi.

**5- mashq.** Quyidagi fe'llardan qo'shimchalar yordamida ot yoki sifat yasang va so'z o'zagidagi o'zgarishlarni ko'rsatib bering.

Ili, qayna, sovi, yumsha, qot, tin, yon, sana, to'qi, qizi, to'xta.

**4-topshiriq.** Matnni o'qing. Tovush o'zgarishiga uchragan so'zlarni aniqlab, bu o'zgarishlarning sababini tushuntiring. Odob kichik yoshlilarni kattalar duosiga sazovor etadi; yoshlar u duo barakasidan umrbod bahramand bo'ladilar. Odob

ulug'lar ko'nglida yoshlarga mehr uyg'otadi va u odobli yoshga bo'lgan muhabbat ko'nglida abadiy qoladi. Yoshlarni ko'zga ulug' qilib ko'rsatadigan fe'l-atvori odobdir, odoblilarning yurish turishida xalq ulug'vorlik ko'radi. Odob kishilar tarafidan qilinishi mumkin bo'lgan hurmatsizlik eshigini bekitadi va odamni hazil-mazaxdan, kamsitishdan saqlaydi. Odobdan kichiklarga shunchalik foyda yetadigan bo'lsa, kattalarga nechog'liq ekanini tasavvur qiling. Odob va tavoze do'stlik oynasiga jilo beradi va ikki oraga yorug'lik bag'ishlaydi. Odob urug'ini ekan odamning hosili javohir bo'ladi. Odobli va go'zal xulqli odamlar ko'payaversa, xalqning do'stligi, ularning bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbati borgan sari rivoj topadi.

Alisher Navoiy, «Mahbub ul-qulub»dan.

**6-mashq.** Lug'atdan k, q, g, g' undoshlari bilan tugagan 10 ta so'z toping va avval egalik, so'ngra g bilan boshlanuvchi boshqa qo'shimchalarni qo'shib, tovush o'zgarishiga uchrash hollarini sharhlang.

**5-topshiriq.** She'riy parchalarni ifodali o'qing. Tovush o'zgarishiga uchragan so'zlarni aniqlab, daftaringizga ko'chiring.

Har kimki chuchuk so'z elga izhor aylar,  
Har nechaki ag'yor durur yor aylar,  
So'z qattig'i el ko'ngliga ozor aylar,  
Yumshog'i ko'ngillarni giriftor aylar.

Alisher Navoiy.

Orzum shul, o'chmasin yongan charog'ing,  
Yulduzday nur sochsin chashming-qarog'ing,  
Magar chinor bo'lsang, chinorday yasha,  
Bevaqt uzilmasin biror yaprog'ing.

Abdulla Oripov.

Tarixing bitmakka, xalqim,  
Mingta Firdavsiy kerak.  
Chunki bir bor chekkan ohing  
Mingta doston, o'zbekim.

Erkin Vohidov.

**7-mashq.** Gaplardagi qaysi so'zlarning o'zak va qo'shimchasida tovush tushish hodisasi yuz berganligini aniqlang va shu so'zlarni daftaringizga ko'chiring.

1. O'z ko'nglingni ko'tarishning eng yaxshi yo'li kimningdir ko'nglini ko'tarishdir (Mark Öven). 2. Har kimki atog'a ko'p rioyat qilg'ay, o'g'lidan anga bu ish siroyat qilg'ay (Alisher Navoiy). 3. Sening har bir ishing boshqalarga ibrat bo'lishini unutma. 4. Og'ziga kelganni demoq nodonning ishi (Alisher Navoiy). 5. Ikkalasi ham shahrimizdagi o'zgarishlarni ko'rib lol qolishdi. 6. To'pidan ayrilganni bo'ri yer (Maqol). 7. Sening tug'ilib o'sgan qishlog'ingdan ayrilmasligingni bilar edim.

8. Meniki-seniki deb tortishib, necha marta burni qonadi hamki, og'zini tiyolmaydi. 9. Men ham bir o'g'lingman, ona sayyora, Bag'ring men uchun ham xoki pok bo'lsin (A. Oripov).

**6- topshiriq.** Do'stlik va sadoqat mavzusidagi maqollardan ayting. So'zlarida tovush o'zgarishlari bo'lgan maqollarni yozib oling va bu o'zgarishlarni imlo qoidalari asosida izohlab bering.

**Esda tuting!** Qaratqich kelishigi qo'shimchasi yozuvda -ning shaklida ifodalanadi: O'zbekistonning iqtisodi, bilimning kuchi. Bu kelishik ma'nosi jonli nutqda -ni, she'r tilida -n, -im shakllarida ifodalanishi mumkin: Ukamni oldiga kirdim. O'zbekiston Vatanim manim. Tushum kelishigi doimo -ni shaklida yoziladi: Lolani ko'rdim, mehrimni berdim kabi. She'riy til va og'zaki

nutqda -n, -di, -ti, -i shakllarida qo'llanishi mumkin: Har fasl o'z ishin qilar. Adl qulog'i-la eshit holini (Muqimiy). Qaratqich va tushum kelishiklari ba'zi o'rinlarda belgili (-ning, -ni qo'shimchasi bilan), ba'zan belgisiz (qo'shimchalarsiz) qo'llanadi. Xususiylik, aniqlik ma'nosi ifodalanganda bu kelishiklar belgili ishlatiladi (uyning eshigi, oq gulni uzatmoq kabi), umumiylik, noaniqlik ma'nosi esa bu kelishiklarning belgisiz shakli orqali ifodalanadi (shahar ko'chasi, olma yemoq kabi).

**8-mashq.** Nuqtalar o'rniga kelishik qo'shimchalaridan qo'yib, gaplarni ko'chiring. -ning, -ni qo'shimchalarining qo'llanishini izohlang.

1. Mamlakat... kichik bir qismi bo'lgan oila..., un... tinchligi... asraylik. 2. Hayotda o'z o'rnini... topishida odam... bolalikdagifaoliyati, olgan bilimi va tarbiyasi katta o'rin tutadi. 3. Ba'zan o'ylab deyman, ne bo'lardi gar, qudrat... ko'rgizsa tabiat hassos. Va inson suvrat... u muqarrar, fe'l-u atrofiga aylab qo'ysa bas (A. Ori pov). 4. Yo'lchi arava... nimasi shikastlangani... payqamay, hayron bo'lib turar ekan, arava... tagidan dehqon... ayanchli tovushi eshitildi (Oybek). 5. Ko'p til... bilmoqlik... foydasi katta, u inson... katta boyligi hisoblanadi. 6. Haq yo'linda kim sanga bir harf o'qitmish ranj ila, Aylamak bo'lmas ado o... haq... yuz ganj ila (A. Navoiy). 7. Inson dunyo... qanchalik bilsa, o'zligi... ham shunchalik anglaydi (I. Gyote).

## OLTINCHI DARS

### MAVZU: ASOS VA QO'SHIMCHALAR INILOSI

**Esda tuting!** O'zak va qo'shimchadagi undoshning o'zgarishi:

-k, -q bilan tugagan so'zlarga egalik qo'shimchalari qo'shilganda «k» undoshi g ga, q undoshi esa g' ga o'zgaradi va shunday yoziladi. Masalan: ohak> ohagi, bek > begi, tayoq > tayog'i, yo'q > yo'g'i kabi. Ammo ishtirok, erk, huquq, ravnaq, yuq, haq, ishtiyoq so'zlari bundan mustasno. -ga, -gacha, -gach, -guncha, -gani, -gudek, -gan, -gin, -gina kabi -g harfi bilan boshlanuvchi qo'shimchalar

qanday tovush bilan tugagan o'zakka qo'shilishiga qarab quyidagicha aytiladi va yoziladi:

a) -k undoshi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda yuqoridagi qo'shimchalarning bosh tovushi -k tarzida aytiladi va shu harf bilan yoziladi: tok + ga > tokka, ek + gin > ekkin, kichik + gina > kichikkina kabi;

b) -q undoshi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda bu qo'shimchalarning bosh tovushi -q tarzida aytiladi va shunday yoziladi: soliq + ga > soliqqa, chiq + gani > chiqqani, yoq + gach > yoqqach, qo'rq + guncha > qo'rqquncha kabi;

d) qolgan barcha hollarda so'z qanday tovush bilan tugashidan qat'i nazar (jumladan, g, g' bilan tugasa ham), ushbu qo'shimchalarning bosh harfi g bilan yoziladi: barg + ga > bargga, dialog + ga > dialogga, bug' + ga > bug'ga, tog' + ga > tog'ga kabi.

**1-topshiriq.** Quyidagi nazariy ma'lumotni o'rganing.

1. Qo'shimcha qo'shilishi bilan so'z oxiridagi unli o'zgaradi: sayra — sayroqi, aya — ayovsiz, oqi — oquv, sovi — sovuq, og'riq — og'rig'i, qorin — qomi.

2. *parvo, obro', avzo, mavqe* so'zlaiga egalik qo'shimchasi -yi shaklida (*parvoyi, obro'yi*), *mavzu, dohiy* so'zlariga esa I, II shaxsda -yi, III shaxsda -si shaklida qo'shiladi: *mavzuyim, mavzuying, mavzusi* kabi.

3. Taqlid soʻzlarning tarkibida v yoki u tovushi boʻlsa, -illa yasovchisi -ulla shaklida yoziladi: *shovulla, gurulla, lovulla*.

4. Oʻtgan zamon uchinchi shaxs qoʻshimchasi har vaqt -di yoziladi: *ketdi, yotdi, kelmabdi*.

5. k undoshi bilan tugagan soʻzlarga qoʻshimcha qoʻshilganda, qoʻshimchalar **k** bilan, **q** bilan tugagan soʻzlarda, qoʻshimchalar **q** bilan boshlanadi: *oʻzakka, bilakka, koʻrikka, tekkach, toshloqqa, qirgʻoqqa, chiqqach, yoqquncha* kabi.

6. qolgan barcha hollarda, soʻz qanday tovush bilan tugashidan va bu qoʻshimchalarning bosh tovushi **k** yoki **q** aytilishidan qatʼi nazar, **g** yoziladi: *bargga, pedagogga, bugʻga, sogʻga, ogʻgan, sigʻguncha* kabi.

**1- mashq.** Quyidagi soʻzlarga joʻnalish, oʻrin-payt, chiqish kelishiklari qoʻshimchalarini qoʻyib chiqing. Talaffuz va yozuvdagi farqini aytib bering.  
ot, oʻt, togʻ, Samarqand, qishloq.

**2- mashq.** Quyidagi soʻzlarga egalik qoʻshimchasini qoʻshing, oʻzakdagi oʻzgarishni tushuntirib bering.  
yurak, ogʻiz, burun, qorin, bilak, buloq, tirnoq, oʻgʻiz, parvo, obroʻ, mavqe.

**3- mashq.** Soʻzlarni tarkiblarga ajrating. Tarkiblarining maʼnosini aytib bering.

N a m u n a : *Oltiariq* — *olti* va *ariq*, *sargʻaydi* — *sariq* va feʼl yasovchi -gʻay qoʻshimchasi hamda -di — oʻtgan zamon, 3- shaxs birlik qoʻshimchasi.

1. saylov, boʻyoq, soʻroq, sayroqi, sovuq, oʻquvchi, sana, tayogʻi, yoʻgʻi, bokyni, kokngli, qayril, uigʻay, ikkov, Sirdaryo, Zadaryo, Qayragʻoch, Muhammadsharif.

## **2. Och qoringa achchiq sarimsoq.**

Bu — *oʻlganning ustiga tepgan, men na deyman, qoʻbuzim na deydi* kabi maqollarga oʻxshash ibora. *Oʻzim-ku oʻlgudek ochman, uning ustiga sarimsoq berib yanada ochirasan*, maʼnosi anglatiladi. Sarimsoq, odatda, ishtaha ochish uchun yeyiladi. Bu iborada istehzo, kesatish, mazax, yengil hazil maʼnosi anglashiladi.

**(Mahmud Sattor)**

**Esda tuting!** Oʻzak va qoʻshimchadagi tovushning tushib qolishi:

— Ikkinchi boʻgʻin yopiq boʻlgan otlarga egalik qoʻshimchalari va shunday tarkibli feʼllarga -il nisbat qoʻshimchasi qoʻshilganda oʻzakdagi ikkinchi unli aytilmaydi va yozilmaydi. Masalan: *ogʻiz>ogʻzim, shahar>shahring, oʻgʻil> oʻgʻli, ayir>ayril, qayir>qayril* kabi.

— Ikkinchi boʻgʻini ochiq unli bilan tugagan sonlarga -ov, -ala qoʻshimchalari qoʻshilganda ham oʻzakdagi -i unlisi yozilmaydi: *ikkov, oltov, yettala* kabi.

— men, sen olmoshlariga -ni, -ning, -niki qo‘shimchalari qo‘shilganda qo‘shimchadagi -n aytilmaydi va yozilmaydi. O‘zagi -n bilan tugagan boshqa so‘zlar bundan mustasno. Masalan: meni, sening, meniki va o‘rinni, nonning, matnniki kabi.

**1-topshiriq.** 1 so'zlov, oyiov, sinov, so'roq, boyoq, o 'quvchi, sovuq, qaviq, og'riq so'zlarining o'zaklarini toping va yasovchi qo'shilgandan keyin tovushlardagi o'zgarishlarni tushuntiring.

2. mavzu, avzo, dohiy, o'zak, parvo, yurak, bek, kuboksefi\ann\ egalik qo'shimchasi bilan turlang. So'z o'zagidagi tovush o'zgarishlarini tushuntirib bering.

3. Jo'nalish kelishigining, ravishdosh va sifatdoshlarning q, k bilan boshlanuvchi qo'shimchalarini oigan so'zlarga to'rttadan misol keltiring.

N a m u n a : qishloqqa, kichikka, zerikkach, chiniqqach, io'kkan, taqqan.

4. So'zlardagi tovush o'zgarishi sabablarini tushuntirib bering.

**4-mashq.** So'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga va yozishga o'rganing.

fikr, zikr (fikir, zikir emas); aka (oka emas); bahor, zamon, gavda (bohor, zomon, govda emas); qovun, sovun, tovush (qovin, sovin, tovish emas); milliard, tabiat, sharoit (milyard, tabiyat, sharoyit emas); qibla, tobla (qivla, tovla emas); avtobus, avtomat (aftobus, aftamat emas); fursat, fayz, fasl (pursat, payz, pasl emas); sud, zavod, obod (sut, zavot, obot emas); iztirob, tuzsiz (istirob, tussiz emas); shanba, yonbosh, yonma-yon (shamba, yombosh, yomma-yon emas); gugurt, artist, do'st (gugut, artis, do's emas); uzuq, yutuq (uziq, yutiq emas); orzum, orzungiz (orzuyim, orzuyingiz emas); parvoyim (parvom emas); avzoyi, mavzusi (avzosi, mavzuyi emas); darvozabon, masxaraboz (darvozavon, masxaravoz emas), ishda, misdan, ketdi, kelmabdi (ishta, mistan, ketti, kelmapti emas), shovulla, lovulla, gurulla (shovilla, lovilla, gurilla emas).

**5- mashq.** Quyidagi qo'shimchalarning so'z o'zakiariga qo'shilgandagi yozilishi va talaffiziga rioya qiling.

bargga, pedagogga, bug'ga, sog'ga, og'gan, sig'guncha, (bakka, pedagogkka, buqqa, soqqa, oqqart, siqquncha emas).

## YETTINCHI DARS

### MAVZU: QO'SHIB, AJRATIB VA CHIZIQCHA BILAN YOZILADIGAN SO'ZLAR IMLOSI

#### **Amaliy mashg'ulot rejasi:**

1. So'zlarni qo'shib yozish qoidalari.
2. So'zlarni ajratib yozish qoidalari.
3. Chiziqcha bilan yozish qoidalari.

#### **Bilib oling.** 1. So'zlar quyidagi hollarda qo'shib yoziladi:

Umumiy bir tushunchani ifodalagan qo'shma so'zlar: *bedapoya, devsiyat, otboqar, karnaygul, tokqaychi, so'zboshi, To'rtko'l, Oltiariq, Shofayziquloq, fotoapparat, kinoteatr, suvosti, SamDU, ishyoqmas, devqomat, qirg'iyko'z, olaqarg'a, nosqovoq, suvilon.*

#### **3-topshiriq.** Quyidagi nazariy ma'lumotni o'rganing.

##### **So'zlarni ajratib yozish qoidalari.**

**Bilib oling.** Qo'shma fe'lning qismlari ajratib yoziladi: sarf qil, ta'sir et, tamom bo'l, sotib ol, olib kel, olib chiq.

Ko'makchi fe'l va to'liqsiz fe'l mustaqil fe'ldan ajratib yoziladi: aytib ber, olib ko'r, so'rab qo'y, ko'ra qol, bera boshla, yiqila yozdi; ketgan edi, ketgan ekan, ketgan emish kabi.

Ko'makchilar ajratib yoziladi: shu bilan, soat sayin, borgan sari, bu qadar, kun bo'yi kabi.

**Hamma, har, hech, bir, qay, u, bu, shu, o'sha** so'zlari o'zidan keyingi yoki oldingi so'zdan ajratib yoziladi: hamma vaqt, har kim, hech qaysi, qay kuni, u yerda, shu yoqdan, o'sha yoqqa kabi. Lekin birpas, biroz, birato'la, birvarakayiga, birmuncha, buyon so'zlari qo'shib yoziladi.

Sifat oldidan kelib, belgining ortiq yoki kamligini bildiradigan to'q, jiqqa, him, liq, lang, och sariq kabi so'zlar ajratib yoziladi: to'q qizil, jiqqa ho'l, tim qora, liq to'la, lang ochiq, och sariq kabi.

**2-topshiriq.** 1. Nima sababdan voyvoyla, gyijila; achchiqtosh, molboqar, SamDU; oppoq kabi juft so'zlar qo'shib yoziladi?

2. Nima uchun Markaziy Osiyo, Yuqori Chirchiq; kun bo'yi, qishloq sari; bir yuz yetmish besh; ko'chama ko'cha, ochiqdan ochiq, guli ra'no, nuiqayi nazar, X sinf, XXI asr kabi so'zlar ajratib yoziladi?

#### **Bilib oling.**

##### **3. So'zlar quyidagi hollarda chiziqcha bilan yoziladi:**

1) juft so'zlar: *oldi-qo'ydi, oylab-oylab, mehr-shafqat, bitta-bitta, uy-uyida* kabi;

2) kuchaytirma daraja ifodalovchi qismlar: *qip-qizil, yam-yashil, to'ppa-to'g'ri* kabi;

3) o'zaro -ma, -ba qo'shimchalari bilan qo'shilgan so'zlar: *rang-barang, damba-dam, uyma-uy* kabi;

4) -chi -a (-ya), -ku, -u(-yu), -da yuklamalari: *men-chi, sen-a, boraman-a, yozdi-ku, borgan-u, bola-yu, sen-da, keldi-da* kabi;

4. Ifoda birikmalari o‘zaklarini qo‘shish uchun unlidan so‘ng i o‘rniga **yi** yoziladi: *oynayi jahon, tarjimayi hol, nuqtayi nazar*.

3. Nima uchun yor-u birodar, kecha-yu kunduz, kuppa-kunduz, rang-barang, men-chi, sen-a, 5- sinf, 70-yillar, kilovattsoat kabi so‘zlar chiziqcha bilan ajratib yoziladi?

### **Bilib oling.** So‘z bo‘g‘inlarini ko‘chirish qoidalari

1. Birinchi va so‘nggi bo‘g‘ini bir harfdan iborat bo‘g‘in oldingi qatorning oxirida qoldirilmay, so‘nggi bo‘g‘in bilan birga ko‘chiriladi: e -k in , e ’-tibor, a-dab, matba-a.

2. Bir va bir necha harfdan yoki bo‘g‘indan iborat bo‘lgan qisqartma so‘zlar (BMT, AQSH, O‘zR, 10 gr, 20 sm, sh. k.), shartli belgilar (“Jste’dod“ — 3, Boing — 767, 6-“A“ sinf) ajratib yozilmaydi.

3. Qisqartirilgan ism, ota ismlar va familiyalar ajra tilmay, birga yangi yo‘lga ko‘chiriladi yoki oldingi qatorda qoldiriladi (S. S. Odilov, A. Q. — Abduiia Qahhor).

4. Bir bo‘g‘inli so‘zlar tarkibida qancha undosh bo‘lishidan qat’iy nazar to‘liq ko‘chiriladi: fikr, frank, gramm kabi. Tarkibida ikki undosh bo‘lgan so‘zlarning har ikki undoshi ajratilmay birga ko‘chiriladi: ko-ngress, me-tall, kilo-gramm kabi.

5. Bir tovushni ifodalovchi sh, ch, ng harflari ajratilmay, birga yangi yo‘lga ko‘chiriladi: ko-shona, ach-chiq, ko‘-ngil kabi.

Agar sh, ng ikki tovushni ifodalasa, ajratib yoziladi: As’-hob, Is'-hoq, tun-gi kabi.

## **SAKKIZINCHI DARS**

### **MAVZU: BOSH HARFLAR IMLOSI**

#### **Bilib oling.**

1. Joy nomlari bosh harflar bilan yoziladi: Samarqand, Qo'chqorchi (qishloq), Sirdaryo, Shimoliy Kavkaz.

2. Davlat, oliy tashkilotlarning har biri bosh harf bilan yoziladi: O‘zbekiston Respublikasi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti.

#### **Eslang.**

1. Atoqli qo‘shma otlarning birinchi harfigina bosh harf bilan yoziladi: Oltiariq, Oqtepa, Sirdaryo.

2. Osmon jismlari, maxsus sayyora nomi bo‘lib kelmaganda, kichik harf bilan yoziladi: Biz shaharga quyosh botganda kirib keldik.

3. Vazirlik, idora, korxona, tashkilot hamda mukofot nomlari tarkibidagi birinchi so‘zi bosh harfda yoziladi:

Fanlar akademiyasi, O'zbekiston oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, „O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi“, „Maorif alochisi" kabi.

### **1-topshiriq.**

1. Ko'chirma gaplarda bosh va kichik harflarning qollanilishini eslang va gapirib bering.

2. Mashhur shoir va yozuvchilarning ismi, otasining ismi, taxallusi, ramziy otlariga misollar keltiring.

**1- mashq.** Nuqtalaro'migaz-s, n-m, x-h harflardan mosini qo'yib yozing. i...tirob, i...siq, i...siz, bok...chi, sha...ba, om...aviy, jo...bozlik, to...maslik, ko'ri...mas, e...son, ...usni...at, ...ur, ...ush, ...iyla, A...mad, ...ar ...il.

**2-mashq.** Sokzlarning o'qilishi va yozilishiga e'tibor bering. O'zingiz ulardan beshtasi ishtirokida gap tuzing.

anqov, bekinmoq, bayram, Maryam, jingalak, arava, Rahim, rahmdil, kunbotar, kungaboqar, kongress, chinqiroq, manman, yonma-yon, tanbeh, tanbal, tanga, tangens, qo'nmoq, yalinmoq, qorong'i, to'ng'ich, qo'ngkir, otinbibi, yig'lamsiramoq, bo'linmoq.

**3-mashq.** O'qing. Ng harfmi to'g'ri talaffuz qiling.

1. Onangni kiftingda tutsang, singlingni — boshingda tut. 2. Onaning kokngli bolada, bolaning ko'ngli-chi?

3. Odam tili yara qilganda har chog', Mingta malhaming ham tuzatmas biroq. (N. Ganjaviy) 4. Tulkiga o't qo'ygilki, o'tga chang solmas, Chunki u o't ila teng kela olmas. (X. Jomiy) 5. „Ona“ so'zining o'zi har yurakka jarangli sado beradi. 6. Insonning birinchi so'zi ham, so'nggi so'zi ham — Ona! 7. Kitob o'qimagan kishining zehni o'tmaslasha boradi. 8. Rang ko'r—hoi so'r.

**4- mashq.** Quyidagi so'zlarga h yoki x harflanni to'g'ri qo'yib yozing.

(H/X)irod, mu(h/x)r, (x/h)ato, (h/x)osil, (h/x)alokat, Abdura (h/x)mon, (h/x)azil, (x/h)itob, dara(x/h)t, (x/h)umor, (h/x)amroh, (h/x)ira.

**2- topshiriq.** 1. Aa va Oo unlilarining yozilish qoidalarini eslang: barobar, anor, biror, bahor, buloq, zamon, savol kabi so'zlaming birinchi va ikkinchi bo'g'inlarida a yoki o aytilishi va yozilishini izohlab bering.

2. O'zlashma so'zlarda Oo ning yozilishi va talaffuzini izohlab bering: agronom, talon, direktor, termos, doktor.

3. Aa, Oo harflari ishtirok etgan talaffuzi bir xil, ammo yozilishi har xil so'zlarga to'rttadan misol yozing.

**5-mashq.** Quyidagi so'z birikmalaridagi so'zlami zarur o'rinda bosh va kichik harflar bilan yozib chiqing.

toshkent sharqshunoslik instituti, o'zbekiston xalq ta'limi vazirligi, o'zbekiston qahramoni unvoni, o'zbekiston respublikasi oliy sudining raisi, navro'z xayriya jamg'armasi, oy yoritadi, ammo isitmaydi, chig'atoy mahallasi.

## TO'QQIZINCHI DARS

### MAVZU: O'ZBEK TILINING SO'Z YASALISH ME'YORLARI

**Bilib oling.** Turli usullar yordamida so'z hosil qilinishi **so'z yasalish** deb ataladi. So'zlar asosan besh xil usul bilan yasaladi:

1. So'z yasovchi qo'shimchalar bilan yasaladi.
2. So'zlarni qo'shish bilan yasaladi.
3. So'zlarni qisqartirib yasaladi.
4. Bir turkumdan boshqa turkumga so'z o'tishi yordamida yasaladi.
5. So'zlarni takrorlash yordamida.

**1. So'z yasovchi qo'shimchalar** bilan ot, sifat, fe'l, ravish turkumiga oid so'zlar yasaladi: *ishchi, aqlli, ishla, yashirin. Olmosh, son* va **yordamchi so'zlar** yasalmaydi.

**2. So'zlarni qo'shib, juftlab so'z yasashda** qo'shma va juft so'zlar yasaladi: *qora+mol – qoramol, ko'z+oynak - ko'zoynak, idish-tovoq, apil-tapil, unda-bunda.*

Birdan ortiq so'zning birikishidan yasalgan so'zlar **qo'shma so'zlar** deyiladi: *choyquti, gultojixo'roz, sotib oldi, himoya qildi, bir oz, rahmdil.* Ikkita so'zning birikishidan yasalgan so'zlar juft so'zlar deyiladi: *birin-ketin, qovun-tarvuz, omon-eson.*

**3. So'zlar qisqartirib qo'shish** yo'li bilan ham yasaladi. Bular **qisqartma so'z** deyiladi. Qisqartirib so'z yasash faqat otlarda uchraydi: *elektron hisoblash mashinasi – EHM, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi – MDH.*

**4 So'zlarning bir turkumdan boshqa turkumga ko'chishi yordamida so'z yasalishi:** sifat va fe'l otga, son ravishga o'tadi: *o'g'il bola* (o'g'il - sifat). *O'g'il keldi* (otga o'tgan). *U soat birga* (son) *keldi. Akasi bilan birga* (ravish)

*keldi. O'quv, yozuv, qurilish* (fe'l otga o'ngan). Boshqa turkumga ko'chgan so'zning ma'nosi va gapdagi vazifasi ham o'zgaradi.

**5. So'zlarni takrorlash yordamida so'z yasalishi.** Bunda so'zlar takrorlanib yangi so'zlar yasaladi: *paqpaq* (o'yin), *tur-tur* (turish), *bipbip* (avtobus), *pat-pat* (mototsikl), *xolla-xolla* (o'yin), *manman, yo'l-yo'l* (rang), *es-es* (zo'rg'a).

**1-topshiriq.** Quyidagi hikmatli iboralarni o'qing va so'zlarni yasalishiga ko'ra tahlil qiling.

Jismoniy poklik har kimning ishi, ma'naviy poklik vijdonning ishi.

Mantiqsiz gap haqni buzar, yolg'on gap shaytonni tuzar.

Go'zallik to'qqizdir, shundan sakkizi rostgo'ylik.

Loqayd kishi insofsizning eng kattasidir.

Johil bilan kengashgandan oqilga ergashgan yaxshi.

Insof — uzoq umr garovi.

Mablag' barakasi egasining harakatiga bog'liq.

**2-topshiriq.** Yo'qorida berilgan hikmatli iboralarning mazmunini o'z so'zlaringiz bilan so'zlab bering.

**3-topshiriq.** *Esdan chiqarmoq, esida turmoq, esda tutmoq, esi ketdi, esim qursin* frazeologik iboralarining mazmunini izohlang, har bir birlikka qatnashgan matn tuzing va so'zlab bering.

**1-mashq.** Gaplarni o'qing. So'z yasovchi qo'shimchalarni ajratib yozing, ularning qanday ma'no anglatishini tushuntirib bering.

1. Yigitlarga pokizalik yaxshidir. 2. Bilib so'zlasa, donolik bo'lur. Bilimsiz so'zi o'z boshini yer. („*Qutadg'u bilig*“dan) 3. Oddiylik axloqiy barkamollikning bosh mezonidir. 4. Mudom she'riyat ahliga aziz ustoz Navoiysiz, har ishda hamfikir, hamroh, ulug' mumtoz Navoiysiz. (*Sh. Roziqov*) 5. Cho'lpon va Fitrat kabi zabardast adiblar maktab darsliklariga kiritildi. 6, Bobom aytar: yerning ham tili bor, so'zlar emish, Yer so'zlasa, el-yurtning baxtini ko'zlar emish. (*T. K.*) 8. Ota — sarbon, ona — bog'bon. (*Maqol*)

**2-mashq.** Berilgan gaplarni sinchiklab o'qing. Noto'g'ri yoki noo'rin qo'llangan yasovchi qo'shimchalarni aniqlang, tuzating.

1. O'ktamni yoniga o'tqizib, bolalarcha uqtirdi: — Mana endi boshchingiz ham bor, joyingiz ham. (*S. Ahm.*) 2. Farmon e'lon qilinganiga, mana 3 yil ham bo'ldi. Lekin ijrochilikda hamon ikkilanishliklar uchrab turibdi. (*Gaz.*) 3. Yo'q, men dalachiman. Biroq menga ham ilm kerak. 4. Piyoza va kartoshka yil bo'yi eng ko'p talab qilinadigan va serhosil ekinlardir. (*Gaz.*)

**3-mashq.** Quyidagi qo'shimchalarni jadvalga joylashtiring va ularni so'zlarga qo'shib, gaplar tuzing.

-ta, -tadan, -tacha, -nchi, -ov, -ovlon, -ala, -ni, -ning, -la, -i, -y, -ar, -im, -ga, -ka, -qa, -dan, -nch, -inch

| So'z yasovchi<br>qo'shimchalar | Lug'aviy shakl<br>yasovchi qo'shimchalar | Sintaktik shakl<br>yasovchi qo'shimchalar |
|--------------------------------|------------------------------------------|-------------------------------------------|
|                                |                                          |                                           |

## O'NINCHI DARS

### MAVZU: O'ZBEK TILINING GRAMMATIK ME'YORLARI

**Bilib oling.** Odatda, kelishiklar (jo'nalish, o'rin-payt, qaratqich) ko'makchilar bilan sinonim bokiadi va har ikki tuzilma orasida nozik uslubiy farqlar bo'ladi. Masalan: *shaharga* — *shahar uchun*; *piyolada* — *piyola bilan (suv ichdi)*.

**1-mashq.** Nuqtalaro'rniga kelishik yo ko'makchilardan birini qo'yib ko'chiring. Atamalaming imlosiga rioya qiling.

1. Mayli, qirmizshoyi, mayli atlas..., mayli, ipaklar... galstuk taqing. Iflos etmang, d o kstlar, yoshlikni, qasd..., Tozalikni tishdek avaylab boqing. (A. Umariy) 2. O'rinboy dengiz... zavqlanib, birpas boqib turdi. 3. Odamlar, sog'lom aql... seving. Ona-Vatan... esa sodiq xizmat qiling.

**2-mashq.** Nuqtalar o'rniga kelishik qo'shimchasi yoki ko'makchi qo'ying.

Biz elektr toki... ham, metallar... ham, suyuqlik..., gaz... ham, isitish... ham bilamiz. Issiqlik miqdorini ingliz olimi Joule bilan rus olimi Lens topgan, — dedi Gavhar. So'ng tajriba stolidagi ichi... suv to'ldirilgan shisha idish... ternir plastinka tushirdi. Bir uchi ampermetr... ulangan sim... plastinka... tekkizdi-da, reostat tutqichi... surdi. Professor diqqat... kuzatib turardi. — Agar tok... ikki marta oshirsak, — dedi Gavhar, — suyuqlik... harorati to'rt marta ortadi. Mabodo ternir plastinka o'krni... qarshiligi uniki... ikki marta ko'proq o'tkazgich o'rnatdik, suv ham ikki daraja ko'proq isiydi.

Gavhar hayajon... bir yutib oldi.

— Plastinkalar... o'krganmay, tok... qancha o'tkazib tursak, suyuqlik ham shuncha ko'p isiyveradi, — dedi Gavhar va qokli... bir varaq qog'oz olib, okz tajriba formulasi... yozdi.

Professor javoblar... qanoat hosil etdi va ikkinchi savolga o'tish... iltimos qildi.

— Bir jism... chiqib tarqalgan tovush... boshqa jism... urilib tebranish hosil qilishi rezonans hodisasi deb ataladi.

Kamertonlar... rezonanslanishi bu... yaxshi misol bo'la oladi, — dedi Gavhar. (O'. H.)

**3-mashq.** Gaplarni o'qing. Kelishik qo'shimchalarini qo'llashdagi uslubiy xatolarni toping va tuzating.

1. Yo'q, men odamlarning yaxshi jihatlari oz emasligiga tushunaman. 2. Biz sizlarga gazeta sharhi bilan tanishtirdik. (Radio) 3. Tuyaning ustidan turib, pichan o'rib bo'lmaydi. (Gaz ) 4. Uning tilini ham izchillik bilan o'rganiladi. 5. Shuning uchun ham bu masalani yozuvchi alohida e'tibor bilan qaraydi. 6. So'zlarberilib, o'quvchilardan ot va sifatlarni farqlash vazifasi topshiriladi. 7. Insho yozishda asar mavzusi va g'oyasini to'g'ri yoritish, obrazlar va voqealarni to'g'ri baholash, fikrni

ravon uslubda izchil bayon etish, orfografik va punktuatsion jihatdan savodli ifodalash hal qiluvchi rolni o'ynaydi. (A. Zunnunova)

**Bilib oling.** Fe'lining zamon, shaxs, mayl, son ko'rsatuvchi qo'shimchalari ham ayni qo'shimchalar bilan sinonim bo'lishi mumkin.

Ma'lumki, fe'l so'z turkumlari ichida xilma-xil shakllarga boy bo'lib, shu tufayli uning uslubiy imkoniyatlari ham nihoyatda kengdir: birgina zamon va shaxs qo'shimchalarining ko'pligi ulardagi sinonimik qatorlardan istalgan ma'noni ifodalash uchun so'zlovchi bu fe'l shakllaridan birini tanlay olishiga imkon beradi.

1. I shaxs birlik o'rnida II shaxs birlik qo'shimchalaridan foydalaniladi: Sabr qil, Mirsalim (shaxs o'ziga qarata gapiryapti...) - Beparvo ham bo'lma, otingni qamchila. O'ldini ol! — Shunday mulohazalardan so'ng Qodir bilan uchrashish, uning qo'yniga tasodifan asta qo'l solish fikriga keldi. (Sh.) Shunday insonlarni ko'rgach, odamzod chindan ham po'lat kabi irodali bo'lishiga ishonasan, kishi.

2. II shaxs ko'plik o'rnida I shaxs ko'plik shakli qollanadi. Bundan shaxs va harakatlar orasida yaqinlik ifodalanadi: Qani, bolalar, yozamiz.

3. II shaxs birlik o'rnida III shaxs birlik: Anvar yugurib borib, Alimardonning yoqasidan oldi: Shunaqa narsa bilan hazil qiladimi odam? (O'. H.)

4. Tilimiz an'anasiga muvofiq, kamina so'zi hozir I shaxs o'rnida qo'llanishi mumkin: Bu orada ham kamina uzr so'raydi. Xojangiz, xojangiz, qulingiz kabi so'zlar ham I shaxs o'rnida qo'llanishi mumkin: Yo'q, Eshon aka! Ko'nglingiz qanaqa choy tilasa, xojangiz muhayyo qiladi. (5. A.)

5. II shaxs (birlik yo ko'plik) o'rnida III shaxs shakllari ishlatiladi: Eshik ochar xola Gulshanga salom berdi va „Xush keldilar!“ — Kelsinlar — dedi.

6. III shaxs birlik o'rnida III shaxs ko'plikdan foydalanish mumkin. Bunda ham yo hurmat, yo kesatish ma'nolari ifodalanadi: Biz G'irvonga Abdulla Qodiriy izidan keldik. U kishi bundan 40 yil ilgari Mallaboy aka haqida ocherk yozish uchun shu yerga kelgan ekanlar. (T. P.) Ha, o'ylab qoldilar?..

7. Jonli so'zlashuv nutqida II shaxs Siz olmoshi o'rnida o'zlari olmoshidan ham foydalaniladi: — Xo'p, salomatmisiz, Mirzo? — Shukr. O'zlaridan so'rasak? (A.Qod.)

8. Hozirgi zamon o'rnida hozirgi-kelasi zamon fe'lidan foydalanish mumkin: Oyimxonni chaqiradilar. (A.Qod.)

9. O'tgan zamon fe'li shakllari kelasi zamon uchun qo'llanib, bajarilmagan ishga bajarilajak bo'yog'ini beradi: Bu ishni bajardim, deylik, keyin nima bo'ladi?

10. Xayoliy faoliyati yoki tasavvur (masalan, tu sh ) oqibatlarini bayon etishda hamda zamonlar bir-birining o'rnini qoplashi mumkin. Masalan: Ishonch bilan yo'lga tushdim. Odamlar ketidan ketyapman. Odamiar keti uzilmaydi. (S. Ahm.)

**4-mashq.** Berilgan gaplarni o'qing. Shaxs va zamon qo'shimchalarining o'z ma'nosini yoki ko'chgan vazifalarda qo'llanganini izohlab bering.

1. Qishda dala aylanib, nima ham savob topardingiz? (T. P.) 2. Mana, qachonlardir men ham shular kabi mehnat qilib, peshona teri to'kilgan tiyinni xarjlab kun kechiraman. Mana shu kun mening eng baxtli kunim bo'ladi. Men ana shu kunni tezroq ko'rishga shoshilyapman. (S. Ahm.) 3. Havo ochilib ketgan,

salqin shamol esar, qir uchida pufakday oy osilib turardi. ( O' . H.) 4. O'sha bekatga tezroq yetishga shoshilyapman. Oyoq olishim ildamlashyapti. Orqamga qaradim . Men bu shaharda bir yil yashadim . Bu shahar boshimni silab, menga bag'ridan joy berdi. Non berdi. Bu — mening kattakon yo'ldagi birinchi qadamim bo'lishiga ishonaman. O'ylayapman. Bu o'ylar ertangi porloq kunimning aniq rejalari bo'lishiga ishonaman. (S. A.)

**1-topshiriq.** Savollarga javob bering.

1. Sintaksis nimani o'rgatadi?

2. Ikki so'zni bog'lash uchun qanday uslubiy vositalarga egamiz? Masalan, *Ozod o'!ka kishisi, tabiiyki, baxtga entikadi* — Bu yerda qanday sintaktik qonun-qoidalardan foydalanib, so'zlarni o'zaro aloqaga kiritdik?

3. Gap bo'laklari qay holda ajratiladi? Ajratilgan bo'laklarning qanday uslubiy xususiyatlari bo'ladi?

**Eslang.** Til bo'limlari ichida uslubiy vositalarga, turli xil bo'yoqlarni ifodalashga boy bo'lgan soha — sintaksisdir.

Sinonimik qatorlarda notiqlik, hissiyot va ta'siriy ma'nolargacha qo'shimcha ma'nolar ifodalanadi. Odatda, ayni bir fikrni ikki va undan ortiq sodda gap orqali, sodda va qo'shma gap orqali, bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli, darak va so'roq gap vositasida, oddiy gap va murakkab gap orqali, to'liq va to'liqsiz gap yordamida, tasdiq va inkor gap vositasida berish mumkin. Masalan:

1. *Yaxshi o'qiyman — Yaxshi o'qimasam bo'lmaydi. — Yaxshi o'qishga to'g'ri keladi.*

2. *Maorifsiz xalq dunyoda hech yasharmidi? — Maorifsiz hech bir xalq dunyoda yashay olmas.*

3. *Har kim ekanini o'radi. — Kim nima eksa, shuni o'radi.*

4. *Hamma to'plandi Yig'ilishga Sobirjon, Halimaxon, Saida, Sojida va boshqalar kelishdi.*

Bunday sinonimik tizimlar qo'shma gap qismlarida ham bo'lishi mumkin:

a) bog'lovchili qo'shma gap bilan bog'lovchisiz qo'shma gap sinonimiyasi;

b) bog'langan qo'shma gap bilan ergash gapli qo'shma gap sinonimiyasi;

d) ergash gaplarning o'z ichidagi sinonimiya;

e) ko'chirma gap bilan o'zlashtirma gap orasidagi sinonimiya.

Sinonimik o'zgarishlar gap ohangi, bog'lovchilar va boshqa vositalar orqali ro'y beradi.

## O'N BIRINCHI DARS

### MAVZU: MATNLARDA TINISH BELGILARINING QO'LLANISHI: NUQTA, SO'ROQ VA UNDOV BELGILARI

Har so'zning o'z joyi bor,

Har nuqtaning makoni.

(Sheroziy)

#### I. Nuqta quyidagi o'rinlarda qo'yiladi:

1. Tinch ohang bilan aytilgan darak, buyruq va undov gaplarning oxirida: Oydin kecha. Bo'taboy aka Baqaqurilloqdan chiqib, Qo 'shchinorga yuqoridan — katta yo'ldan ketdi. Havo sof va salqin. (A.Q.) Valijondan salom. (Sh. R.)Ba'zan, lekin, biroq, chunki, shuning uchun, go'yo bog'lovchilaridan oldin ham nuqta qo'yiladi. Bunda ko'rsatib o'tilgan bog'lovchilar bilan bog'langan gaplarda mazmunan ma'lum mustaqillik bo'ladi va shunga mos ohang bilan aytiladi: Qo'lini tig'iga uzatdi. Lekin chol bu qimmatli buyumni qo'ldan chiqarishni istamadi. (O.)

2. Birinchi qismida nuqta, ko'p nuqta, undov yoki so'roq belgisi bo'lgan ko'chirma gap o'rtasida kelgan muallif gapidan so'ng:

— „Yo'q har so'zdan hurka bermang unday, — dedi Sayramov.— Qalovini bilsangiz, qor yonar emish. “Pechat“ qo'ldan ketsa... — dedi u. — Mana ketmon. Ernazarning zvenosiga bor desa, nima qilaman?“ (Ibr. R.)

3. Qisqartirilgan ism va familiyalarning birinchi harfi yoki qismidan keyin:

A. Q. (Adbulla Qahhor), A. Qod. (Abdulla Qodiriy) kabi.

(Bu holda qavsga olingan manbadan oldingi gap oxiridagi tinish belgilari o'z o'rnida saqlanadi. Qavsdan keyin biror tinish belgisi qo'yilmaydi.)

4. Sanash yoki ayrim fikrning qismlarini va oy, kun, yillarni bir-biridan ajratish uchun qo'llangan raqam yoki harflardan keyin. Macalan:

Buyuraman:

1. Sinflarni jihozlash 10-avgustga qadar tugallansin.

2. Darslar ertalab soat 9. 00 da boshlansin.

3. 05. 07.03-yil kabi.

#### II. So'roq belgisi so'roq gaplardan so'ng qo'llanadi:

1. Sinovlarga qanday tayyorlanayotirsiz?

2. Ko'pincha so'roq gaplar birdan ortiq bo'lib keladi. Bu holatda so'roq belgisining qo'yilishi quyidagicha bo'ladi: 1) so'roq gaplarning har biriga ahamiyat berish lozim deb topilsa yoki har qaysi so'roq gap mazmunan o'ziga mustaqil bo'lsa, har biridan so'ng so'roq belgisi qo'yiladi:

Komila so'zida davom etdi: „Ha, Jamol akam qanday? Toshkentdami ?“ (O.)

2. Agar so'roq gaplar mazmunan umumiy bir fikmi ifodalasa, so'roq belgisi eng so'nggi so'roq gapdan keyin qo'yiladi:

— Tag'in mehmon boshlab keldingmi? Kim kelyapti: Savrimi, Rahbarmi yo akangning bolalarini yetaklab kelyapsanmi? (G'.G')

**Eslatma.** Ba'zi so'roq gap shaklidagi jumladan so'ng kelgan sodda gap so'roq gapdan anglashilgan mazmunga umumiy izoh beradi. Bu turdagi so'roq gaplar bilan so'nggi sodda gap orasida ba'zan vergul, ko'pincha tire qo'yiladi:

Bu minora nima uchun qurilgan, ma'lum emas; qadim zamonning yodgorligimi yoki yong'indan xabar beradigan joy vazifasini o'taydimi — bu ham ma'lum emas. Bu ishim unga yoqdimi, yoqmadimi, qayta tekshirib ko'radimi — menga hali noma'lum.

3. So'z yoki ibora noo'rin ishlatilsa yoki unda gumon ifodalansa: Ovqatga tajovuz(?) qilingandan so'ng, mehmonlar qo'llarini dasturxonga(?) artdilar.

### **III. Undov belgisi quyidagi o'rinlarda qo'yiladi:**

1. Kuchli his-hayajonni ifodalagan gaplardan so'ng.

a) „Professor Nazarov! Mana bu qanday odam ekanlar“ (Asq. M.)

b) Unsin uchun, bechora qiz uchun, bu qanday falokat, bu qanday mudhish motam! (O.)

2. Buyurish, tilak, orzu, hayajon ma'nolarini ifodalagan gaplardan so'ng:

a) fido bo'lsin sen uchun jon-tanim, onam! (H. P.) Jamila, tur o'mingdan, yalinma bu itlarga, bo'lmasa, la'nat deymen senday vafodor xotinga! (H. H.)

3. Kuchli his-hayajon ifodalangan undalmalardan, undov so'zlar hamda ha va yo'q so'zlaridan so'ng:

a) Seni unutilmas aslo, Ey O'rta Osiyo, O'rta Osiyo!!! (V. Inberg); Oh! Qanday go'zal o'lka!

b) Yo'q, yo'q! Bu og'ir ishni bo'ynimga ololmayman!

**1- mashq.** // belgisi o'rniga nuqta, so'roq, undov belgilaridan birini qo'yib ko'chiring.

1. „O'rtoqlarim orasida men juda qiynalganman“, — dedi u past ovoz bilan. — „Qiynalgansiz!“ — deb so'radi sekingina. 2. „Soat ikki yarim bo'ldi“, — dedi qiz „Ikki yarim!“ „Tun nega bu qadar uzun!“ (Asq. M.)

3. U quloq soldi. Aziz muallimlar, aziz ustozlar! Bayramingiz muborak bo'lsin, // (A. Oripov). 4. Onasidan qayg'u-li xabar kelgan bolmasin // O'tgan hafta Toshkentdan kelib, keksa onasining bemorligi haqida so'zlagan edi // (Asq. M.)

5. Hasan aka // Uring shu pichoqni jafokash ko'kragimga // (H. H.) 6. „O'glim, bolam, sendan judo bo'ldimmi!“ 7. „Yo'q // Banditlar // Bu qizil cho'g' bolgan temirni yuragimga bossang ham, men senga bosh egmayman!“ (K) 8. Hech bir vaqt tashlarmi ukani aka // Yomonlik qilarmi bahor chechakka // (//. P.) 9. „Onajon // Mehribonlarim // Nataoka // Jonim, azizam, jigarim.“ (K) 10. „Menda toqat qolmadi, toqat // Ota // Otajon // Menga oq yo'l tila // (K) U. „Eh // Qani endi o'spirinlik chog'larim qaytib kelsa // 12. „Ha-ha // — deb qo'ydi // — Birinchi marta deng!“

**2- mashq.** // belgisi o'rnida zarur tinish belgisini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

### **DO'ST KIRIB, DUSHMAN ISHINI QILMASIN**

Er arafa kuni yuz mashaqqatlar bilan pul topib, palov uchun xarajat qilib keldi // Er-xotin osh qilishib, qo'shnilarga ulashishdi, ulardan ham anchagina osh

chiqdi// Er-xotin yeb to‘ydilar// Biroz ortib ham qoldi// Afandi yarim kechada turib, xotinini uyg‘ota boshladi// — Xotin, xotin, tur, chiroqni yoq// Boshimga shunday ajoyib bir fikr keldiki, ertalabgacha qolsa, unutib qo‘yaman// Xotin turib chiroq yoqdi va so‘radi// — Nima gap ekan// — Dasturxon solib, qolgan oshni olib kel, yeb bolgach aytaman// Xotin uning aytganini qildi, oshni yeb bo‘lishgach// — Palov yaxshi ovqat, uning tokchada turishi yaxshi emas// „Do‘st kirib, dushman ishini qilib ketadi“, degan maqol esimga tushib, sira uyqum kelmadi// Endi xotirjam uxlayversak bo‘ladi, — dedi//

## O‘N IKKINCHI DARS

### MAVZU: IKKI NUQTA, KO‘P NUQTA, VERGUL VA NUQTALI VERGULNING QO‘LLANISHI

#### I. Ikki nuqta quyidagi o‘rinlarda qo‘yiladi:

1. Uyushiq bo‘laklardan oldin kelganda, umumlashtiruvchi so‘zdan so‘ng: Xolmurodning do‘stlari: Ergash, Jo‘ra va Omontoy ham birin-ketin ta’tildan qaytishdi. (P. T.)

**Eslatma.** Ba‘zan umumlashtiruvchi so‘z yashirinishi mumkin, ammo ohang va mazmunga ko‘ra uyushiq bo‘laklardan oldin ikki nuqta qo‘yila beradi. Bu hol ish qog‘ozlarida va ilmiy asarlarda ko‘proq uchraydi. Masalan:

Majlisda qatnashdilar: Sobir Erkinov, Shokir Otaqulov, Abdulla Saidov.

2. Quyidagi ma‘nolarni ifodalagan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda:

1. Bir gap ikkinchi bir gapdan anglashilgan ish-harakatning sababini ko‘rsatsa: »Men u yil dehqonchilikdan hech narsa ololmadim: kuzgi bug‘doyning boshhoqlari shira olayotgan vaqtda havoda ola bulut paydo bo‘lib, boshhoqlar kuyib, qovjirab ketdi. (S. A.)

2. Bir gap ikkinchi bir gapdan anglashilgan ish-harakatning natijasini ko‘rsatsa: Xoja G‘yosiddin Hirotdagi ba‘zi mashhur zotlarni go‘zal taqlid qildi: o‘tirganlar o‘rinlaridan qo‘zg‘almay qoldilar. (O.)

3. Agar biror gap boshqa bir gapning mazmunini to‘ldirsa yoki izohlasa: Qosimmurod aytardi: agar qo‘rqmasangt eng odamxo‘r daryo hech nima qilolmaydi — suvning o‘zi qirg‘oqqa chiqarib qoyadi. (O.)

3. Ko‘chirma gapdan oldin kelgan muallif gapidan so‘ng:

Otam birdan samovarchiga buyruq beradi: — Musavoyga joy solib ber, ozodaroq yosti qoy. (O.)

**1-topshiriq.** 1. Keltirilgan misollardagi gapning turini va gap oxirida tinish beigilari nima uchun qo‘yilganini avtib bering.

2. O‘zingiz ham darak gaplarda undov belgisi va qo‘sh tinish beigilari qo‘yilgan gaplarga 2 tadan misol keltiring.

1. Uni ham biz tor zindondan ozod qilamiz! (Y.)

2. O‘ho‘, kapsanchilar qishlog‘i shunaqa chiroylimi. (A. Q.)

3. Behudaga o‘g‘lim, egma bosh. (H. O.) 4. Bu qanday bedodlik, bu qanday zulm! (K) 5. Qanday quvonch! (S. Jo‘ra.)

6. Onajonlarim, hamma o'zining eski devorini quchoqlab o'tira bersa, yurt qachon obod bo'ladi! (A. Q.) 7. Zahmatkash, do'stparvar, jangovar, ahdiga vafoli, quvnoq o'zbekim. (G'.G'.)

8. Seni, Zebo, zebi qiz deymi,  
Oydin kecha yo kunduz deymi,  
Sohibjamol yo dilbar deymi,  
Yo san'atkor, yo chevar deymi?! (A. Umariy)

9. „Yoshlik“ so'zi luglatlar qatida go'zal va mumtozdir. „Yoshlik“ so'zi jo'shqin jaranglovchi tarona, qo'ng'iroq singan sado beradi... Yoshlik musaffo, bebaho gavhardir. Bu davrda dunyo bilimlarini, kasb-u hunami egalla! Umrning eng shijoatli, eng qudratli davri yoshlik erur.

Yoshlikda nimaga astoydil urinsang, muddao ro'yobga chiqadi. Yoshlik ikkinchi qaytib kelmaydi. Demak, bu yoshlikning oltin fasllarini behuda o'tkazma. Undan samarali foydalan! (Sh. Orifiy)

## II. Ko'p nuqta quyidagi o'rinlarda qo'yiladi:

1. Fikrning tugallanmaganligi, so'zlovchining yan nimanidir aytmoqchi ekanligini ko'rsatish uchun (fikrning davom ettirilmaligi, odatda, so'zlovchining hayajonlanishi, o'z fikrini to'liq ifodalashga botina olmasligi yoki gapning biror sabab bilan bo'linishi tufayli ro'y beradi):

„Bilmayman, degan edingiz. Yana shuni aytdingizki...“ Shu payt adyutant kirib, polkovnikka bir qog'oz uzatdi (A.Q.)

2. Ba'zan ko'p narsa so'zlovchining o'ylashi, mulohaza qilishini ko'rsatadi: Qo'ziyev (miyig'ida kulib). Binokorlik ham hunarmi... taxta nobud bo'lmasin dedimda... (A. Q.) Uydagi ishlarning hammasini o'zi qilsa, o'zi tartibga solib, o'zi bezasa... (Asq. M.)

3. Biror so'z yoki gapning tushirilganini ko'rsatish uchun:

...Yudaxin familiyali bir rus kishi... rus bo'lishiga qaramay, hamma usta — mardikorlar bilan... o'zbek tilida so'rashib chiqdi.

Asli: Yodimda, shiypon tagiga g'isht terilayotganda, Yudaxin familiyali bir rus kishi dadamni so'rab keldi va rus bo'lishiga qaramay, hamma usta — mardikorlar bilan „horma, bor bol“ qilib, o'zbek tilida so'rashib chiqdi. (H. Qodiriy. „Otam haqida“)

**Eslang.** Murakkab mazmun ifodalangan gaplarda undov belgisi bilan so'roq belgisi, undov belgisi bilan ko'p nuqta va so'roq belgisi bilan ko'p nuqta ko'pincha birikkan holda keladi.

1. Undov va so'roq belgisi birikkan holda kelishi (!?) aslida so'roq mazmunidagi gap bo'lib, so'roq mazmuniga qaraganda his-hayajon kuchli gaplardan so'ng qo'yiladi:

Qani buyerda insof, buyerda adolat degan narsa!? (H. H.)

2. So'roq va undov belgisi birikkan holda (!?) kuchli his-hayajon, taajjub bilan aytilgan so'roq gaplardan so'ng qo'yiladi: Jamiki kambag'al xalq qo'lni-qo'lga berib, yaktan bo'lib tursa, kimning haddi bor mardikor olishga?! (O.)

Men bo'ri bo'ldimmi?! (X)

3. Undov belgisi va ko'p nuqta birikkan holda (!...) mazmunan tugallanmagan hamda kuchli his-hayajon ifodalangan o'rinlarda qo'llanadi: 1. Uyatni bilasizmi!... (A.Q.)

2. „Yo'q!... Hech qayerga bormayman! “(X)

4. So'roq belgisi va ko'p nuqta birikkan holda (?...) mazmunan tugallanmagan so'roq gaplardan so'ng ishlatiladi: 1. Ayb kimda?... Ayb nimada? Yoki yer yomonmi?... (U.) 2. „Bu odam ana shu noma'lum odamga Qambar bilan Anton haqida gapirdi. — „A?... Qambar bilan Anton haqida?...u (K.)

**1- mashq.** Tinish belgilarining qo'yilish sababini va gaplarning ma'nosini izohlab bering.

1. Qo'ziyev. Juda yaxshi tarvuz ekan-da, urug'ini qayerdan topgansiz?

Mavlonov (Hafizaga). Issiq ovqating ham bormi?

Hafiza (tovoqni ochib). Marhamat, mehmonlar...

Mavlonov. O'h-o'h-o'h! Chuchvara-ku... (Bittasini og'ziga soladi.) Hay-hay, og'izda erib ketadi-ya!... (Chuchvaraga tikilib, lekin yemay o'tirgan Rahimjonni ko'rib.) Oling, rais!

R a h i m j o n (uf tortib). Xamir ovqat... semirtiradi-da, qurg'ur!... (Ovqatga qo'l uzatib.) Boring, nima bo'lsa, bo'ldi...

Qo'ziyev (ashula boshlaydi).

O'z yaratgan zamonamiz, umrimiz boqiy,

To'planibdir oshnolarning yaqin-yirog'i.

(A. Q.)

2. Marziya! Marziya! Qanday pok, sadoqatli do'st eding, Marziya!... (X.)

3. „Yo'q! Toqatim qolmadi. Hoy zolim, bu yosh qizga rahming kelsin! Tegma unga“. (X) 4. „Demak, baxtdan yuksak narsa yo'q ekan -da?“ — dedi u astagina. 5. „Hali siz dehqonchilikdan menga saboq ham beradigan bo'Mdingizmi?!“ (K) 6. „Qara, bizga, ey ulug'k jahon, bunday quwat, go'zallik qayda!“ {H. R.) 7. Oh, qanday chiroyli bu so'z! (H. P.)

**2- mashq.** //belgisi o'miga ikki nuqta, vergul, so'roq, undov belgilaridan mosini qo'yib ko'chiring. Nima sababdan ko'p nuqtaning qo'llanganligini izohlab bering.

Xonada tiq etgan tovush eshitilmas// hatto telefonlar ham jiringlamas// ammo ikki do'stning suhbatini tugamasdi////Obbo// Rasuljon-ey// — dedi Komiljon// oraga tushgan bir nafaslik sukunatni buzib// unutmabsan-a// og'ayni////Senday dokstimni qanaqasiga unutay// Hayotda sodir bo'lgan ko'p voqealarni unutish mumkin// ammo ... eng aziz qadrdoningni unutib bo'larkanmi////Qoyil// o'zgarmabsan// o'sha-o'shasan// Yengil kulishdi////Kim biladi// dedi Komiljon// aytmoqchi// uylandingmi yo haligacha so'qqaboshmisan////Bir qiz// ikki o'g'lim bor// O'zing-chi// Komiljon shoshib soatiga qaradi// //O'hho\ allamahol bo'lib qopti-ku// Yur// O'rnidan qo'zg'aldi// uyga borsang, hammasini o'z ko'zing bilan ko'rasan//(J. Abdullaxonov)

### III. Vergul quyidagi o'rinlarda qollanadi:

1. Uyushiq bo'laklar orasida. 1) bog'lovchisiz birikkan uyushiq bo'laklar orasida: Andijon, Namangan, Qo'qon, Marg'ilon — O'zbekning chamani, bog'-u bo'stoni. (G'.G'.)

2) takrorlanuvchi boglovchilar bilan birikkan uyushiq bo'laklar orasida: Saodat goh men bilan, goh atlas bilan mashg'ul boyagi uyalib turishini bir yoqqa yig'ishtirib qo'ygan edi. (A. Q.)

3) zidlovchi boglovchilar yordami bilan birikkan uyushiq bo'laklar orasida: Zamiraning baland, ammo mayin ovozi bo'radi. (P.Q.)

2. Undalmalarni ajratish uchun: Do'stlarim, shu asl bahor haqida butun qalbimizdan yangrasin qo'shiq. (H.O.) Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot. (E. J.)

3. Kirish so'zlarni va tuzilish tomondan murakkab bo'laklarni kirish gaplarni ajratish uchun: „Modomiki, haqingizda shu qabilda so'z yurar ekan, albatta, behuda bo'lmasa kerak deb oylayman'1. (O.) „Ko'nglingizga kelmasin-ku, izvoshga eshak qo'shib bo'lmaydi“. (A. Q.)

4. ha va yo'q so'zlarini gap bolaklaridan ajratish uchun:

— Xafa bo'ldingizmi, xato gapirdimmi?

— Yo'q, yo'q. Siz haqli, — dedi Olimjon. (Sh. R.)

5. Undov so'zlarni ajratish uchun:

„Ey, yosh bolamisiz! Nega yig'laysiz?“ (A. Q.)

**Eslatma.** Undov so'zlarni yuklama vazifasidagi -yu, -ye, -yo kabilardan farqlash kerak. Ular o'zlari qo'shib kelayotgan so'z bilan umumiy ohangga ega bo'ladi va shu sababdan ular vergul bilan ajratilmaydi, balki okzidan oldingi so'zga chiziqcha orqali yoziladi: “Eh, sendaqa xayrixohni-yey! “ „Voy la'natiye?“ „Biram jonsarak eding-ey!“

6. Gapning ajratilgan bo'laklarini ajratib ko'rsatish uchun:

„Biz, 22-guruhda o'quvchi qizlar, Xayriniso ham biz bilan yonma-yon turib o'qishini istaymiz (Zulfiya) Nihoyatda orqasini yostiqtan uzib, muhim savdo ishi bilan shug'ullangan kabi, jiddiy ravishda gapirib ketdi. (O.)

7. Bog'lovchisiz boglangan qo'shma gaplarda: Siz otam o'rnida otalik qildingiz, sizdan hech yomonlik ko'rmadim. (M. Ibr.)

8. va, ham, hamda, yoki kabi boglovchilardan boshqa boglovchilar bilan boglangan qo'shma gaplarda: Yolchi shu choq, qancha aqchasi bo'lsa ham berishga tayyor edi, lekin yonida bir tiyin ham yo'q edi. (O.)

9. Ergash gaplarni ajratish uchun: O'g'rilar devordan tushmoqchi bo'lib, qorinhrini paxsaga qoyib, boshlarini eggartlarida Kenja botir ularning kallalarini uza berdi. (Ertakdan)

10. Muallif gapini ko'chirmagapdan ajratish uchun:

— Ostimizda olov daryo bo'lib o'tadi, — dedi cho'pon ota, — bug' olov bo'lib yonadi. (Ibr. R.)

**3-mashq.** Kerakli o'rinlarga vergul qo'yib, ko'chiring. Nima sababdan vergul qo'yganingizni izohlab bering.

1. Go'zal shahar qishloqlar zumrad o'tloqlar

Lola yopingan tog'lar oltin tuproqlar

Sharsharalar irmoqlar kumush buloqlar

Go'zal shinam bog'lar sobiq o'rtoqlar —

Bulaming hammasi sen Vatanim — onam

Fido bo'lsin sen uchun jon tanim onam! (H. P.)

2. Manzura ota-o'g'il o'rtasida uzoqlaiga tikilib sal kulimsirab chuqur xayol surib borardi. (Asq. M.) 3. Mehmonxonada qabul qilib bir katta xitoy laganda uyulgan qirg'ovul kaklik go'shti qovurmasi bilan ziyofat qildi. (O.)

4. Dastlabki vaqtlarda yordam bersangiz ishlar yurishib ketgandan keyin uncha og'irligim tushmas deb o'y!ayman. (A. Q.) 5. Tulkining yo'lbarsning terisini oldi; Dehqonning barisini oldi. (M. G'.) 6. „Ha sen to'g'ri aytding“ muhabbat — buyuk so'z buyuk hissiyot!... 7. „Hoy, hoy Shirmonxon nima deysiz? Mayli sinashamiz!“ (Y.) 8. „Ammo men o'rmondan ham daryodan ham yerdan ham osmondan ham bulutlardan ham har qanday maysadan ham baxt kutaman“. 9. Uzoqda to'g'rida yo'lni zavod darvozasigacha yoritib turadigan proyektor bor. (Asq. M.) 10. Biri yigirma uch yoshlarda baland bo'yli qorachadan kelgan qush burun manglayi keng qalin lablarida ma'noli tabassum bo'lib kichik moviy ko'zlarini sal qisib fikrga cho'mgan holda uzoqlarga tikilib chalqancha yotardi.

11. „Bu qanday hol! Muncha titraysan ey yurak!“ (Y.) 12. Zero xalq shunday bir daryoyi azimki u toshsa uning mavjidan na shohning qasri na darveshning kulbasi qolur. (O.)

**4-mashq.** O'qing. Nima sababdan vergul qo'yilishi yoki qo'yilmasligini izohlab bering.

1. Uzoqda ozgina chang ko'tarilsa ham qip-qizil quyosh nurida alvon doka singari jimirlab ko'rinadi. (Asq. M.) 2. Manzura xayolini bir joyga to'plab olish maqsadida bo'lsa kerak ishi bo'lmasa ham o'z kabinetiga kirib ketdi. (Asq. M.)

**1-topshiriq.** Tagiga chizilgan vergulning tushirilishi gapning mazmuniga qanday ta'sir elishini izohlab bering.

1. Abayning ostida oq, yo'llik saman yo'rg'a. (M. A.) 2. Baraka topgur, Salimjonni har qancha maqtasa arziydi. 3. Yaxshi, gapingizda jon bor. 4. To'g'ri, so'z kasalni ham oyoqqa turg'izadi. 5. Qurilish uchastkasida temir, beton qalashib yotibdi.

#### **IV. Nuqtali vergul quyidagi o'rinlarda qo'llanadi:**

1. O'z ichida verguli bo'lgan yoyiq uyushiq bo'laklar orasida:

Mehnat, ijod, odam sharafi;

Dil yorug'i, hayot quvonchi —

Hammasining asli, manbayi —

Sen, Vatanim — tinchlik tayanchi. (H. Nazir)

Qo'nonboy yonida bir gala xushomadgoyiari: Irg'izboylardan Moybosar, Jaqib, fziqútifardek qarindoshlari; bu kunlarda Qo'nonboy tarafdori bo'lib yurgan Juontayoq, Qorabotir, To'pay, To'rg'ay ellarining oqsoqol — qorasoqollari bor. (M. A.)

2. O'z ichida verguli bo'lgan, mazmunan ma'lum darajada mustaqillikka ega sodda gaplar orasida hamda har xil turdagi gaplarni o'z ichiga oigan qo'shma gaplar orasida:

Zunnunxoja, Siddiqjonning tarqfmi oigan bo'lib, kampirga qarab kovush otdi; Siddiqjonga nimadir demoqchi bo'lib og'iz ochgan qizini bir tarsaki urdi;

so'ngra Siddiqjondan o'pkaiab, mayin tovush bilan gap boshladi. (A.Q.) Ishchi qozoq bir-ikki qum xomasining bu yog'idan u yog'iga, u yog'idan bu yog'iga o'tdi, ammo izdan nishin yo'q edi; eski izlar nari lursin, hatto qozoq o'z izini ham topolmas edi; har bosilgan qadam o'mi, qumga bosilgandek, oyoq koltarilgan hamon, ko'milar edi. (S. A.)

#### **Nuqtali verguining qo'lanishiga oid mashqlar.**

1. Ko'cha iflos, lekin suv qalin sepilgan; har yoqqa tarvaqaylab o'sgan beso'naqay qari tollarning koklankasi quyuq. ( O.)

2. Go'yoki shokng'ib ketar Peshonadagi terga; Xuddi kun shu'lasiday, Bug'doy yoyilar yerga. (T. P.)

3. Turmush, turmushi Nur olib sendan, Shod qaraydi

Ko'zlarga ko'zlar,

Seni dedik, bir piyola suvday

Dengizni ham kokroldik bizlar. (H. P.)

## **O'N UCHINCHI DARS**

### **MAVZU: TIRE, QAVS VA QO'SHTIRNOQNING QO'LLANISHI**

#### **Tire quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:**

1. Ot, son, olmosh va harakat nomi bilan ifodalangan ega bilan bog'lamasiz kesim orasida:

Aziz vatandoshim, bu — sening imzong. (G'.G'.) Yurgan— daryo, o'tirgan — bo'yra. Hamma sizning tarafingizda, chunki mana buni bajaruvchi — siz. (Asq. M.) Ikki karra ikki — to'rt.

2. Uyushiq bo'laklardan so'ng kelgan umumlashtiruvchi so'zdan oldin: Suv, yer, elektr — bular hayot bahoriga yangi go'zallik va yangi nash'a bag'ishlovchi kuchlar edi. (O.)

3. Ajratilgan bo'lak bilan izohlanmish bo'lak orasida:

O'zbekistondan sizga gullar olib keldim — xushbo'y, musaffo. (R. Otayev)

4. Kirish gaplar bilan gap bo'laklari o'nasida:

Oltinchi brigadaning g'o 'zasi — mana men hozirgina aylanib keldim — sira avj olmayapti.(O.)

5. Muallif gapi bilan ko'chirma gap orasida: „Nega buncha kech qolding, Manzura?“ — dedi Aziz mehribon tovush bilan. (Asq. M.)

6. Dialog taridagi ko'chirma gaplarda:

— Siz biror narsa buyurganmidingiz?

— Buyurganim qachonlar edi. Kutaverib sabrim tugadi.

— Nima buyurgan edingiz?

— Buni qarangki, sizni eslolmayapman.

(„Shifokor va dardmandlar xandasi”)

7. Kutilmagan voqea-hodisalarni ifodalagan gaplardan oldin:

„Men darrov idoraga yugurdim — yo‘qsiz“. (O.) „Men unga tikilib o‘tiranman-da, rohat qilaman — faqat shu.

8. Zid ma‘noli gaplar orasida: Jismimiz yo‘qolur — o‘chmas nomimiz. (G‘.G‘)

**1- mashq.** // belgisi o‘miga kerakli tinish belgisini, nuqtalar o‘rniga kerakli harflarni qo‘yib ko‘chiring. Nima sababdan tire yoki ikki nuqta qo‘yil ishini izohlang.

1. Manzura deraza pardasini ochib qaradi// yangi kelib to‘xtagan „P...bedaudan Danilov// d...r...ktor va bosh muh...ndis tushdi. (Asq. M.) 2. Hali ham eslayman// bittasi yuk t...shuvchi bukri chol Proxorov bobo edi. (Asq. M.) 3. Jim-jit, ko‘m-ko‘k tepalar, tog‘lar, serdaraxt bog‘lar //hammasi jim-jit. 4, Biz bir bog‘ning devo...larini pana qilib oktdik// ko‘rmay qoldilar. (O.)

6. Men yigirma yildan ortiq Alisherga qarshi harakat qildim// Ne ishlarqilganim sizga ma‘lum// Alisher// yuragi toza odam. (O.) 6. it huradi// karvon o‘tadi. (Y.)

1. Omadimiz ke...gan ekanmi, yo qur... tit...shni sog‘inib qolgan ekanmizmi// biram bo‘li... berdi, qani endi terib t...mom qilsak. (A. Q.) 8. Muallima// yosh xotin// uni jondan sevadi. (G‘.G.) 9. Yuqorida kokrgan bogkimizdan uz...qr...qda/ aholi yashaydigan joylarda// bir qishloq bor edi. (S. A.) 10. Vasiliiy Ivanovich yana ancha savollar bermoqchi edi// profe...or to‘xtatdi. (Asq. M.)

**2- mashq.** Tegishli tinish belgisini (vergul, tire, ikki nuqta) qo‘yib ko‘chiring.

1. Bog‘imizda turli mevalar

Olma o‘rik shaftoli gilos

Anor noklar o‘sar kun sayin

Bog‘bon bunga qo‘ymoqda ixlos (A. U.)

2. Yoshmiz xunuk bedavo emasmiz tentak emasmiz albatta baxtni qolga kiritamiz. (T.) 3. Ahmadjon yotgan yerida birpas ashulaga qo‘shildi-yu keyin bo‘lmadi adirga chiqib ketdi. (A. Q.) 4. Birlashgan yovni qaytarar. (Maqol) 5. Ko‘rdingmi burgutning bolasiga o‘xshaydigan yovqur zabardast yigit. (K) 6. Gulning go‘zalligi ham pok qalbli insonning go‘zalligi tufaylidir. (H.F.) 7. Lekin yoshligida zo‘r qilichboz o‘tgan Qo‘nonboy bo‘sh kelmadi mayyorni qimirlagani qo‘ymadi. (A. A.) 8. Yolchi dalaga katta yerga kelgandan boshlab bundagi qarollar mardikorlar bilan apoq-chapoq bolib ketishdi. (O.) 9. Ulug‘ sabzavorning erka o‘g‘lini yo‘q qiluvchi kim? 10. Solijon mashinani tezlatdi otaning smenasi tugaydigan vaqt bo‘libdi tezroq uyga borib mashinani zavodga yuborishi kerak. (Asq. M.) 11. Uy sohibi shoir o‘z odaticha bir nafas qo‘nmadi. (O.)

**Qavs quyidagi o‘rinlarda ishlatiladi:**

1. Ifodalanayotgan fikrga yoki uning biror bo‘lagiga qo‘shimcha izoh beruvchi so‘z yoki iboralar qavsga olinadi: Viktor (Lizaning ukasi) ishchi yoshlar maktabini, kichkina Liza bilan Karomat (bunisi Salomat xolaning qizi) ikkinchi smenada o‘qishadi. (Asq. M.)

**Eslatma.** Qavsdan oldingi tinish belgilari (vergul, tire, ikki nuqta, nuqtali vergul) qavsdan keyinga ko‘chiriladi: Erkaklarning biri — markaziy gazetaning muxbiri, ikkinchisi — injener (Mavlonbek uni Fyodor Makarovich der edi. U qiz esa Moskvada institutni bitirib, hozir shu injenerning qo'lida tajriba ko‘rib yurgan ekan). (A.Q.)

2. Kirish gaplar yoki remarkalar qavsga olinadi:

Qirg‘iz O‘roz belbog‘iga mahkam chandib tugilgan bittagina so‘lkavoyini (kim biladi, buni qachonlardan beri saqlab yurgan) chiqarib, sekingina tashladi. (O.) Maryamxonim (yigiab): Majburiyat keltirdi meni! (H. H.)

3. Misol yoki ko‘chirmaning manbayini ko‘rsatadi:

Oh, Hirot, Hirot!(O.) „Turkona uslub“ (Navoiy) turkiy tillarga xos uslubdir. Otam „Mirzo“ va „G‘ulom“ taxalluslari bilan talay she‘rlar yozgan. (G‘.G‘)

4. Izoh ma‘nosidagi so‘z yoki iboraga oid tinish belgilar qavsning ichiga olinadi:

Bu yerlarda u, kuychi, xayolchan yurdi,  
(Bolalikdan chanqoqdi bilimga, kuyga!)  
Fikrida ne-ne go‘zal rejalar qurdi. (O.)

**Qo‘shimoq quyidagi o‘rinlarda qo‘yiladi:**

1. Ko‘chirma gaplarni ajratib ko‘rsatish uchun:

„O‘rtoq Ahmedov, — dedi O‘rmonjon, — ertaga bayram oldi majlisimiz bo‘ladi. (A. Q.)

2. Ayrim so‘z va so‘z birikmalari ham qo‘shimoqqa olinishi mumkin. Qo‘shimoqqa olingan bu xil so‘zlar ko‘chma ma‘noda yoki kinoya ma‘nosida qo‘llanishi, shartli nom yoki taxallus bo‘lishi mumkin: Metallurglar to‘pni yana „dushman“ darvozasiga qarab haydab ketdilar. (Asq. M.) Odamlar noiloj „xosiyatli“ giyoh tomiridan voz kehdilar. (P. T.) Telefonistka (suyunib): „To‘rtinchi!“ „To‘rtinchi!“ „Yigirma“ga quloq sol!... (X) „Qahramon“ jamoasi paxta rejasini bajardi.

**Eslatma.** Agar qo‘shimoqqa olinishi zarur bo‘lgan so‘z turlovchi qo‘shimchaga ega bo‘lsa, bu qo‘shimchalar qo‘shimoqdan keyin qo‘yiladi: ... erining „kirdikori“dan xabardor bo‘lganday o‘smoqchiladi Shakarxon. (H. N.)

**3-mashq.** Tinish belgilarini qo‘yib ko‘chiring. Nima sababdan qo‘shimoq yoki qavsning qo‘llanishini izohlab bering.

1. Men nima qila olaman doktoring o‘zi yaxshi biladi dedi Solijon Manzuraning oldida janjal bilan ovora bo‘lib qolganiga o‘ng‘aysizlanib. (Asq. M.)  
2. G‘abitxon ham kitobxon edi. Abay uning kitoblari orasidan o‘zini qiziqtiradigan ko‘p asi narsalami topdi. Bular Firdavsiy, Nizomiy, Fuzuliy, Navoiy, Bobur asaridan Jamshid Saidbattol yozgan kitoblar edi. (M. A.)  
3. Shodmon aka kulib Umid xo‘jaligining a‘zolarini ko‘rsatib mana shu yigitlar menga hech tinchlik berishmay qo‘ydi dedi. (H. Sh.)  
4. Uning mehribonchiligidan ta’sirlanib titroq tovush bilan qulluq rais dedi. (H. G‘)

### **Tinish belgilarining qo'llanishiga oid testlar.**

1. Umumlashtiruvchi soʻz uyushiq bolaklardan keyin kelganda umumlashtiruvchi soʻzdan oldin qanday belgi qo'yiladi?
  - A. Vergul.
  - B. Nuqtali vergul.
  - C. Ikki nuqta.
  - D. Tire.
  - E. Hech qanday belgi qo'yilmaydi.
2. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarning mazmuni bir-biriga zid sodda gaplar orasiga qanday belgi qo'yiladi?
  - A. Vergul.
  - B. Tire.
  - C. Nuqtali vergul.
  - D. Ikki nuqta.
  - E. Nuqta.
3. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarning bir sodda gapi ikkinchisining mazmunini izohlagan gaplar orasida qanday belgi qo'yiladi?

Quyidagi test savollariga to'g'ri javobni belgilang

  - A. Tire.
  - B. Ikki nuqta.
  - C. Nuqtali vergul.
  - D. Vergul.
  - E. Nuqta.
4. Yozuvda his-hayajon ifodalagan qaysi gaplardan so'ng ikki tinish belgisi qator qo'yiladi?
  - A. Darakgaplar.
  - B. Sokroq gaplar.
  - C. Buyruq gaplar.
  - D. Undov gaplar.
  - E. A, B, C, D.
5. Qaysi qatorda ega bilan kesim orasida tire noto'g'ri qo'yilgan?
  - A. Mening eng yaqin do'stim — sensan.
  - B. Bilim olish — yuksalish.
  - C. Besh karra besh — yigirma besh.
  - D. Hunarlining yoli — gul.
  - E. Chiranma — g'oz, hunaring — oz.
6. Jismi yo'qolur// o'chmas nomi jumlasida qaysi belgi qo'yiladi?
  - A. Vergul.
  - B. Undov belgisi.
  - C. So'roq belgisi.
  - D. Tire.
  - E. Nuqtali vergul.
7. Gapda tinish belgilari ishlatilmasa, gap qaysi tomondan o'zgaradi?
  - A. Mazmunan.

- B. Shaklan.
- C. Sintaktik.
- D. Mazmunan va sintaktik.
- E. A va B.

8. Undoshni kuchaytirish uchun undalmadan oldin kelgan undov soʻzdan soʻng qanday tinish belgi qoʻyiladi?

- A. Undov belgisi.
  - B. Vergul.
  - C. Chiziqcha.
  - D. Nuqtali vergul.
  - E. Hech qanday belgi qoʻyilmaydi.
9. Qaysi gap tarkibida tire (—) ishlatish kerak?
- A. Men uchuvchiman.
  - B. Doʻstlik okkamning qudrati, shoni.
  - C. Bilim baxt belgisidir.
  - D. Suvning tezlanishi boshlangunchadir.
  - E. Siz endi oʻqituvchi boʻling.

## OʻN TOʻRTINCHI DARS

### MAVZU. SOʻZLARDAGI BIR MAʼNOLILIK VA KOʻP MAʼNOLILIK

#### 1. Soʻz - leksikologiyaning oʻrganish obyekti sifatida.

Soʻz tilning eng muhim nominativ birligidir, chunki u borliqdagi narsa-buyumlarni, predmet sifatida tasavvur qilinadigan mavhum tushunchalarni, harakat-holatni, rang-tus, maza-taʼm, hajm-miqdor, xislat kabi belgi- xususiyatlarni nomlaydi: daraxt (predmet nomi), ong (mavhum tushuncha nomi), ishlamoq (harakat nomi), oq (rang-tus nomi), shirin (maza-taʼm nomi), katta (hajm nomi), besh (miqdor nomi) kabi. Tilning lugʻat boyligidagi bunday soʻzlar leksik birliklar sanaladi.

**Bilib oling.** Tildagi soʻzlar bir va birdan ortiq maʼnoga ega boʻlishi mumkin. Bir maʼnolilik hodisasi monosemiya, koʻp maʼnolilik hodisasi esa polisemiya deb yuritiladi. Masalan, *marmar*, *gʻoya*, *xulosa*, *taassurot* kabi soʻzlar va ilm-fan sohalariga doir atamalar bir maʼnoli soʻzlardir. Oʻz va koʻchma maʼnolari tufayli ikki yoki undan ortiq maʼnoga ega boʻlgan soʻzlar esa **koʻp maʼnoli (polisemantik)** soʻzlar deyiladi. Masalan: *etak* - *choponning etagi*, *togʻning etagi*.

Tilshunoslikda soʻzning koʻp maʼnolilik xususiyatini oʻrganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki koʻp maʼnoli soʻzlar turli usullar vositasida maʼno koʻchishi orqali oʻz maʼnosidan boshqa maʼnolar ifodalagan holda tilning ifoda imkoniyatlarini boyishida muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, koʻp maʼnoli soʻzlar oʻz maʼnosidan tashqari koʻchma maʼnolarga ham ega boʻladi. Soʻzning nutqdan tashqarida, yaʼni tilda ifodalagan maʼnosi **oʻz maʼnosi** deb ataladi.

Masalan, *ko'z, etak* so'zlari yakka holda ishlatilganda uning asl, ya'ni o'z ma'nosi anglashiladi.

So'zning gap ichida, ya'ni nutqdagi o'z ma'nosidan boshqacharoq mazmun ifodalashi uning **ko'chma ma'nosi** deb yuritiladi. Masalan, *ishning ko'zi, tog'ning etagi* kabi birikmalar tarkibida ko'z va etak so'zlari ko'chma ma'noda qo'llangan.

**2. So'zning ma'no ko'chish usullari.** O'zbek tilida polisemantik so'zlar ma'no ko'chishning to'rt xil usuli mavjud: 1) metafora; 2) metonimiya; 3) sinekdoxa; 4) vazifadoshlik.

**Metafora** (yunoncha «ko'chirma» so'zidan olingan) biror narsa, belgi yoki harakatning nomi o'zaro o'xshashligi bo'lgan boshqa narsa, belgi yoki harakatga ko'chishidir. Masalan: *U tarozining ikki pallasini ko'zdan kechirdi* (I.Rahim). *Yormat tarvuzni kesdi. Bir pallasini o'zi olib, ikkinchi pallasini Yo'lchi va O'roz oldiga qo'ydi* (Oybek). Birinchi misoldagi *palla* so'zining o'z ma'nosi taroziga nisbatan qo'llaniladi. Uning tashqi ko'rinishiga ko'ra o'xshashligi ikkinchi misolda tarvuz bo'laklariga nisbatan ham qo'llanishga sabab bo'lgan.

Metafora asosida nom ko'chish birgina narsa nomi bo'lgan otlarga daxldor bo'lmay, boshqa turkumga mansub so'zlarda ham uchraydi. Masalan: *taqir cho'l-taqir bosh, taqir sholcha; o'tkir pichoq-o'tkir hid, o'tkir odam* kabi sifatlar; *dalalarda qushlar uchadi – uning jahldan lablari pir-pir uchardi* kabi fe'llarda ham metafora asosida ma'no ko'chishi uchraydi.

**Metonimiya** (yunoncha «qayta nomlash», «nomini almashtirish») narsa yoki hodisalarning makon va zamonda o'zaro bog'liqligi, doimiy aloqadorligi asosida birining nomi ikkinchisiga ko'chishidir. Bunda narsa, harakat va belgi o'rtasidagi o'zaro o'xshashlik emas, balki doimiy aloqadorlikning mavjudligi birining nomini aytganda ikkinchisini anglash, nazarda tutish imkonini beradi. Metonimiya asosida nom ko'chishda narsalar (otlar) o'rtasidagi quyidagicha uzviy aloqadorliklar asos bo'lishi mumkin: 1) narsa yasalgan materialning umumiy aloqadorligi asosida uning nomi boshqa narsaga ko'chadi: *Moyi tugab piligi so'xta bo'lgan chiroq bir lip etib so'ndi* (S.Ahmad). *Sochini mayda o'rib uchiga pilik taqqan edi* (S.Ahmad); 2) narsalarning o'ziga xos harakat-holati, xususiyati jihatdan umumiy aloqadorligi asosida uning nomi boshqa narsaga ko'chadi: **beshtik-maktab ta'lim va tarbiya beshigidir, qaldirg'och-litseyimiz qaldirg'ochlari**; 3) o'rinning unda joylashgan narsa bilan doimiy aloqadorligi asosida uning nomi boshqa narsaga ko'chadi: **kosa, qoshiq, tovoq-ovqat, zal-zal kulib yubordi, sinf-sinf oyoqqa qalqdi** ma'nolarida ishlatiladi; 4) harakat-hodisaning nomi shu harakat-hodisaning bajarilgan vaqtiga ko'chiriladi: *Machitdan shom azoni eshitildi...* (Sh.Toshmatov). *Azonga yaqin bir iloj qilib qochibdi* (P.Tursun); 5) narsaning nomi shu narsaga xos bo'lgan belgi aloqadorligi asosida ko'chadi: **tulki-ayyor, mug'ombir odam, iflos-betayin, jirkanch kishi**; 6) harakat, o'yin obyekti shu o'yinning nomi sifatida ko'chadi: **uloq-uloq chopmoq** va boshqalar.

Sifat va fe'l turkumiga mansub so'zlar doirasida ham metonimiya hodisasi mavjud bo'lib, ularda ko'chma ma'no belgining yoki harakatning aloqadorligiga asoslanadi. Masalan: **qisqa yo'l** - qisqa nutq, qisqa ovoz, **beg'ubor**

**osmon**-beg'ubor odam, beg'ubor ko'ngil; **bola boqmoq**-kishini hunar boqadi, bog'ni boqsang bog' bo'lur.

**Sinekdoxa** narsa va hodisaning nomi bilan uning qismini atash yoki qismining nomi bilan shu qism mansub bo'lgan butunni atash orqali yangi ma'no hosil qilish usulidir. Masalan: *Tirnoq* so'zining *farzand* ma'nosida ishlatilishi (*U tirnoqqa zor edi*) qism nomi bilan butunni ifodalashnashidir. *Qo'l* so'zi bilan uning bir qismini, ya'ni barmoqning atalishi esa (*Qo'liga uzuk taqdi*) butun nomi bilan qismning nomlanishidir. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning quyidagi gaplardagi ma'nolariga e'tibor bering: *Rux samovar. Egamberdi, Sen darrov o't sol!* (A.Qodiriy) *Mirzo kechqurun samovarga* chiqdi, ikkita choy ichdi (A.Qahhor). *Devorlarda Tamara o'z qo'li bilan tikkan kashtalar* osilgan edi (M.Muhammedov). *U yenglariga chiroyli qizil kashtalar* tikilgan ukraincha oq shoyi kofta kiygan edi (P.Tursun).

**Vazifadoshlik** narsa va hodisalarning bajaradigan vazifasidagi birlik, o'xshashlik asosida nom ko'chishidir. Masalan, *chiroq* so'zi o'tmishda moy shimdirilgan pilik yordamida yorug'lik beruvchi moslamani anglatgan. Hozirda esa elektor yoritgichlar ham chiroq deb yuritiladi. Yoki tarixan qamish yoki patdan yasalgan yozuv quroli qalam deb atalgan. Hozir esa grafitli maxsus yasalgan yozuv quroli ham shu nom bilan yuritiladi. Vazifadoshlik asosida nom ko'chish so'zning ko'p asrlik tarixiy taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgani uchun ma'no ko'chishning boshqa usullariga nisbatan ancha kam uchraydi.

Ko'p ma'noli so'zlarning yuzaga kelishida polisemantik so'z va yasovchi affikslarning ham alohida o'рни bor. Masalan, *tuzsiz taom, tuzsiz gap* birikmalari tarkibidagi -siz ko'p ma'noli affiksi va o'zak birligi ko'p ma'noli so'zning yuzaga kelishida muhim rol o'ynagan. Polisemantik so'zlar, qancha ma'noga ega bo'lmasin, bu ma'nolar o'zaro bog'langan bo'ladi. Agar ular o'rtasidagi ma'no bog'liqlik davrlar o'tishi bilan uzilib qolsa, u holda bunday so'zlar o'zaro omonimga aylanadi. Masalan, *gap* - fikr, mulohaza; *gap* - tengdoshlar, hamkasblar yig'ini, ziyofati; *ko'k* - rang, *ko'k* - osmon kabilar. Keltirilgan misollarda ma'no bog'liqlikni ilg'ab olish ancha qiyin. Shunga ko'ra, aytish mumkinki, polisemantik so'zlar bir xil fonetik qobiqqa ega bo'lgan so'zlar takrori nuqtai nazaridan omonimlarga o'xshasa ham, ko'p ma'nolilik, avvalo bir turkum doirasida yuzaga kelishi, ular qancha ma'noga ega bo'lmasin, o'zaro bog'liq bo'lishi bilan omonimlardan farqlanadi. Ko'p ma'noli so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolari, odatda, izohli lug'atlarda, shakldosh so'zlar esa omonim so'zlarning izohli lug'atida beriladi.

**1- topshiriq.** Quyidagi so'zlarning hozirgi paytda qo'llanish shakllarini toping.

Namuna: avtor — *muallif*, doklad — *ma'ruza*, tekst — *matn*, agitator — *tashviqotchi*, propagandist — *targ'ibotchi*, aktiv — *faol*.

arbitr, bilet, vzos, viza, vizit, garantiya, gruppа, gumanizm, dekada, dialog, dogma, zakaz, ideya, ideologiya, invalid, injener, kandidat, kassir, kvartal, kvartira, kollektiv, komitet, kontrol, kopiya, kosmos, meditsina, ministr, morojenoye, pochta, orden, pechat, plan, programma, protokol, protsent, rayon, redaktor, remont, reforma, sekretar, sovet, spravka.

**2-topshiriq.** „O‘zbek tilining izohli lug‘ati“dan foydalanib, quyidagi so‘zlarning ma’nosi va kelib chiqishini (etimologiyasini) izohlang.

Namuna: I. Abas — foydasiz, behuda; abgor— nochor, xarob; abjad — arabcha harflarning son qiymatiga asoslangan sakkiz so‘zdan biri.

Abzal, abituriyent, abro1, avans, avbosh, avvalambor, avj, avzo, avom, avra, avtogen, avtol, avtoreferat, agent, agrégat, adab, adad, adib, adir, adovat, adras, ayoz, ajdod, ajrim, ajriq, aza, azm, ayil, ayamoq, aynama, ayniyat, aysh, ayqashmoq, ayirmoq, ayg‘oqchi, akvarei, akvarium, aksa, aksioma, akustika, alaykum, alak, alaf, alahlammoq.

2. Ata, bari, bezbet, bekin, belkurak, to‘qson, sakson, qayrag‘och, bilaguzuk, bilan, bitta, bosvoldi, boshmaldoq, bugun, buzuvchi, bukri, bokysun, vizildoq.

**3- topshiriq.** Quyidagi hikmatli iboralarning mazmunini so‘zlab bering.

Ko‘pincha, so‘z aytib boidim pushaymon,  
Aytmagan so‘zimdanda doimo shodon.

(Rudakiy)

Kimki ko‘p so‘zlaydi, besharm-u hayo,  
Topolmas izzat-u obro4 u aro.

(Firdavsiy)

Qarashg‘a noravo narsaga ko‘r bo‘l,  
Tinglashga noloyiq gap-so‘zga kar bo‘l.

(Nosir Xisrav)

Yumshoqlikdan juda ko‘p dil rom bo‘lur,  
Qo‘pollikdan pishiq qayta xom bo‘lur.

(Nosir Xisrav)

So‘zlaganda lozim dur tizmoq,  
BoMmasa, gung bo‘lgan yaxshiroq.

(Sanoiy)

Xush gap-u, xushchehra bo‘lgil, ey axiy (do‘st),  
Toki noming dunyoda bo‘lsin saxiy.

(Farididdin Attor)

Avval o‘ylangiz, so‘ngra so‘ylangiz,  
Devordan awal qo‘yilur negiz.

(Sa‘diy Sheroziy)

**4-topshiriq.** Berilgan she’rni ifodali o‘qing. So‘zlarni ko‘chma ma’noda qo‘llash orqali nutq ta’sirchanligini ta’minlashdagi o‘rnini izohlang.

#### Manzara

|                                                                                                                                                      |                                                                                                                                                 |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Qora qushlar qo‘narlar<br>Majnuntolning shoxiga.<br>Boshin suvga egarlar,<br>Boqmay sira ohiga.<br>Rahmi kelib bulutning,<br>Yig‘lab to‘kar yoshini. | Qushlar qochar, majnuntol<br>Ko‘taradi boshini.<br>Bulutning orasidan<br>Quyosh kulib qaraydi.<br>Majnuntolning yuvilgan<br>Sochlarini taraydi. |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

## O'N BESHINCHI DARS

### MAVZU: SO'ZLARNING SHAKL VA MA'NO MUNOSABATIGA KO'RA TURLARI

**Esda tuting!** Adabiy tilda mavjud bo'lib, shu tilda gaplashuvchilarga tushunarli bo'lgan so'zni qo'llash nutqning muhim me'yorlaridan sanaladi. So'zni to'g'ri qo'llashda quyidagilarni e'tiborga olish lozim:

- so'zning nutqda ortiqcha takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun uning ma'nodoshlaridan o'rinli foydalanish;
- shakldosh va paronim so'zlarni ma'nolarini farqlagan holda ishlatish;
- so'zlashuvchilar uchun tushunarsiz bo'lgan sheva so'zlari yoki ijtimoiy guruhlariga oid argolarni qo'llamaslik;
- o'zlashma so'zlarni noo'rin qo'llashdan cheklanish, ularning milliy tildagi muqobillaridan foydalanish;
- so'z qo'llashda ixchamlik, tejamkorlikka erishish.

Tildagi so'zlar shakl va ma'no xususiyatlariga ko'ra o'zaro turli munosabatda bo'ladi. So'zlarning ayrimlari shakl jihatdan, ayrimlari ma'no jihatdan, ba'zilar esa talaffuzi jihatidan o'xshash bo'ladi. Shu xususiyatlariga ko'ra so'zlar quyidagi guruhlariga bo'linadi:

**1.Omonim so'zlar.** Shakli (yozilishi va aytilishi) bir xil, ma'nosi har xil so'zlar omonimlar deyiladi. Omonim so'zi grekcha «bir xil» degan ma'noni ifodalaydi. Masalan: ot - hayvon, ot - uloqtirmoq, ot - ism; og'iz - insonning tana a'zosi, og'iz - yangi tuqqan sigir sutidan tayyorlanadigan taom; chang - to'zon, gard, g'ubor, chang – to'rtburchak, yassi quti shaklidagi torlar tortilgan qo'sh cho'p bilan chalinadigan musiqa asbobi; qovoq - insonning tana a'zosi, ot, qovoq - poliz ekini, ot.

Omonim so'zlar turkumiga (yuz – insonning tana a'zosi, ot; yuz - miqdor bildiruvchi son) oid bo'ladi.

Omonimlar 2 turga ajratiladi: 1) lug'aviy omonimlar; 2) grammatik omonimlar. Lug'aviy omonimlar:

1) so'zlar doirasida; 2) iboralar doirasida bo'ladi.

1. Omonimlik hodisasi so'z bilan so'z doirasida bo'lsa, leksik omonim deyiladi. Masalan: kul (ot) – biror narsaning yonishi natijasida hosil bo'ladigan kukun. U oshxona oldida turgan kul chelakni olishga buyurdi. (P.Tursun) Kul (fe'l) - zavq shovqini, xursandchilik bildiruvchi tovushlar chiqarmoq. Nega Aziz bu qadar shod: Yuzi kuladi, ko'zlari yonadi? (H.G'ulom)

2. Omonimlik hodisasi ibora bilan ibora doirasida bo'lsa, frazeologik omonim deyiladi. Masalan: bosh ko'tarmoq - qarshi qo'zg'olon ko'tarmoq, bosh ko'tarmoq - tuzalmoq, sog'aya boshlamoq.

Grammatik omonimlar qo'shimchalar doirasidagi shakliy tenglikdir. SHakli bir xil, ma'nosi har xil qo'shimchalarga grammatik omonimlar deyiladi. Masalan: - im qo'shimchasi bilim – ot yasovchi qo'shimcha, fe'ldan ot yasaydi. Kitobim – I

shaxs, birlik qo'shimchasi; -ki (tepki) – ot yasovchi qo'shimcha, -ki (kechki) – sifat yasovchi qo'shimcha.

Ba'zi omonim so'zlar qo'shimchalar olganda ham omonimlik shaklini saqlab qoladi. Masalan, ter+im, ter+im. Birinchi so'z –ter ot turkumiga oid so'z bo'lib, I shaxs, birlik egalik qo'shimchasini olgan, ikkinchisi fe'l turkumiga oid so'z ot yasovchi –im qo'shimchasini olgan. Bu so'zlar bir xil shaklini saqlab qolgan.

Omonimlar ko'p ma'noli so'zlar ma'nosidagi bog'lanishning yo'qolishi, so'zlardagi fonetik o'zgarishlar va boshqa tildan so'z o'zlashishi jarayonida yuzaga keladi. Masalan: 1) bog' (mevazor) tojik tilidan kirgan, bog' (bog'ich) o'zbekcha so'z; 2) dam – nafas (o'z ma'nosi), dam - bosqon (ko'chma ma'no), dam - xordiq (ko'chma ma'no). 2-misolda polisemiya hodisasi yo'qolib, omonimiya hodisasi yuzaga keldi.

**Sinonim so'zlar.** Shakli har xil, ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlar sinonim deyiladi. Sinonim so'zlar bir predmet hodisaning (taom, ovqat; baxt, iqbol, tole, saodat), belgining (sezgir, ziyrak, tuyg'un; aniq, ochiq-ravshan, yorqin, oydin, ayon), harakatning (yordamlashmoq, ko'maklashmoq) bir necha nomi. Sinonim so'zi grekcha «bir nomli» degan ma'noni ifodalaydi. SHuning uchun sinonimik hodisa bir so'z turkumi doirasida yuzaga keladi.

Sinonim so'zlar aynan bir predmet, belgi, harakat tushunchasini ham, qo'shimcha ma'no ottenkalari bilan farqlanadigan predmet, belgi, harakat tushunchalarini ham anglatadi. Masalan, tilshunoslik – lingvistika sinonimlarining ma'nosi aynan bir xil. Yig'lamoq, yig'lamsiramoq sinonimlarining ma'nosida farq mavjud.

Bir ma'no atrofida birlashgan so'zlar guruhi sinonimik qatorni tashkil etadi. Masalan: odam – kishi – inson – bashar; davolamoq, tuzatmoq; yorug' - nurli - charog'on, yorqin – munavvar.

Sinonimik qatorni tuzishda ma'nodosh so'zlar uchu nasos qilib olingan so'z bosh so'z (dominanta) deyiladi. Sinonimik guruhdagi ma'noli, barcha nutq uslublarida qo'llanadigan, adabiy tilga mansub, ma'no doirasi keng bo'lgan so'z bosh so'z sifatida tanlab olinadi: botir - qahramon – dov yurak - qo'rqmas – jasur.

Sinonimlarning quyidagi turlari mavjud: 1) lug'aviy sinonimlar; 2) grammatik sinonimlar.

1. Lug'aviy sinonimlar: 1) so'zlar doirasida (bezak, ziynat, hasham); 2) so'z va iboralar doirasida (ayyor - mug'ambir – pixini yorgan, ilonning yog'ini yalagan); 3) iboralar doirasida (og'ziga talqon solmoq - og'zida qatiq ivitmoq) bo'ladi.

2. Grammatik sinonimlar qo'shimchalar doirasida bo'ladi.

Sinonim so'zlar o'zbek tilining ichki taraqqiyoti asosida (kun - quyosh, ish – yumush, qari – keksa) va boshqa tildan so'z olish natijasida (shox (o'zbekcha) – muguz (tojikcha), orzu (tojikcha) – tilak (o'zbekcha), buloq (o'zbekcha) – chashma (tojikcha), adabiy tilga xos so'z bilan shevaga xos so'zlar (go'zal – suluv – ko'xlik – xushro'y) yoki shevaga oid bir necha so'zlar doirasida (chelak – satil - paqir) yuzaga keladi.

**1-mashq.** Gaplarni o'qing. **saboq** va **dars** so'zlarining ma'nolaridagi farqni izohlashga harakat qiling, shu asosda yozma matn tuzing.

1. Anvarjon ukam, – dedim unga. – Siz o'sishingiz kerak. Toshkentda ustozlardan **saboq** olasiz, poytaxtdagi adabiy muhit, o'z tengi yosh yozuvchilar bilan bo'ladigan muloqotlar fikr doirangizni kengaytiradi. (*Said Ahmad*)

2. Umidaning axloqi, o'zini tutishi, **darslarni** o'zlashtirishi universitet rahbariyatiga ma'qul edi. (*Said Ahmad*)

**2-mashq.** Gaplarni o'qing, ajratilgan so'zlarning ma'nosini izohlang va ma'nodoshlarini toping.

1. Temur tug'i yetmagan joyni qalam bilan oldi, Alisher (A.O.). 2. Tiliga kuchi yetadigan kishi aql podshosidir; so'zga ahamiyat bermaydigan kishi la'natlangan, pastdir (A. Navoiy). 3. Xalq oldida gapirganda so'zing go'zal bo'lsin, bu so'zni xalq qabul qilsin («Qobusnoma»). 4. Xullas, yaxshi nutq tuzish uchun nahv, aruz, mantiq fanlari hamkorligidan foydalanish zarur bo'ladi. Ularning birontasiga ahamiyat bermaslik, bulardan birining qoidasi buzilishi qolgan ikkitasiga ta'sir qilmay qolmaydi (Beruniy). 5. Agar so'z senikimi yoki sen so'znikimi, deb so'rasalar, aytil: men so'zniki va so'z menikidir, chunki so'z insonlik daraxtining mevasidir, daraxtni mevadan, mevani esa daraxtdan ajratib bo'lmaydi. Agar nuqsonli so'z qaysidir, deb so'rasalar, Xudo va Rasulning so'ziga muvofiq kelmaydigan so'z, deb javob bergil (Koshifiy). 6. Agar gapirgan vaqtingda so'zning qanday ma'noga ega ekanligini bilmasang, qushga o'xshaysan, bunday qushni to'ti deydilar (Kaykovus).

**3-mashq.** Matnni o'qing. Muhabbat tushunchasi ifodasiga daxldor so'zlarning rango-rangligiga diqqat qiling, ulardagi ma'no nozikliklarini namoyon qiluvchi gaplar tuzishga harakat qiling.

O'zbek tilida muhabbat degan so'z shu qadar rango-rang ma'nolarga egaki, hayratda qolasiz! Yoqtirib qolmoq, ko'ngil bermoq, moyil bo'lmoq, xushtor bo'lmoq, oshufta bo'lmoq, dil bermoq, bedil bo'lmoq, muftalo bo'lmoq, maftun bo'lmoq, mahbub bo'lmoq, oshiq bo'lmoq, yaxshi ko'rmoq, ishq tushmoq, ishq foni, ishq boqiy, sevgi, muhabbat, mehr va hokazolar. Tabiiyki, bular orasida boshqa tillardan kirganlari ham bor. Biroq ularning barchasi – teng huquqli o'zbek so'zlari!

Mumtoz adabiyotda ishq so'zining o'zi ikki xil ma'noni ifodalaydi. Ishq foni – mahbubaga nisbatan sevgi. Ishq boqiy – Tangrining diydoriga yetish...

Bugungi kunimizga kelsak... Boshqa tillarda uchrashi mushkul bo'lgan g'alati holatlarni ko'ramiz. Vatanga moyil bo'lmoq degan ibora kulgili tuyuladi. Vatanni sevmok deyiladi. Ota-ona mehri, farzandning ota-onani yaxshi ko'rishi, farzand mehri deyiladi...

Shunday qilib, yoqtirib qolmoq bilan ko'ngil bermoq, ko'ngil bermoq bilan oshiq bo'lmoq, oshiq bo'lmoq bilan sevmok, sevmok bilan muhabbat, muhabbat bilan yaxshi ko'rmoq, yaxshi ko'rmoq bilan mehr orasida uzoq masofa bor...

Tilimiz naqadar rango-rang! Tilimiz naqadar boy! (O'. Hoshimov)

**4-mashq.** Ma'nodosh va paronim so'zlarni noto'g'ri qo'llash bilan nutq aniqligiga putur yetgan o'rinlarni aniqlang, ularni muvofiq muqobillari bilan almashtiring.

1. Bilaman, uzoqning ishi qiyin. Lekin bir og'iz mujda yuborish shunchalar mushkul edimi? (Murod Mansur) 2. Boshqa shaxsning kechir-malarini tushunish, o'zingni uning o'rnida his qilish masalasiga kelganda esa fan buni inkor etmaydi. (M. Nasibullin) 3. Keyin, Qo'chqor aka, bu robotlar juda arzonga tushadi, yoqilg'i kerak emas – batareyalardan oziqlanadi. (Sh. Boshbekov) 4. Juman bobo hamisha bitta gapni takror-laydi: – Meni shoshirmanglar, nevara-chevaralarimni narigi ming yillikka o'tqazib qo'yay, ana undan keyin haydamasanglar ham o'zim ketaman. (Said Ahmad) 5. Sovuq terga botgan ona tun bo'yi ingrab, behalovat bo'lib chiqdi. Nihoyat, u horg'in ko'z qobiqlarini ochdi. (M. Nasibullin)

**5-mashq.** Quyida berilgan sinonimlar orasidagi nozik ma'no farqlarini lug'atlardan foydalanib aniqlang va so'zlab bering.

Namuna: yasanmoq — chiroyli kiyinmoq, bezanmoq — turli taqinchoqlarni taqib olmoq; kulmoq — bir gap yoki ish ta'sirida kulmoq, jilmaymoq — yengil kulmoq.

Azamat, polvon, kuchli; azob, aziyat, jabr, zahm at, alam, iztirob, uqubat, sitam; ayb, gunoh, jinoyat, yoziq; ayyor, mug'ambir, hiylagar, quv, ustamon, makkor, dog'uli, moltoni, qilvir, shayton, tulki, tullak, qirriq, qirpa, maston; aylanay, aylansin, o'rgulay, girgitton, qoqindiq, sadaqa; aytishmoq, janjallashmoq, koyishmoq, mojarolashmoq, urishmoq, qizarishmoq, tiklashmoq, olishmoq.

**1-topshiriq.** Quyidagi so'zlardan sinonimik qatorlar tuzing va ular orasidagi ma'no farqlarini izohlang.

Namuna: yuz — yuz, bashara, aft, turq, bet; yuz — kishi boshining old tomoni; chehra, jamol — ijobiy ma'noda; bet, aft, bashara, turq — salbiy ma'noda.

Arang, kiyinmoq, atrof, badnom, bajarm oq, balli, ba'zan, baxtsiz, begona, bezovta, bekinmoq, bekorga, beparvo.

**2-topshiriq.** Quyidagi so'zlarning antonimini toping va gap tuzing.

erta, bugun, oq, yer, katta, qish, issiq, yorug' yosh, past, do'st, keldi, kecha.

## O'N OLTINCHI DARS

### MAVZU. TILNING LUG'AT TARKIBI

#### 1. Tilning lug'at tarkibi.

Tilning lug'at tarkibi muayyan tilda mavjud bo'lgan so'z va iboralar majmuidan iboratdir. So'z va iboralar birgalikda tilning lug'aviy birliklarini tashkil etadi. So'z – leksik birlik, ibora esa frazeologik birlik deb yuritiladi. O'zbek tili lug'at tarkibi keng ma'noda adabiy tildagi so'zlar bilan bir qatorda shevalar hamda kasb-hunarga, shuningdek, ma'lum ijtimoiy guruhga oid so'zlarni ham o'z ichiga qamrab oladi. Kishi ismlari, laqablar, taxalluslar (antroponimlar), joy nomlari

(toponimlar), yulduz va sayyoralar nomlari (astroponimlar), hayvonlarga berilgan maxsus nomlar (zoonimlar) kabi atoqli otlar ham tilning lugʻat tarkibiga kiradi.

Lugʻat tarkibi tilning boyligini oʻzida aks ettiradi. Qaysi til soʻzga boy boʻlsa, oʻsha til shunchalik taraqqiy etgan hisoblanadi. Tilning lugʻat tarkibi doimo oʻsishda, oʻzgarishda boʻladi. Bunda oʻtmishda ishlatilgan bir qancha soʻzlarning eskirib isteʼmoldan chiqishi, avvallari faol qoʻllangan soʻzlarning nofaol qatlamga oʻtishi, ilgarilari kam ishlatilgan soʻzlarning faollashishi, soʻz maʼnosining kengayishi va torayishi, soʻzlarning koʻchma maʼnoda qoʻllanishi kabi holatlar kuzatiladi. Jamiyat taraqqiy etib borishi natijasida tilning lugʻat tarkibi ikki omil: ichki va tashqi manbalar asosida boyib boradi. Ichki omil deyilganda oʻzbek tilining oʻz imkoniyatlari, qonun-qoidalari asosida yangi soʻzlar hosil qilinishi, yasalishi hamda sheva va lahjalardan adabiy tilga soʻz qabul qilinishi tushuniladi. Lugʻat tarkibi tashqi manba – boshqa tillardan soʻz oʻzlashtirish orqali ham boyiydi. Tilning lugʻat tarkibi maʼnosida leksika atamasi ham qoʻllaniladi. Darhaqiqat, leksika – tildagi soʻzlarning yigʻindisi, majmuidir. Leksika atamasi adabiy tilning lugʻat tarkibi maʼnosida qoʻllanishi bilan bir qatorda biror sheva yoki lahjaning, maʼlum bir kasb-hunar, sohaning lugʻat tarkibini ifodalash uchun ham ishlatiladi. Masalan, oʻzbek shevalari leksikasi, oʻgʻuz lahjasi leksikasi.

Tildagi soʻzlarning qoʻllanish darajasi shu til egalari doirasida bir xil emas. Baʼzi soʻzlar ular tomonidan birdek foydalanilsa, baʼzilari esa maʼlum hududda yashovchi yoki maʼlum kasb-hunar bilan shugʻullanuvchi kishilar nutqidagina qoʻllanadi. Shu jihatdan oʻzbek tili leksikasi ikki katta guruhga boʻlinadi:

- 1) isteʼmol doirasi chegaralangan leksika;
- 2) umumisteʼmoldagi leksika.

Bu guruhga oid leksika qoʻllanish doirasiniig chegaralanish xarakteriga koʻra uch turga boʻlinadi: 1) dialektal leksika; 2) terminologik leksika; 3) jargon va argolar.

Maʼlum hududda yashovchi kishilar nutqiga xos boʻlgan, adabiy til leksikasiga kirmaydigan soʻzlar dialektal leksikani tashkil etadi. Maʼlum dialekt va sheva vakillariga qoʻllaydigan bunday soʻzlar dialektizmlar deb yuritiladi.

Professional va ilmiy terminologik leksikani tashkil etadi. Ilm-fan, texnika, qishloq xoʻjaligi va boshqa sohalarga oid tushunchalarning aniq atamasi boʻlgan soʻz yoki soʻz birikmasi termin deyiladi. Har bir fan, kasb-hunar oʻz terminlariga, shu terminlar jamidan iborat leksikasiga ega. Bunday maxsus leksika terminologiya deb ham yuritiladi: fizika terminologiyasi, lingvistik terminologiya kabi.

**1-topshiriq.** Quyidagi savollarga javob bering.

1. Leksikologiya deb nimaga aytiladi?
2. Tilning lugʻat tarkibi deganda nimani tushunasiz?
3. Tilning lugʻat tarkibi qanday manbalar asosida boyiydi?
4. Leksika nima? Leksika atamasining qoʻllanilishiga izoh bering.
5. Leksikologiya qanday tarmoqlarini bilasiz?

**1-mashq.** Matnni koʻchiring. Nutqning boyligini taʼminlayotgan maʼnodosh soʻz va iboralarni aniqlang.

Amir bo‘lamiz – ko‘ngli ochiq, qo‘li ochiq, aksariyat savdo ahliga xos kirishimli, sal narsaga yon beruvchi yigit. U menga juda mehribon, «bolajonim»lab boshiga ko‘taradi. Qisqasi, xudo berganini birodarlari bi-lan bo‘lishadigan hotamtov, muruvvatli inson. Uning tog‘amizga nisbatan ham kek-g‘arazini sezmaganman, hamisha bag‘rini ochib muomala qila-di. To‘g‘ri, andak kinoya aralash, andak piching-u istehzo bilan. Ammo bunga ham tog‘amizning o‘zi aybdor. Sababi menga qorong‘i bu ziddiyat tog‘a-jiyaning o‘rtasida azaldan bor edi. Bu, tabiatan bir-birini xush ko‘rmaslik – iqi suymaslikmi yoki arzimas bir narsadan boshlangan bo-lalik arazining tobora chuqurlashib adovat chohida aylanganimi, ishqilib, men bilmayman. Bobomizning kenjatoy-erkatoyi xarxasha-yu janjal evaziga boshqalar dan undirgan neki narsasi bo‘lsa, menga ilingani-ilingan edi, «o‘gay» jiyan — Amirga esa odatdagi yovqarashdan o‘zga hech vaqo yo‘q. (Erkin A‘zam)

Sh. Rahmatullayevning «O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati»dan olingan quyidagi iboralarning izohlarini esda tuting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

*Yuragini yormoq* I Qattiq cho‘chitib qo‘rqitmoq. Ma‘nodoshi: o‘takasini yormoq. O‘xshashi: kayfini uchirmoq.

*Yuragini yormoq* II Ichidagi istak yoki dardini aytmoq. Varianti: ko‘nglini yormoq.

**1-mashq.** Sh. Rahmatullayevning «O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati»dan olingan quyidagi iboralarning izohlarini esda tuting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

*Yuragini yormoq* I Qattiq cho‘chitib qo‘rqitmoq. Ma‘nodoshi: o‘takasini yormoq. O‘xshashi: kayfini uchirmoq.

*Yuragini yormoq* II Ichidagi istak yoki dardini aytmoq. Varianti: ko‘nglini yormoq.

## O‘N YETTINCHI DARS

### MAVZU. O‘ZBEK TILINING LEKSIK QATLAMLARI

**1. O‘z qatlamga tegishli so‘zlar.**

**2. O‘zlashgan qatlamga tegishli so‘zlar.**

**O‘z qatlamga tegishli so‘zlar.** O‘z qatlamga o‘zbek tiliga oid bo‘lgan, shuningdek, turkiy tillar uchun umumiy bo‘lgan so‘zlar kiradi. O‘zbek tili lug‘at tarkibida turkiy tillar uchun umumiy bo‘lgan so‘zlar anchagina: tosh, tog‘, yer, bosh, suv, til, qo‘l, kishi, bola; oq, qora, qizil, ko‘k, sariq, yashil, yaxshi, yomon; bir, ikki, uch, besh, olti, etti, yuz, ming: men, sen, u, biz, siz, bu, shu; kel, ol, bor, tur, qara; ildam, erta, indin, ilgari.

O‘zbek tilining bevosita o‘ziniki bo‘lgan so‘zlar tilning ichki imkoniyatlari asosida hosil bo‘lgan so‘zlardan iborat. Bunda uch holat kuzatiladi:

1) asli o‘zbekcha so‘zlardan shu tildagi affiks (qo‘shimcha)lar yordamida yasalgan so‘zlar: *qatnashchi, terimchi, og‘machi, birlashma*;

2) boshqa tildan o'zlashgan so'zlarga o'zbekcha qo'shimcha qo'shilishi natijasida hosil bo'lgan so'zlar o'zbekcha hisoblanadi;

a) arabcha so'zlardan: *rahbarlik, mehrli*;

b) tojikcha so'zlardan: *mardlik, go'shtli*;

v) ruscha so'zlardan: *limonli, sportchi*;

3) boshqa tildan o'zlashgan so'zga o'zlashgan qo'shimchani qo'shish natijasida hosil bo'lgan so'z o'zbekcha hisoblanadi: *kitobxon, doimiy, adabiyotshunos*.

Demak, yasama so'zlar asosan o'zbekcha (o'z qatlam so'zlari) hisoblanadi.

O'z qatlam so'zlari (o'zbekcha so'zlar) quyidagi xususiyatlarga ega.

1) v, z, l, g, tovushlari bilan boshlanadigan so'zlar o'zbekcha emas: lab.

2) f, h, ' ishtirok etgan so'zlar o'zbekcha hisoblanmaydi: bahor, fikr, a'lo.

3) o'zbekcha so'zlarda unlilar yonma-yon kelmaydi: soat, matbuot.

4) o'zbekcha so'zlar omonim xarakterda bo'ladi: soch-soch, tut-tut.

5) o'zbekcha so'zlarda tarixiy tovush o'zgarishlari sezilib turadi: yag'och-og'och, jil-yil: jilon-yilon-ilon.

6) o'zbekcha (turkiy) so'zlarda bir bo'g'in tarkibida undoshlar yonma-yon kelmaydi; g'isht, go'sht, daraxt.

**O'zlashgan qatlamga tegishli so'zlar.** Arabcha, forsha-tojikcha, xitoycha, mo'g'ulcha, grekcha, ruscha so'zlar o'zlashgan qatlamni tashkil etadi.

O'zbek tilidagi o'zlashgan qatlamning asosini arab, fors-tojik, rus tillaridan o'tgan so'zlar tashkil etadi.

**Arabcha so'zlar:** kitob, maktab, xalq, maorif, shoir, ma'no, ilhom, san'at, tanqid, madaniyat, kashf, a'lo, odob, xat, savod, amal, oila, inson, husn, nutq, soat, avlod, savol, sinf, millat, hikoya, maqol, hayot, shamol, qadr, dohiy, mag'rur, xafa.

Arabcha so'zlar diniy atamalar va turli soha nomlaridir. O'zbek xalqi vakillariga qo'yiladigan ismlarning ko'pi arabcha. Arabcha so'zlar quyidagi xususiyatlarga ega.

1. (v) f, h, ' harflari ishtirok etgan so'zlar, asosan, arabcha: *ma'no, ta'limot, na'ra, sinf*.

2. Arabcha so'zlar siniq ko'pligiga ega, ya'ni ko'plik so'z tarkibini o'zgartirish bilan hosil qilinadi: *hol-ahvol, xabar-axbor, ruh-arvoh, xulq-axloq, she'r-ash'or*.

3. Arabcha so'zlarda o'zakdosh so'z tarkibidagi undoshlar yordamida hosil qilinadi: *hukm – hokim – hakam – mahkama – hokimiyat – mahkuma; fikr – tafakkur – mutafakkir; kitob – maktab – kutubxona – maktub; sinf – tasnif; hurmat – ehtirom – marhamat – muhtaram*.

**Forscha-tojikcha so'zlar.** Forscha-tojikcha so'zlar quyidagi xususiyatlarga ega. a) tojikcha so'zlar o'zbek tili lug'ati tarkibida qadimdan mavjud bo'lib kelgan. b) ch, l, g, z undoshlari bilan boshlanadigan so'zlar asosan tojikcha hisoblanadi: lola, gul, chaman. v) -xo'r, -noma, -do'z, -xon, -namo, -shunos, -boz, -bon, -dor, no-, ser- qo'shimchalari forscha-tojikchadir.

Tojikcha so'zlar: osmon, o'tob, bahor, baho, barg, daraxt, gul, xona, mirob, dasta, bemor, g'isht, dasht, xonadon, shogird, xaridor, serob, shirin, mard, mehribon, jonajon, kamtar, kam, chala, balki, agar, ham, go'sht, non, sozanda,

sabzavot, reja, dard, ombur, tesha, bobo, dugona, do'st, xonadon, peshona, kaft v.b.

**Ruscha-baynalminal so'zlar.** Rus tili va u orqali baynalminal so'zlarning o'zbek tiliga o'zlashishi XIX asming ikkinchi yarmidan boshlandi. Bunday so'zlar, asosan, ikki yo'l bilan, birinchidan, Rossiyaning Markaziy Osiyoni xususan, xonliklarni bosib olishi ikkinchidan, turli siyosiy, madaniy aloqalar, fan, texnika rivojlanishi bilan o'zlashgan. Masalan, zavod, fabrika, kredit, shtraf, samovar, chaynik, yashik, odekolon, manifest, izvosh, soldat kabilar.

Rus tili orqali boshqa tillaridan o'zlashgan baynalminal xususiyatiga ega bo'lgan birqancha so'zlar ham mavjud. Masalan, revolyutsiya, filologiya, psixologiya, fizika, federatsiya, bank, chek, aktyor, konsert, palto, ferma, telefon va boshqalar.

**1-topshiriq.** Quyidagi atamalarni o'rganing va ularning qo'llanish xususiyatlarini tushuntiring.

**Arabcha:** *amaliyot, asar, asos, izoh, ilm, in'ikos, ilova, isloh, istiloh, islohot, maqola, misol, masala, maxraj, manfiy, musbat, mavzu, mazmun, mantiq, ma'naviy, ma'rifiy, muqaddima, mushohada, tajriba, taqriz, tahlil, uslub, fan, falsafa* va hokazo.

**Forscha-tojikcha:** *bastakor, duradgor, zabtkor, navosoz, navoxon, shogird, peshqadam, sovrin, sozanda, ustoz, chavandoz, yakkaxon, havaskor, hamshira* kabi.

**Ruscha-baynalmilal:** *abzats, agronomiya, agrotexnika, arxeologiya, gazeta, kodeks, lingvistika, matematika, nekrolog, plenum, realism, romantizm, sessiya, syezd, fizika, fonetika, fonologiya* va hokazolar. Ularning ma'lum qismlari:

**Lotincha:** *abbreviatsiya, abstrakt ot, agglyutinatsiya, adverbializatsiya, adyektivatsiya, aktualizatsiya, aksentologiya, alliteratsiya, areal, artikulyatsiya, assimilyatsiya, affiks, affiksoid, affrikata* kabi.

**Yunoncha:** *allegoriya, allomorph, allofon, alfavit, amorf tillar, analitik tillar, analogiya, anomaliya, antiteza, antonym, antroponim, apokopa, arxaizm, aforizm* singari.

**Mavzuni mustahkamlash bo'yicha topshiriqlar.**

1. O'z qatlam va o'zlashgan qatlam tushunchalarini izohlang.
2. Tilning boyishiga o'z qatlamga tegishli so'zlarning ahamiyati qanday? O'zlashgan qatlamga tegishli so'zlarning o'zlashish xususiyatlari qanday?

## O'N SAKKIZINCHI DARS

### MAVZU: O'ZBEK TILIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING QO'LLANISHI

**Bilib oling.** Frazeologiya tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, u tilning lug'at tarkibidagi frazemalar haqida ma'lumot beradi.

Frazema ko'chma ma'noli tuig'un konstruksiyadir. Masalan, zo'raymoq (leksema) — avj olmoq (frazema), qiynalmoq (leksema) — azob chekmoq (frazema) kabi. Demak, frazema ham leksema kabi lug'aviy birlik sanaladi, ammo o'zining ifoda va mazmun planlaridagi qator belgilari bilan leksemadan farqlanadi.

**1-topshiriq.** Sh. Rahmatullayevning «O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati»dan olingan quyidagi iboralarning izohlarini esda tuting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Mazasi qochdi 1. Sog'lig'i yomonlashdi. Varianti: mazasini qochir-moq. O'xshashi: tobi qochdi. 2. Biror ish yomonlashdi, inqirozga yuz tutdi. Ma'nodoshi: mazasi ketdi.

Mum tishlamoq mutlaqo gapirmaslik, suhbatda mutlaqo qatnash-maslik. Ma'nodoshi: og'ziga tolqon solmoq; mog'ziga qatiq ivitmoq. O'xshashi: «lom-mim» demadi; dami chiqmadi; damini chiqarmadi; og'zini ochmadi.

**2-topshiriq.** Matnni o'qing. Fikr mantiqidagi buzilish haqida fikrlashing.

Ulug' Alisher Navoiy o'zining «Majolis un-nafois» asarida shunday bir voqeani hikoya qiladi. Bahorning yomg'irli kunlaridan birida u «Xuroson mulkida turkiy va forsiyda malik ul-kalom» Lutfiy bilan uchrashib qoladi. Mavlono Lutfiy Amir Xusrav Dehlaviyning bir she'ridagi go'zal ma'no va o'xshatish haqida juda ham maqtoov bilan gapirib beradi, ya'ni: «Mahbuba yomg'irli kunda yo'lda tiyg'anib yiqilib ketay deydi. U shu qadar go'zal va nozikki, yog'ayotgan yomg'ir rishtasini ushlab, uning madadi bilan o'zini o'nglab oladi». Bu ta'rif Navoiyga behad ma'qul tushadi. Saroydagi oliy adabiy majlislarning birida Navoiy bu o'xshatish haqida shoh Husayn Boyqaro huzurida gapirib, shohning ham hayratlanishini kutadi. Ammo Boyqaro «Yuqoridan pastga tushayotgan yog'in rishtasi yiqilayotgan kishi uchun madad bo'la olmaydi» deb, e'tiroz bildiradi. Navoiy Boyqaroning o'tkir va nozik mantig'i va she'rfahmlikdagi zakovatiga qoyil qoladi. Shoh va shoir Husayn Boyqaro mazkur holatda fikr mantiqiyligidagi buzilishni ilg'agan. (N. Mahmudov)

**3-topshiriq.** Sh. Rahmatullayevning «O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati»dan olingan quyidagi iboralarning izohlarini esda tuting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

*Nog'orasiga o'ynamoq* Kimningdir izmi, yo'l-yo'rig'i bilan ish ko'rmoq. Varianti: nog'orasiga o'ynatmoq; childirmasiga o'ynamoq.

*Oyog'iga bolta urmoq* Mavqeyidan mahrum etadigan zarba yet-kazmoq. Ma'nodoshi: payini qirqmoq.

**4-topshiriq.** Sh. Rahmatullayevning «O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati»dan olingan quyidagi iboralarning izohlarini esda tuting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

*Og‘zining tanobi qochmoq* Behad sevinmoq, xursandligi tufayli lab-lunjini yig‘ishtirib ololmaslik. Ma’nodoshi: og‘zi qulog‘iga yet-moq; boshi ko‘kka yetmoq; terisiga sig‘may ketmoq; qo‘yi mingga yetmoq.

*Payiga tushmoq* 1. Zimdan yurib butun xatti-harakatini ta’qib qil moq. Ma’nodoshi: iziga tushmoq; ketiga tushmoq; orqasiga tush-moq. O‘xshashi: payidan tushmoq. 2. Manfaatdor bo‘lgani holda berilib harakat qilmoq. Ma’nodoshi: ketiga tushmoq.

**4-topshiriq.** Sh. Rahmatullayevning «O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati»dan olingan quyidagi iboralarning izohlarini esda tuting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

*Podadan oldin chang chiqarmoq* Ro‘yobga chiqishi aniq bo‘lma-gan narsa haqida hovliqmalik bilan vaqtdan ilgari gapirib yurmoq. Varianti: podadan avval chang chiqarmoq. Ma’nodoshi: to‘ydan ilgari nog‘ora qoqmoq.

*Sirkasi suv ko‘tarmaydigan* Tanqidga mutlaqo chidamaydigan.

**5-topshiriq.** Matnni o‘qing, gaplar tarkibida qo‘llangan frazeologik birliklarni ajratib yozing.

### **Tomsuvoq**

Qishloqda kuz pallasi tomsuvoq qilish udumi bo‘lardi. Uning yozilma-gan qoidasi bor. Birinchidan, hech kim tomini yolg‘iz o‘zi suvamaydi: hamma hasharga keladi. Ikkinchidan, beva-bechora, qo‘li qisqa xonadon-ning uyi eng avval tomsuvoq qilinadi. Keyin navbatma-navbat davom etaveradi...

O‘qituvchimizning hashariga, ayniqsa, ko‘p odam yig‘ildi. Uyi katta yo‘l yoqasida edi. Shundoq ko‘cha chetidan loyhandaq qazilgan ekan. Somon, katta yo‘lning ko‘pchib yotgan tuprog‘iga qovushib, obdon yum-shabdi. O‘qituvchimizning Azim aka degan qo‘shnisi ishboshi bo‘ldi. Birov handaqqqa tushib loy solib berib turdi, birov paqirlab loy tashiydi, yana birov tomda turib, ilgak bilan tortib oladi, boshqasi hafsala bilan suvaydi...

Erta peshindayoq hamma ishni qoyil qilib tashladik. Hovli o‘rtasidagi tut tagida ovqatlanib o‘tirsak, o‘qituvchimning keksa onasi kelib qoldi. Kampir hassasini do‘qillatib, to‘ppa-to‘g‘ri o‘qituvchimizning oldiga bordi.

– Nima qilding? – dedi o‘g‘lining salomiga alik ham olmay. – Nima ish qilib qo‘yding?!

Hammamiz hayron bo‘lib qoldik. Muallim o‘quvchilarining oldida ayniqsa mulzam bo‘ldi, shekilli, qizarib ketdi.

**1-mashq.** Gaplarni o‘qing. Leksik va frazeologik ma’nodoshlikni aniqlang va ularning boy nutq tuzishdagi ahamiyatini tavsiflang.

1. Shu bois u sayhonlikda «uloq-uloq» o‘ynayotgan bolalardek shovqinlab, ovulni boshiga ko‘tarayotgan yigitlarning qilg‘ini ko‘pda yoqtirmay, jini qu rishibroq turardi. (N. Norqobilov) 2. Amir Temur halim tabiat, yumshoq ko‘ngil, tortinchoq, qora ko‘zlari hamisha mungli boqadigan qizini juda ham ardoqlar, har

kuni holidan xabar olardi. (Muhammad Ali) 3. Rahim Saidov uyni yana bir bor qarab chiqdi. Tryumoning hamma tortmalarini axtardi, yozuv stolining g'aladonlarini bir-bir titkiladi. Boshqa hech narsa chiqmadi. (O'. Umar bekov) 4. Ra'no ota oyoqlarini quchoqlab, boshini urib yig'ladi, ketmayman deb dod soldi. Ota ko'zlari jiqqa yosh-ga to'lib, ovozi titrab, ho'ngramoqdan beri bo'lib «Jonim bolam, iloyo, borgan joyingda unib-o'sgin» deb duo berdi. (Isajon Sulton)

**6-Topshiriq.** Quyidagi test savollariga javob bering.

1. Qaysi qatordagi frazeologizmlar hayrat mazmunini bildiradi?

- A. Yoqasini ushladi.
- B. Yuragiga g'ulg'ula tushdi.
- D. Meni mayna qildi.
- E. Ko'ziga qon to'ldi.

2. Quyidagi iboralarning qaysi biri ruhiy holat natijasini ifodalaydi?

- A. Dumini tugmoq.
- B. Ko'zlari yashnamoq.
- D. Ko'z tikmoq.
- E. Qalbi egri.

3. Qaysi qatordagi ibora mug'ambir so'ziga sinonim bo'ladi?

- A. Oyoqni tirab olmoq.
- B. Dilini og'ritmoq.
- D. Ilonning yog'ini yalagan.
- E. Yulduzni benarvon urmoq.

## **O'N TO'QIZINCHI DARS**

### **MAVZU. ADABIY NUTQ VA UNING USLUBLARI**

#### **1. So'zlashuv uslub va uning uslubiy xususiyatlari.**

So'zlashuv uslubi, ma'lum bir modal munosabatlarni ifodalash uchun asos bo'lsa, uslub fanining ob'yekti bo'ladi. Bu holat – gap bo'laklari tartibining “buzilishi” bilan, soda gap, to'liqsiz gaplarning bo'lishi, dialog nutqning mavjudligi bilan xarakterlanadi. Shunisi xarakterliki, og'zaki nutqning ba'zi shakllari yozma nutqda o'z o'rnini topadi: (keluvdi, kelardi). Og'zaki nutq uslubida qisqa hajmli bog'lovchisiz qo'shma gaplar ko'p ishlatiladi, badiiy vositalar kam qo'llaniladi. Ayniqsa, ko'p ma'noli so'zlar ko'proq ishtirok etadi. Og'zaki nutqda qochirma, piching, hazil-mutoiba, askiya uchun keng imkoniyat mavjud bo'ladi. Og'zaki nutq rasmiy – ish yuritish va ilmiy uslubda qo'llanilmaydi.

Og'zaki so'zlashuv uslubi ikkiga ajratiladi:

- 1. Adabiy so'zlashuv uslubi
- 2. Oddiy so'zlashuv uslubi.

Adabiy so'zlashuv uslubi tilning adabiy me'yorlariga mos, tartibga solingan va ishlangan bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Oddiy soʻzlashuv uslubida esa betakalluflik bilan erkin muomala – aloqa qilish xarakterli xususiyatdir.

**1-topshiriq.** Koʻchiring. Matnning qaysi nutq uslubiga xosligini va bu uslubning oʻziga xos xususiyatlarini aniqlang.

— Turing, Nazirabuvi! Turing. Toʻxtabuvinikiga chiqamiz.

— A? Nimaga?

— Toʻxtabuvinikiga chiqamiz. Rais kelibdi.

— Rais?..

— Endi, oʻgʻlim, dabdurustdan majlis deding... asli shu gapni avval joʻn gaplashib, pishiqtirib olsag-u, keyin majlisga solsang boʻlardi.

— Toʻgʻri, avval joʻn gaplashib olaylik. Xoʻp, majlis yopiq. Gapni bir joyga qoʻyganimizdan keyin ochamiz. (Abdulla Qahhor)

**2-topshiriq.** Quyidagi ogʻzaki nutqqa oid jumialar orqali yozuvchi nima demoqchiligini aytib bering va bu jumlamani adabiy til bilan ifoda qiling.

1. Naoborot boʻladi, otam. (5. Ahm.) 3. Hamma ishni xorosho. Chista-yu chaqqon qilaman. (H. H.) 3. Hozirgina chiqib ketishgan edi. Institutga. Jinimdan yomon koʻraman. Shu odamni. Endi boray. Maylimi? Qoʻying shu ishingizni! Kim oʻrgatdi senga yolgʻon gapirishni? Xoʻp ajoyib konsert bokldi televizorda. Keksayganida goʻrga tiqding tiriklay. (S. Ahm.) 4. Koʻnglini sindirma goʻdakning.

(5. Ahm.) 5. — Tonmaysan, oʻbdan ish! — Musulmonchiliq qigʻonsan-da! (A. Qod.) 6. Bilmasdan gapuralar. {Fitrat} 7. Aytalar {Fitrat}... 8 .... tijorat maktabiga oʻqigan. (Fitrat)

## **2. Badiiy uslub va uning uslubiy xususiyatlari.**

**Bilib oling.** Badiiy asarlar oʻziga xos uslubda yoziladi. Badiiy uslub turlari umumiy xususiyatlarga ega boʻlishi bilan birga, uning har bir turi (nazm, nasr, hikoya, qissa, roman, novella, doston, feleton, esse, fantastika, ertak, qoʻshiq va b.) oʻz yoʻli, oʻz vositalari, oʻz uslubiga ega boʻladi. Badiy nutq uslubini yozuvchi va shoirlarga asarning estetik taʼsirini kuchaytirish uchun tilning barcha lugʻaviy va Grammatik vositalaridan ustalik bilan foydalanish, tanlash, shuningdek, yangidan-yangi ifoda vositalari yaratish imkonini beradi. Badiy nutq uslubida til obraz, xarakter va manzaralar yaratish vositasi boʻlib xizmat qiladi. Badiy nutq oʻzining obrazlilik bilan adabiy tilning boshqa funksional uslublaridan ajralib turadi.

**Topshiriq.** Sheʼrlarning mazmunini oʻz soʻzlaringiz bilan tushuntiring. Badiiy uslubni yaratuvchi vositalarni ajratib koʻrsating.

Chiroylidir guyo yosh kelin,

Ikki daryo yuvar kokilin.

(X. Olimjon)

Koʻzing osmonga tushganda,

Lovillab oftob kuygay.

(X. Olimjon)

## **3. Rasmiy-idoraviy uslub va uning uslubiy xususiyatlari.**

Adabiy tilning yozma rasmiy shakliga xos bo'lib, muayyan nutqiy qolip, qat'iy odat tusiga kirib qolgan shakllarga ega bo'lgan nutq uslubi rasmiy uslub sanaladi.

Bu uslub davlat arboblari o'rtasidagi diplomatik munosabatlarda, idora, korxona, muassasalarning rasmiy ish yuritish jarayonlarida, shaxslarning ariza, tilxat, ishonch qog'ozi singari ish yuritish qog'ozlarida qo'llaniladi.

**1-topshiriq.** Matnni o'qing. Mazmunini so'zlab bering.

Ish yuritish hujjatlari qo'llanish doirasi, maqsad va vazifalariga ko'ra to'rt guruhga bo'linadi: 1. Tashkiliy hujjatlar (guvohnoma, yo'riqnoma, nizom, shartnoma va boshqalar). 2. Farmoyish hujjatlari (buyruq, ko'rsatma, farmoyish). 3. Ma'lumot-axborot hujjatlari (ariza, bayonnoma, dalolatnoma, ishonchnoma, tavsifnoma, tarjimai hol, tilxat, tushuntirish xati, e'lon va boshqalar). 4. O'zmat yozishmalari (taklifnoma, telegramma, xatlar).

Ish yuritish hujjatlarining har bir turi o'ziga xos nutqiy qoliplarga ega. Masalan, xizmat yozishmalarida quyidagi qoliplar ko'proq uchraydi:

- 1) «Sizga ...ni ma'lum qilaman(miz)//bildiraman(miz)//eslataman(miz)»;
- 2) «...ga rozilik bildiradi//kafolat beradi//qarshi emas» yoki farmoyish hujjatlarda gap kesimlari «tayinlansin», «topshirilsin» kabi majhul nisbat, III shaxs, buyruq maylidagi fe'llar orqali ifodalanadi.

**3-topshiriq.**

1. O'zbekiston a'zolik qilayotgan xalqaro tashkilotlar haqida ma'lumot tayyorlang.

2. Xalqaro tashkilotlardan birining faoliyati haqida taqdimot tayyorlang.

3. Xalqaro tashkilotlarning qisqartma nomlari ro'yxatini tuzing.

## YIGIRMANCHI DARS

### MAVZU: OMMABOP VA ILMIY USLUB

**Bilib oling.** Ommaviy axborot vositalari uslubi publitsistik uslub sanaladi. Bu uslubning muhim xususiyati axborot berish va ta'sir qilish bo'lib, soddalik, tushunarliklik, ta'sirchanlik, adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilishdir.

Publitsistik uslubning ham og'zaki va yozma shakllari mavjud. Radio-televide niye uslubi publitsistik uslubning og'zaki shakliga, gazeta, jurnal uslubi esa yozma shakliga xosdir.

Ommabop uslubda nutqning obrazlilligi barqaror xarakterga ega bo'ladi. Istiora, epiteta, o'xshatish, mubolag'a, kesatq kabi his-tuyg'iga ta'sir etuvchi vositalar umumxalq tilidan olinadi.

Ommabop uslub kitobiy-yozma nutqning sintaktik me'yoriy qoidalariga asoslanadi. Bayonning keng va mufassal bo'lishi ommabop uslub uchun xarakterli bo'lgan xususiyatlardan biridir.

**1-topshiriq.** Matnni o'qing, publitsistik uslubga xos bo'lgan so'zlarni toping. Siz ham bahorgi ishlar haqida kichik hikoya yozing.

Bu yil bahorni juda-juda sog'indik. Ayniqsa, yanvarning izg'irinli, ayozli kunlarida ko'klamning qadri juda bilindi. Mana, bobo quyosh charaqlab, kunlar iliy boshladi. Ona zamin qish uyqusidan uyg'ondi. Odamlarning bahri dili ochilib, kayfiyatlari ko'tarilib, bahorgi tashvishlarga sho'ng'ib ketishdi. Hammaning niyati yaxshi, ularni qulay imkoniyatdan foydalanish istagi chulg'ab olgan.

Dehqonlar yerdagi namlikdan, tog'dagi qor zaxirasidan xursand— bu yil obi hayot mo'l bo'lishidan umidvor. Dalalar esa xamirturushdek ko'pchib turibdi. Dehqon yerga tezroq baraka urug'ini qadash umidida yonmoqda. (I.Normatov)

**1-topshiriq. Matnni o'qing. Qanday nutq uslubiga xos ekanligini aniqlang.**

Tobe so'zning hokim so'z talabiga ko'ra ma'lum kelishik qo'shimchalari yoki ko'makchi bilan kelishiga boshqaruv deyiladi.

(G'. Abdurahmonov)

**3-topshiriq.** «Tabiatni asrang» mavzusida publitsistik uslubda matn tuzing.

1.Qanday uslubga publitsistik uslub deyiladi?

2.Publitsistik uslubning qanday shakllarini bilasiz?

3.Publitsistik uslubning muhim xususiyati nimalardan iborat?

**4-topshiriq.** Matnni o'qing, mazmunini so'zlab bering. Uning qaysi nutq uslubiga mansubligini va o'ziga xos uslubiy vositalarini aniqlang.

Ultra tovushlar kashf etilgunga qadar har qanday tovushni qabul qilish vositasi insonning eshitish a'zosi bo'lgan quloq deb hisoblangan.

Tovush to'lqinlarining vujudga kelishi va tarqalishi bilan bog'liq hodisalar akustik hodisalar deb yuritiladi.

Hozirgi paytda tovushning havodagi tezligi normal sharoitda 33 m/sekundga teng bo'lsa, suvdagi tezligi 1500 m/sekund, po'latda esa 6000 m/sekund ekanligi o'lchov asboblari yordamida isbotlangan. («Tilshunoslik va tabiiy fanlar»)

**5-topshiriq. Matnni o'qing va so'zlashga tayyorlang.**

Ommaviy axborot vositalari har doim jamiyat taraqqiyotining ko'zgusi, kishilarning ongi, dunyoqarashi, siyosiy saviyasining shakllanishida asosiy vositalardan biri bo'lib kelgan. O'tgan davrda barcha sohalar qatori OAV uchun ham serqirra rivojlanish davri bo'ldi. Istiqloлга erishganimizdan so'ng, birinchi navbatda, sohaning huquqiy bazasiga e'tibor qaratildi va rivojlangan davlatlar tajribalarini o'rganish boshlandi. Ommaviy axborot vositalarining xalqaro huquqiy asoslari bu «Inson huquqlari xalqaro umumjahon deklaratsiyasi, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt», O'zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlar va boshqa davlatlar bilan axborot siyosatiga doir tuzgan bitim va shartnomalari hisoblanadi. Mazkur huquqiy hujjatlar axborotni izlash, olish, tarqatish jarayonlari va ommaviy axborot vositalari faoliyatini bevosita yoki bilvosita tartibga soluvchi normalardir.

Mustaqillik yillarida ommaviy axborot vositalari faoliyatini tartibga soluvchi quyidagi qonunlar qabul qilindi:

- «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi Qonun (2007-yil 15-yanvar');
- «Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida»gi Qonun (1997-yil 24-aprel);
- «Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida»gi Qonun (1997-yil 24-

prel);

- «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonun (2002-yil 12-dekabr);

- «Noshirlik faoliyati to‘g‘risida»gi Qonun (1996-yil 30-avgust);

- «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida»gi Qonun (2006-yil 20-iyul’);

- «Reklama to‘g‘risida»gi Qonun (1998-yil 25-dekabr);

- «Axborotlashtirish to‘g‘risida»gi Qonun (1993-yil 7-may);

- «Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida»gi Qonun (1999-yil 20-avgust).

O‘zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari huquqiy bazasini yaratilishida Respublikamiz Konstitutsiyasiga asosiy manba sifatida tayanildi. Konstitutsiyamizning 67-moddasida «Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to‘g‘riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo‘l qo‘yilmaydi» deb belgilab qo‘yilgani ommaviy axborot vositalarining mutlaq qonuniy erkinligining kafolati hisoblanadi.

Ushbu qoidaga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi «Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida»gi Qonunining 7-moddasida «O‘zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarini senzura qilishga yo‘l qo‘yilmaydi. E‘lon qilinayotgan xabar va materiallar oldindan kelishib olinishini, shuningdek, ularning matni o‘zgartirilishini yoki butunlay nashrdan olib qolinishini (efirga berilmasligini) talab qilishga hech kimning haqqi yo‘q» deb ko‘rsatib qo‘yildi.

**Bilib oling.** Daliliy ma’lumotlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalarga asoslanuvchi, har bir fan sohasining o‘ziga xos atamalariga tayanuvchi, fikrni aniq va mantiqiy izchil shaklda bayon qiluvchi uslub ilmiy uslub sanaladi.

**6-topshiriq.** Matnni ko'chiring. Qaysi nutq uslubiga mansub ekanligini va o‘ziga xos uslubiy vositalarini aniqlang.

Atomlar kimyoviy bo‘linmaydigan zarralardir.

Bir xil turdagi atomlardan tashkil topgan moddalar oddiy moddalar deyiladi. Ularga vodorod va kisloroddan tashqari grafit, oltingugurt; barcha turdagi metallar: temir, mis, magniy va boshqalar kiradi.

Har xil turdagi atomlardan tashkil topgan moddalar murakkab moddalar deyiladi. Suv, karbonat angidrid, mis (11) oksidi shular jumlasidandir.

(“Kimyo» darsligidan)

## YIGIRMA BIRINCHI DARS

### MAVZU. TIL VA TERMINOLOGIYA

**Bilib oling.** Termin grekcha terminus soʻzidan olingan boʻlib, “chek, chegara” degan maʼnoni bildiradi. U fan-texnika, qishloq xoʻjaligi, sanʼat va madaniyat sohasiga xos soʻz hisoblanadi. Terminologiya - terminlar haqidagi taʼlimot va terminlar majmui degan maʼnolarni anglatadi. Termin soʻzi oʻrnida baʼzan atama, istiloh soʻzlarini ishlatish hollari uchray turadi. Ammo bu toʻgʻri emas. Atama termin soʻziga nisbatan tor tashunchani ifodalaydi. Istiloh soʻzi esa arabchadir. Terminologiya masalalari hamisha tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri boʻlib kelgan. Chunki terminlarning sohalari lugʻaviy qatlamlaridagi oʻrni va vazifasini belgilash, tushunchaning mazmun-mohiyatini toʻgʻri anglash imkonini beradi. Terminologiyaga bagʻishlangan ishlarning barchasida u yoki bu sohaning muayyan tushunchalarini anglatadigan, definitsiyaga ega boʻlgan va, asosan, nominativ funktsiyani bajaradigan birliklar termin hisoblanadi deb qaraladi. A.Reformatskiy terminga taʼrif berar ekan, “... terminlar – bu maxsus soʻzlardir” degan xulosaga keladi. A.V.Kalinin muayyan fanlar va kasbkorlikda ishlatiladigan soʻzlarni “maxsus leksika” deb ataydi va uni ikki guruhga ajratadi. 1. Maxsus leksikaga, birinchi navbatda, terminlar kiradi. 2. Maxsus leksika tarkibiga terminlardan tashqari professionalizmlar ham kiradi. Termin bilan professionalizmlar oʻrtasidagi farq shuki, termin bu muayyan fan, sanoat sohasi, qishloq xoʻjaligi, texnikadagi tamomila rasmiy boʻlgan, qabul qilingan va qonunlashtirilgan biror tushunchaning ifodasidir, nomidir, professionalizm esa biror kasb, mutaxassislik, koʻpincha jonli tilda tarqalgan, aslini olganda, tushunchaning qatʼiy, ilmiy tavsifiga ega boʻlmagan yarim rasmiy soʻzdir”. H.Jamolxonov: “Terminlar fan-texnika, adabiyot, sanʼat va boshqa sohlarga oid ixtisoslashgan, qoʻllanishi muayyan soha bilan chegaralangan tushunchalarni ifodalaydigan nominativ birliklardir: gulkosa, shona (botanikada); toʻrtburchak, kvadrat (geometriyada); ega, kesim (tilshunoslikda); qofiya, turoq, vazn (adabiyotshunoslikda) kabi .

**1-mashq.** Tushirib qoldirilgan unli harflarni oʻz oʻrniga qoʻyib, soʻzlarni qaysi sohaga tegishliligiga koʻra ajratib yozing.

1. Notarius, ...bligatsiya, ...rganizm, ...rol, p...rtret, pr...spekt, pr...tokol, r...mantik, t...lkon, t...mat, f...ntan, sh...fer, b...rona, v...jatiy, v...ronka, g...rizont, d...klad, d...mino, d...tsent, kisl...rod, kisl...ta, k...llevktiv, k...lorit, k...manda, k...mbayn, k...meta, k...mitet, k...mpot, k...nspekt, k...nfet, k...ntsert, lab...rant, m...zaika, m...n...lit, m...ntaj, m...-totsikl, n...vator, n...rmal.

2. Uch...n, but...n, ul...sh, turg...n, tuz...m, turm...sh, tug...n, turk...m, uyk..., tuyg..., ud...m, uz...m, ) Gʻz...nlik, uz...nchok, uyk...chan, ung...r, un...tuvchan, ust...n, uch...k, uchk...r.

3. D...lar, d...mna, d...nor, zav...d, z...na, z...nt, kal...riya, kart...n, k...lba, k...mik, nas...s, n...rma, ...braz, ...blast, ...krug, ...rgan, ...rden, s...da.

4. B...xo, b...xona, b...xor, v...bo, v...gon, g...vda, g...vjum, g...vxar, d...vlat, d...vomat, d...vron, z...l, zur...von, m...vj, m...bodo, n...vbat, n...vkiron, n...moyon,

nak...rot, n...xor, t...mom, x...votir, x...vf, x...vaskor, X...vza, x...vo, sarl...vxa, xash...rot.

**2 -mashq.** So'zlarni avval chapdan ungga o'qilishiga qarab, so'ng ungdan chapga qarab ma'nosini va qaysi sohaga tegishli ekanligini izohlang.

Ko'p, siz, shod, arava, bez, kirib, dush, ibo, kul, tosh, mosh, nok, top, madad, jig', narsa, sal, tilak, tuf, sur, fan, biri, mato, kit, nos, tirik, sur, ilon, loy, kech, adad, ado, toza. allo, mol, nam, amal, amin, omma, kora, aslo, matox, lab, bit, tub, dada, kod, gijim.

**3-mashq.** O'qing. 1) Avval sirg'aluvchi, so'ngra, qorishiq j undoshini ifodalovchi harf ishtirok etgan so'zlarni ikki ustunga ajratib yozing. 2) Ularni qaysi sohaga tegishli ekanligini izohlang.

Jabr, jabra, jadval, janr, jangovar, jargon, jasur, gijda, jamoat, anjir, abajur, ajablanmoq, ajdargul, ajriq, gijja, dyujina, daraja, javob, jadval, jandarm, jemper, jingalak, jirafa, jumla, jurnalist, jurnalxon, juyak, juft, zanjir, zajigalka, zotiljam, ijozat, ijobiy, injener, iskanja, kenjatoy, kinorejissor, mavj, majlis, morj, natija, passajir, projektor, reja, rejim, sabotajchilik, tajriba, tarjima, falaj, xorijiy, shajara, o'lja, gijim.

**4-mashq.** Matnlarni o'qing, terminlarni aniqlang va qaysi sohaga oidligini izohlang.

I. Bakteriya hujayralari massasining asosiy qismn oqsil va nuklein kislotalaridan hosil bo'lgan sitoplazma va yadrodan iboratdir. Oqsillar juda murakkab organik moddalar bo'lib, ularning molekulalari yuz va minglab atomlardan tuzilgandir. Oqsillar tarkibiga uglerod, vodorod va kislorodlardan tashqari azot, oltingugurt va ba'zan fosfor ham kiradi. (K. E. Sharikov.)

II. Alisher Navoiy katta badiiy va ilmiy asarlari qatorida maxsus lingvistik asar yozganligi barchaga ma'lum. Navoiy eski o'zbek tilining morfologiyasini yaxshi analiz qildi. Masalan, u fe'lning o'zlik, orttirma va birgalik nisbatlarini, ravishdosh shaklini, ko'makchi fe'l yordamida tuzilgan murakkab fe'llarni, sifatning orttirma darajasini va kuchaytirma shakllarini, ayrim so'z yasovchi affikslarning ma'nolarini ko'rsatib, ularni misollar bilan izohlab beradi. Navoiy eski o'zbek adabiy tilining fonemalariga, ayniqsa, unlilariga ham ahamiyat berdi. (S. Usmonov.)

### **Mavzuni o'rganib, quyidagi topshiriqlarni yozma shaklda bajaring.**

1. O'zbek terminologiyasining taraqqiyot bosqichlarini qisqacha tushuntiring.

2. Tilning lug'at tarkibi haqida ma'lumot bering.

3. Sohaviy lug'atlarda terminlar qanday ifodalanishi haqida ma'lumot bering.

## YIGIRMA IKKINCHI DARS

### MAVZU. O‘ZBEK TILI LEKSIKOGRAFIYASI

#### 1. Quyidagi nazariy ma’lumotni o‘rganing.

Tildagi jamiki soʻzlar, ularning izohi, tarixi, imlosi, boshqa tillarga taijmasi kabi masalalar bilan lugʻatshunoslik (leksikologiya va leksikografiya) fani shugʻullanadi. Mukammal tuzilgan lugʻatlar tilning boyligini, millatning aqliy, madaniy saviyasini koʻrsatadi.

Lugʻatlar ikki turli boladi: Umumiy lugʻatlar. Filologik lugʻatlar

Umumiy lugʻailarga qomusiy (ensiklopedik) lugʻatlar, izohli lugʻatlar kiradi.

Leksikografiya – ya’ni lugʻatshunoslik har qanday xalqning betakror milliy boyligidir. Zamon va makon ta’sirida tilning lugʻat boyligi doimiy ravishda rivojlanib boradi. Hayot, turmush tarzi taraqqiyot va kashfiyotlar yangi-yangi soʻzlar, tushunchalarni dunyoga keltiradi, ba’zi soʻzlar esa eskirib iste’modan chiqadi. Ana shunday dinamik rivojdagi bebaho boylikni oʻz vaqtida tarix zarvaraqlariga muxrlash, tilning oltin sahifalarini durlash bilan toʻldirib borish faqat matonatli, zahmatkash, fidokor tilshunos siymolargagina nasib etadi. Bunday buyuklarning nomi abadiy hurmatda boʻladi.

Buning yorqin isboti uchun bobomiz Mahmud Koshgʻiy qariyb 1000 yil ilgari yaratgan turkiy tillar tahliliga bagʻishlangan “Devonu lugʻatit turk” asari barcha turkiy xalqlarning betakror boyligi hisoblanadi. Mahmud Koshgʻariyning nomi esa tarix sahifalariga abadiy muxrlandi.

Darvoqe, til lugʻat boyligining nisbatan toʻliq tahlili faqat lugʻatlar orqali amalgam oshirilishi mumkin. Lugʻatlar tuzishning nazariy va amaliy sohalari bilan shugʻullanuvchi fan leksikografiya deb nomlanadi.

Leksikografiya - grek tilidan olingan boʻlib, lexicon – soʻz, grapho - yozaman, ya’ni soʻzni izohlash, ifodalash ma’nosini beradi.

Dunyo leksikografiyasi ming yillik tarixga ega boʻlsa-da, uning asosiy rivoji keyingi ikki-uch asrga toʻgʻri keladi. Ilk bor oz sonli soʻzlar va iboralardangina tashkil topgan qoʻl yozmalardan boshlangan lugʻatlar hozirgi kunga kelib tillarning yuz ming soʻzlarni oʻz ichiga olib, minglab adadda chop etilmoqda. Keyingi yillarda leksikografiyaning faqatgina amaliy tomoni emas, balki nazariy yoʻnalishi, obykti, predmeti shakllandi. Lugʻat tuzish nazriyasi, amaliyoti tilshunoslikning mahsus sohasiga aylandi. Lugʻatshunoslik tilshunoslikning mana shunday oʻta mashaqqatli, oʻta masulyatli sohasi boʻlganligi sababli ushbu savobli yoʻnalish bilan yetuk, fidokor, millatparvar olimlar shugʻullanmoqdalar.

Eski oʻzbek tili boʻyicha yaratilgan lugʻatlar hozirgi oʻzbek adabiy tilining taraqqiyotida juda muhim oʻrin tutadi. Hozirgi oʻzbek adabiy tilining asosi shu davrdan boshlab oʻz oʻrnini topa boshlagan. Yana bir yurtdoshimiz Mahmud Zamahshariy oʻzining “Asos ul balogʻa” asari va “Muqaddimat ul-adab” (XII asr) deb nomlangan toʻrt tilli (arab, fors, oʻzbek, moʻgʻul) lugʻati bilan ham amaliy, ham nazariy leksikografiya rivojiga katta hissa qoʻshdi. XIII asrda esa “At-tuhfatuz zakiyati fil-lugʻtit-turkiya” deb nomlangan noyob lugʻatlardan biri yaratildi.

Alisher Navoiy ijodiga bo'lgan katta qiziqish XV asrdan keyingidavrda buyuk shoir asarlari tili, umuman eski o'zbek tili bilan bir qancha lug'atlarning yaratilishiga sabab bo'ldi: T ole Imoni Hiraviyning "Badoe ul- lug'at"(XV asr) nomli chig'atoycha-forscha lug'ati, "Abushka" nomli mashhur bo'lgan chig'atoycha-turkcha izohli lug'at (XVI asr, Turkiya), Muhammad Yoqub Chingiyning "Kelurnoma" deb nomlangan o'zbekcha- forsha lug'ati(XVII asr), Muhammad Rizo Xoksoning "Muntahab ul- lug'at" nomli izohli lug'ati(XVIII asr), Mirzo Mahdiyxonning "Sangloh" nomli chig'atoycha- forsha lug'ati (XVIII sar), Sulaymon Buxoriyning "Lug'ati chig'atoy va turki usmoniy" ( XIX asr) kabi va boshqa lug'atlar shu jumladandir. Sharqshunoslik va turkiyshunoslik fanlarining rivojlanishi tufayli an'anaviy lug'atchilik bilan bir qatorda XIX asr 2-yarmidan yangicha yo'nalishdagi o'nlab ruscha- o'zbekcha, o'zbekcha-ruscha va umuman turkey tillar leksikasini izohlovchi lug'atlar ham paydo bo'la boshladi. Bu jihatdan L.Z. Budagovning ikki jildli "Сравнительный словарь турецко-татарских наречий" ("Turkiy lahjalarning qiyosiy tug'ati"). V.V.R adlovning 4 jildli "Опыт словаря тюрских наречий" ("Turkiy laxjalar lug'ati tajribasi",СПБ, 1893-1911) V.P.Nalivkin va M.Nalivkinalarning 1884-1912- yillarda bir necha marta nashr etilgan "Русско- сартовский и сартовско- русский словарь" (ruscha –sortcha va sartcha- ruscha lug'ati) kabi lug'atlar diqqatiga sazovordir.

O'zbek lug'atchiligi tarixida XX asr alohida o'rin tutadi. Bu davrda turli maqsadlarni ko'zda tutgan ko'plab terminalogik lug'atlar, o'quv va imlo lug'atlari, ikki va uch tilli so'zlashgichlar yaratildi. Bunda ayniqsa, ruscha-o'zbekcha va o'zbekcha- ruscha, shuningdek o'zbek tilini boshqa yevropa va xorijiy sharq tillari bilan qiyoslab o'rganishga mo'ljallangan lug'atlar alohida o'rin tutadi. Ularning eng muhimlari sifatida E.D.Polivanovning "Qisqacha ruscha-o'zbekcha lug'at"i (Toshkent, Moskva,1926), Ashurali Zohiriyning 2jildli "Ruscha-o'zbekcha mukammal lug'ati" (34 ming so'z; Toshkent 1927-28), K.K.Yudaxinning "Qisqacha o'zbekcha-ruscha lug'ati"(arab grafikasida, Toshkent 1927), U.Axmadjonov va B.Ilyozovning "O'zbekcha-ruscha lug'at"i (lotin grafikasida, Toshkent 1931), S.Rahmatiy va Abdulla Qodiriylarning "Ruscha-o'zbekcha to'la so'zlik" (2-jild, 34 ming so'z; Toshkent- qozon,1934, lug'atning 1-jildi nashr etilmay qolgan), V.V.Reshetovning" Qisqacha o'zbekcha-ruscha lug'ati"(Toshkent, 1935) kabilarni ko'rsatish mumkin. 40-yillarning boshlarida 17-ming so'zli "O'zbekcha – ruscha lug'at" (Toshkent 1941) va 30 ming so'zli "Ruscha - o'zbekcha lug'at" (Toshkent 1942) yaratildi va nashr etildi. Professor T.N.Qori-Niyoziy va professor A.K.Borokovlar tahriri ostida tayyorlangan ushbu lug'atlar so'zligining tarkibi jihatidan ham, lug'at maqolalarining to'laligi jihatidan ham avval nashr etilgan lug'atlardan ancha mukammal edi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti leksikograflarining respublikadagi tajribali tarjimonlar bilan hamkorlikda yaratgan 5 jildli "Ruscha-o'zbekcha lug'at"ning bosilib chiqishi (78 ming so'z Toshkent 1950-55), 50 ming so'zli 1 jildli "Ruscha - o'zbekcha lug'at" (M. 1954) va 40 ming so'zli 1 jildli "O'zbekcha - ruscha lug'at" (M. 1959) kabi lug'atlarning nashr qilinishi o'zbek leksikografiyasining tarixida muhim voqea bo'ldi. Mazkur lug'atlar, ayniqsa, 1959 - yilda nashr etilgan "O'zbekcha - ruscha lug'at" o'zbek tilining dastlabki, birinchi izohli lug'ati tuzish

uchun asos bo'ldi va uning ilmiy bazasini yuzaga keltirdi. Ushbu lug'atlarda o'zbek leksikografiyasining tajribalari umulashtirilgan, hozirgi zamon o'zbek tilining leksik- semantik tizimi va XX asrda shakllangan meyorlari birinchi marta keng tavsif etilgan edi.

Bu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, o'zbek tilining turli tarixiy davrlariga, turli funksional uslublariga oid bitmas-tuganmas so'z boyligini to'la-to'kis qamrab olish uchun ma'lum xronologik chegaralarga ega bo'lgan, aniq maqsadga mo'ljallangan lug'atlar tuzish taqozo etiladi. Masalan, Alisher Navoiy va boshqa mumtoz shoirlarning asarlarini o'qish uchun mahsus lug'at zarur, chunki eski o'zbek tili hozirgi o'zbek adabiy tilidan lug'at tarkibi jihatidan ham, grammatik qurilishi jihatidan ham sezilarli farq qiladi. Bunday lug'atlar tuzilgan va nashr etilgan ham. Masalan, P.Shamsiyev va S.Ibrohimovlarning "Navoiy asarlari lug'ati" (Toshkent 1972). Bu lug'at birinchi marta 1953 - yilda "o'zbek klassik adabiyoti asarlarini o'qish uchun qisqacha lug'at" nomi bilan nashr etilgan edi. 1983-1985- yillarda esa professor E.I.Fozilov rahbarligida shoir asarlari tilining 4 jildli ancha mukammal lug'ati nashr etildi.

O'zbek tili leksikasi, hatto XX asrning o'zini olib qaraganda ham, tarkib jihatidan bir xil emas. Unda ayrim mualliflar tomonidan ishlatilgan, lekin hali o'zbek adabiy tiliga kirib ulgurmagan, shuningdek, shevalarga oid so'zlar ham anchagina. Bundan tashqari O'zbekistonda qadimdan rivijlangan kasb- hunarlarga oid, faqat hunarmandlar o'rtasida ishlatiladigan leksika yoki XX asrda o'zbek tili paydo bo'lgan son-sanoqsiz ilmiy-texnikaviy terminlar borki, bularning hammasini bitta lug'atga sig'dirib bo'lmaydi. Ayni shu sababli kasb-hunar, sheva lug'lari, terminalogik lugatlar tuzish tajribasi ham mavjud. Bu jihatdan S.Ibrohimovning 3 qismli "Farg'ona shevalarining kasb-hunar leksikasi" lug'ati (Toshkent 1965; 2-nashri 1972), akademik Sh.Sh.Shoabdurahmonov tahriri ostida nashr etilgan "O'bek xalq shevalari lug'ati" (Toshkent 1972), Olim Usmon rahbarligida tuzilib nashr etilgan "Ijtimoy-siyosiy terminlar lig'ati" (Toshkent, 1976) va boshqa o'nlab lug'ati e'tiborga loyiq.

## **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR**

1. Leksikografiya nima va u fan sifatida nimani o'rganadi?
2. Lug'atlarning qanday turlari bor?
3. Eski o'zbek tili bo'yicha yaratilgan qanday lug'atlarni bilasiz?
4. O'zbek lug'atchiligi tarixida XX asr qanday o'rin tutadi?

## YIGIRMA UCHINCHI DARS

### MAVZU: UMUMIY VA MAXSUS LUG'ATLAR

#### 1. Quyidagi nazariy ma'lumotni o'rganing.

So'zlarning ma'lum maqsad bilan to'plangan tartibga solingan kitob yoki boshqa shakldagi to'plami lug'at deyiladi. Lug'atlar turli maqsadlarga tuziladi. Ko'zlangan maqsad jihatidan lug'atlar 2 xil bo'ladi.

1. Ensiklopedik (Qomusiy) lug'atlar.

2. Lingvistik lug'atlar.

Har ikki tur lug'at o'rtasidagi o'xshashlik quyidagicha.

a) lug'at maqolalarining vokabulasiga asosan, leksema chiqariladi;

b) leksemalar qatori alifbo tartibda joylashtiriladi.

Bular faqat tashqi yuzaki o'xshashlikdir. Aslida lug'atning bu ikki turi o'z maqsadiga ko'ra va maqolalarning tuzilishiga, mundarijasiga ko'ra tubdan farq qiladi.

Ensiklopedik (qomusiy) lug'atlarda texnik va madaniyatning barcha sohalariga oid tushunchalar izohlanadi. Ularda tabiat hodisalari, ijtimoiy hayotdagi voqealar, mashhur kishilar chiqishining ko'rsatish bilan chegaralaniladi. Shuning uchun bunday lug'atlar tushuncha lig'ati deb yuritiladi. Bunday lug'atlarda odatda, rasmlar, karta va sxemalar ham keltiriladi.

Ensiklopedik lug'atlarda so'z va iboralar alfavit tartibda maqolaning sarlavhasi sifatida qo'yiladi. Ensiklopedik lug'atlar ham maqsad va vazifasiga ko'ra 2 xil bo'ladi: umumiy ensiklopedik lug'atlar va biror sohaning ensiklopedik lug'ati. Ensiklopedik lug'atlar Sharqda "Qomus", G'arbda esa "thesaurus" deb ham yuritilgan.

Lingvistik lug'atlarda lug'at boyligi aks ettiriladi. Bunday lig'atlar asosiy maqsad leksema va frazeomalarning semantik mazmunini tavsiflashdir. Bundan tashqari, grammatik va fonetik ma'lumot qisman keltiriladi. Lug'at maqolasining asosiy qismini leksik ma'nolarning talqini egallaydi. Bunda so'zning bosh ma'nosi haqida fikr yuritiladi, agar, lozim topilsa, shu ma'noning ishlatilishini aks ettiruvchi misol keltiriladi, so'ngra bu so'zning hosila, ko'chma ma'nolari tasvirlanadi. Bunday ma'nolarning tasvirida misollar keltirish shart, chunki ularni anglash uchun konteks talab qilinadi.

Leksik ma'noni tasdiqlovchi nutq parchalari odatda badiiy va boshqa adabiyotlardan olinadi. Agar leksik ma'nolar ma'lum sistema bo'yicha to'plangan misollar yordamida izohlansa, bunday lug'atning qiymati yuqori bo'ladi. Chunki bunday ish tutishda lug'at boyligini obyektiv tasvirlashga erishiladi. Lug'atlarda so'z va frazemalar ikki xil joylashtiriladi.

Birinchisi yagona alfavit tartibda joylashtiriladi. Masalan, bir o'zakdan yasalgan so'zlar bir joyga to'planadi va o'zaro yasalishiga qarab alfavit tartibda joylanadi. Ikkinchisi, frazeomalar tematikasiga ko'ra joylashtiriladi.

**Lingvistik lug'atlar va ularning turlari.** Lingvistik lug'atlar turli maqsadlarda tuziladi va ularning turlari ham ko'p. So'zning biror sohaga oid

leksikasi bilan adabiy til leksikasining ma'lum qatlam bilan chegaralanganligi va chegaralanmaganligiga ko'ra lug'atlar dastlab ikkiga bo'linadi:

1. Umumiy lug'atlar.

2. Maxsus lug'atlar.

Umumiy lingvistik lug'atlarda hamma qo'llaydigan so'zlarning xarakteristikasi beriladi. Bular bir tilli, ikki tilli, ko'p tilli bo'ladi. Bir tilli lug'atlarning ham umumiy va maxsus tiplari bor. Masalan, izohli lug'at, imlo lug'ati, sinonimlar lug'ati, frazeologik lug'at, dialektal lug'at maxsus lug'atlar tipiga kiradi.

**Izohli lug'atlarda** lug'aviy birliklarning ma'nosi izohlanadi. Agar lig'aviy birlik ko'p ma'noli bo'lsa uning barcha ma'nolari belgilanadi va har bir ma'nosi izohlanadi. Umumiy izohli lug'larda so'zlarning ma'nosi izohlanadi, ularning Grammatik, stilistik, frazeologik iborada qatnashishi kabi belgi xususiyatlari ko'rsatiladi. Lug'aviy birlikning ma'nosi izohlanadi shunga misol keltiriladi. Izohli lug'atlarga quyidagi lug'atlarni misol qilib keltirish mumkin.

O'zbek tilining yangi izohli lug'ati, yangi tahrirda chiqarilgan, O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot institute "O'zbek tilining izohli lug'ati" 5 jildli bo'lib, 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasini o'z ichiga oladi. O'zbek tilining ushbu izohli lug'ati keng xronologik doirada o'zbek tilining butun so'z boyligini emas, balki hozirgi zamon o'zbek tilining keng iste'moldagi so'z boyligini to'plash va tavsiflashni o'ziga maqsad qilib qo'yadi. Chunki o'zbek tili XX asrning 2-yarmida, xususan, keyingi o'z yilda yangi- yangi so'zlar so'z shakllari va ifoda vositalari bilan boyidi shu bilan birga, sifat jihatidan ham ancha o'zgardi.

Shunday qilib, lug'atning asosiy vazifasi hozirgi o'zbek adabiy tilining so'z boyligini to'plash va tavsiflash bilan birga uning meyorlarini belgilash va barqarorlashtirishdan iboratdir. Ayni zamonda u nutq madaniyatining yuksalishiga ham xizmat qiladi.

O'zbek tilining ushbu izohli lug'atini tuzishga kirishishdan oldin katta tayyorgarlik ishlari olib borildi. Badiiy adabiyot namunalariga tayanib, lug'atning leksik asosi - lug'at kartotekasi fondini to'ldirish va boyitishga alohida e'tibor berildi. Chunki tilning boyligi va meyorlari, avvalo, so'z ustalarining asarlarida aks etadi, sayqal topadi. Natijada kartoteka fondida Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Haza Hakimzoda Niyoziydan boshlab to shu kungacha bo'lgan o'zbek yozuvchilari asarlaridan hamda o'zbek tilida nashr etilgan ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-tehnika, diniy- falsafiy, ilmiy-ommabop asarlar, darsliklardan, vaqtli matbuot va qisman boshqa tillardan o'zbekchaga qilingan tarjimalardan olingan uch millionga yaqin misol-kartochka to'plandi.

**Adabiy**-vaqt e'tibori bilan ohiri yo'q; mangu, doimiy . Adabiy hayot. Adabiy hotira. – Shaharlarning nomi abadiy. Bu nomlarni qo'ygan el ulus. Maqsud Shayxzoda.

**Abiturient** – [ lot. Abituriens, abiturientis- ketmoqchi bo'lgan kishi] 1) O'rta maktabni bitirayotgan o'quvchi 2) Oliy yoki o'rta maxsus o'quv yurtiga kirish uchun da'vogar.

Imtihonlarni boshlashdan avval qur'a tashlanadi. Biletlarni olish uchun abituriyentlardan to'rt kishi chiqariladi. Gazetadan.

**Afv**- [gunohidan o'tish, kechirish] kt. Kechirim uzr. Sizdan bu ulug' gunohim uchun afv so'rab, xaydalgan o'g'lingiz –Otabek Yusufbek hoji o'g'li. Abdulla Qodiriy, "O'tgan kunlar".

**Afv etmoq**- (yoki qilmoq) Kechirmoq, uzrni qabul qilmoq, gunohidan o'tmoq. Bu lapashangligimiz uchun rahnamalarimiz bizni afv eturlarmi? G'ulom, Mash'al.

**Afv etasiz**-Kechirasiz (odatda so'zlovchi gap boshida olingan uzr so'rab ishlatiladi) [Saidbek] Afv etasiz, siz buni qayoadan bilasiz, general janoblari? K. Yashin, M. Rahmon, Sirdaryo.

**Auditoriya**- [lot. Auditorium-tinglash joyi] 1. Mashg'ulot, ma'ruza (doklad) va sh.k. O'tkaziladigan xona, bo'lma. Auditoriyada olingan bilim bilan cheklanmaslik kerak, albatta. Gazetadan.

2. Mashg'ulot, ma'ruza va sh.kni tinglovchilar shuningdek, radiotinglovchilar va teletomashabinlar.

**Vojib**-[zarur, kerakli, majburiy; majburiyat, burch] 1. din. Har bir musulmonga payg'ambar tomonidan buyurilgan, bajarilishi majburiy, zarur bo'lgan amal turi. Uch xil amal bordirki ular harbir mo'min zimmasiga vojibdir. "Fan va turmush".

2. s.t. Bajarilishi majburiy [Barnogul:] Amri podsho vojib hech kim tarki vojib qilolmaydi. "Orzugul" Biz do'konni yopish xususida amri farmon bergan edik. Yo bizning amrimiz senga vojib emasmu? S.Siyoyev, Avaz.

**Imlo lug'atlari**. Bu turdagi lug'atlarga kirgan so'z va iboralarning izohi ham, tarjimai ham bo'lmaydi. Bunday lug'at so'zlarning yozilishini imlo qoidalarini o'z ichiga oladi. Tillardagi hamma so'zlarning yozilishini imlo qoidalariga mos kelmaydi. Bu turdagi lug'atlar istisno so'zlarning orfografiyasining aniqlashda ayniqsa qo'l keldi. Imlo lug'atlari hamma uchun birdek ahamiyatlidir.

Imlo lug'atlarining biz uchun ahamiyatli jihati shundaki so'zlarni to'g'ri talaffuz etishni o'rgatadi. Bunday lug'atlar, asosan praktik maqsadda tuziladi.

Imlo lug'atlarga misol tarzida quyidagilarni ko'rsatish mumkin. S.Ibrohimov, M.Rahmonovlarning 1956-yilda nashr etilgan "Imlo lug'ati"ni, S.Ibrohimov, E.Begmatov va A.Ahmedovlarning "fan" nashriyoti tomonidan 1976-yilda nashr etilgan "O'zbek tilining imlo lug'ati", Shavkat Rahmatullayev, Azim Hojiyevlarning "O'bek tilining imlo lug'ati" Toshkent 1995. To'lqin To'g'ayev, Gulbahor Tavaldiyeva, Muyassar Akromova, Karim Nazarovlarning "O'zbek tilining krill va lotin alifbolaridagi imlo lug'ati" (Toshkent 2004.) ni olib qaraydigan bo'lsak, ushbu lug'at kirillcha va lotincha o'zbek alifbolarida tuzilgan bo'lib, ayni bir so'z har ikki yozuv shaklida yonma-yon berildi.

Lug'at kirillcha – lotincha o'zbek yozuvi tamoyilida tuzilganligi sababli, so'zlar o'zbek kirill alifbosi tartibida ifoda etildi. Davlat tilini o'rganishning ahamiyati ortib borayotgan, shuningdek, o'zbek lotin alifbosiga o'tilayotgan hozirgi kunda bu hildagi lug'atlar juda zarur va foydalanish uchun har jihatdan qulaydir. Xususan, yangi o'zbek alifbosi va takomillashgan imloda dastlab savod

chiqarayotgan, ayniqsa, yangi alifbo tartibini, unda o'qish-yozishni hali muhta o'zlashtirmagan kishilarning o'zlariga ma'lum o'zbek kirill alifbosi tartibi bo'yicha ushbu lug'atdan o'zbek lotin alifbosidagi zarur so'zlarni tezroq topishlari va o'rganishlari oson kechadi.

Bunday lug'atdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad so'zlarning har ikki alifboda to'g'ri yozilishini ko'rsatish bilan birga yangi o'zbek yozuvida tezroq savod chiqarishga ko'maklashishdan iborat. Chunonchi, lug'atda so'zlarning kirill va lotin alifbolarida yozilib yonma-yon berilishi ko'rgazmalilik holatini kasb etadi. So'zlarni taqqoslash orqali o'quvchi kirill alifbosidagi harflar yangi alifboda qanday harflar bilan ifodalanishini bilib olishlari ta'limda yaxshi natija beradi. Muhimi, avvalgi va yangi imlo qoidalaridagi tovush va harf munosabatlarining (qaysi harf qaysi tovushni ko'rsatishining), umuman, har ikki imlo qoidalari mazmunining o'zaro uyg'un va farqli tomonlarini ushbu lug'at yordamida qiyoslab o'rganish imkoni tug'iladi.

Lug'atning kirill alifbosidagi qismi rus grafikasi asosida o'zbek yozuvining imlo qoidalariga (1956-yil 4-aprel), yangi alifbodagi qismi esa lotin grafikasi asosida o'zbek yozuvining asosiy imlo qoidalariga (1995-yil 24-avgust) mos holda tuzildi. Binobarin, so'zlarning har ikki alifboda yozilishi grafika jixatidangina emas, ayrim holatlarda avvalgi va yangi imlo qoidalari mazmuniga ko'ra ham farq qiladi.

## **YIGIRMA TO'RTINCHI DARS**

### **MAVZU: SOHAVIY LUG'ATLAR VA ULARDA TERMINLARNING QO'LLANISHI**

#### **1. Quyidagi nazariy ma'lumotni o'rganing.**

**Terminalogik lug'atlar** so'zligi ma'lum bir sohaga xos so'z – terminlardan iborat bo'ladi. Misol uchun O.U.Salimov, Z.S.Ibrohimov, P.R.Ismatullayev, A.S.Karimovlarning "Ruscha - O'zbekcha politexnika atamaları lug'ati". Mazkur lug'atni tuzishda Toshkent davlat texnika universiteti qoshidagi ayrim fakultet va kafedralarda tuzilgan maxsus atamalar lug'atlaridan, jumladan, mashinasozlik, elektrotexnika, energiya, geologiya, konchilik, neft, gez, radiotexnika va elejtronika ixtisosliklari uchun tayyorlangan lug'atlardan keng foydalanildi. Shuningdek, temir yo'l, to'qimachilik va yengil sanoat ixtisosliklarining talabalari uchun tayyorlangan "Ruscha – o'zbekcha atamalar lug'ati" ham nazarda tutildi.

Fan va texnika rivojlangani sari bu sohalarida yangi so'zlar va atamalar paydo bo'lishi tabiiydir: o'tgan davr ichida ko'p so'zlarning ma'nosi o'zgardi, ayrim so'zlarning ma'nosi ravonlashdi, ayrim so'zlar iste'moldan chiqib ketdi yoki boshqa atamalar bilan almashildi.

Natijada yangi atamalarni to'laroq o'zlashtirish hamda o'zbek tilida texnikaning turli sohalariga tegishli adabiyotlar nashr etishni ko'paytirish lozimligi olimlarimiz oldiga yangi "Ruscha-o'zbekcha politexnika atamaları lug'ati"ni tayyorlashdek masalani qo'ydi. Unda texnikaning deyerli barcha sohalariga oid va maxsus mutaxassisliklarga tegishli ruscha so'z va atamalarning tarjimasini berilgan.

Lug'atda hozirgi zamon texnikasining turli sohalariga oid va shu sohalarda, matbuotda va so'zlashuv nutqida ko'p qo'llaniladigan ruscha va chet tillaridan ko'chib o'tgan va so'nggi yillarda o'zbek tilida o'zlashib ketgan hamda ba'zi bir o'zbekcha ekvivalenti topilmagan atamalarining asl matni saqlab qolindi.

Ba'zi ruscha – o'zbekcha atamalarining o'zbekcha ma'nosini to'liqroq ifodalash maqsadida asosiy atama bilan birga bitta yoki bir nechta sinonimlar kiritildi. Agar birorta ruscha atama tegishli sohalarda turli ma'noga ega bo'lsa, bunday atamalar tartib raqami bilan har –xil tarjima tarzida ko'rsatilgan. Masalan, a) ruscha “блок” so'zi uchun o'zbekchada:

1. blok; 2. chig'ir; 3. bo'lak, bo'linma; 4. to'siq kabi so'zlar olingan; b) ruscha “база” so'zi o'zbekchada: 1. baza, asos, negiz; 2. yarim o'tkazgich asboblarda tranzistorning bir eliktrodi; 3. baza – o'qlar orasidagi masofa (avt); 4. baza –narsalar, ashyolar saqlanadigan ombor va h.k.

Agar ruscha atamaning o'zbekcha tarjimasi bir sohaga tegishli ikkita yoki bir necha sinonimlardan iborat bo'lsa, bu sinonimlar vergul bilan ajratiladi:

- 1) migratsiya – siljish, ko'chish;
- 2) дeмpfer – so'ndirgich, tinchlantirgich deb olindi.

Lug'atga yakka so'zli atamalar ko'pincha sifat va otdan iborat bo'lib, amalda ishlatilishiga qarab sifatdan yoki otdan boshlanishi mumkin. Masalan: *алгоритмический язык* –algoritmik til; *двигатель индукционный* – induksion yuritgich.

Lug'atda atamalar asosan birlik sonda berilgan, lekin ba'zi atamalar ko'plikda ham uchrashi mumkin. Masalan, izogirlar, izogonlar neftenlar va b.

Lug'atda ruscha so'z va atamalar rus alifbosi tartibida berilgan.

Lug'atga kirgan atamalarga izoh berilmaydi, ammo ba'zi murakkab atamalarining tarjimalariga juda qisqa izoh tariqasida ko'rsatma beriladi. Masalan,

1. Жиклер – jiklyor, meyoriy purkash tegishi;
2. Ионные связи – minerallarda elementlarning ion bog'lanishi;
3. Грузооборот – vaqt birligida tashilgan yuk miqdori va b.

Lug'atda qabul qilingan yangi yoki kam qo'llanadigan o'zbekcha atamalar dastlabki paytlarda ancha noqulay eshutilishi mumkin. Masalan, tizim, tuzilma, yuritgich. Lekin vaqt o'tishi bilan bunday atamalar o'zlashib ketadi.

## **2. Quyidagi topshiriqlarni bajaring.**

**1-topshiriq.** Matn parchalarini o'qib, ularning qaysi nutq uslubiga xosligini aniqlang. Har bir matnning uslubiy o'ziga xosligini asoslab bering.

I. 7- modda. Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o'zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi. Davlat o'zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta'minlaydi, shu jumladan, unga hamma e'tirof qilgan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga ta'minlaydi.

Yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlis tegishli qo'mitasining roziligi bilan o'zbek tiliga joriy etiladi.

«O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida»gi qonunidan.

II. Notiqlik qadimgi Sharqda juda katta ijtimoiy-siyosiy mavqega ega bo'lib, umumdavlat ahamiyatiga molik ish hisoblangan. U bir necha turga ajratilgan:

1. Ilmiy-siyosiy ma'ruza.
2. Bahs-munozarali nutq.
3. Targ'ib va tashviq qilish ruhidagi nutq.
4. Marsiya nutqi.
5. Tabrik nutqi va boshqalar.

**2-topshiriq.** Gaplarni uslubiy shakliga ko'ra guruhlariga ajratib ko'chiring. Nuqtalar o'rniga nutq uslubiga xos so'z yoki fe'l shaklini qo'ying.

1. Men bu gapni faqat tarjima vajidan aytayotgan... yo'q. Yozuvchi o'z ona tilisi ustiga o'z zamonasining boy, madaniy tilini bilmasdan qanot bog'lamaydi. Buning misolini adabiyotimiz tarixida, hozirgi adabiyotimizda ... ko'rishi... mumkin (A.Q.). 2. Bulardan birinchi..., nutq madaniyati sohasining vazifasi til va nutqdagi nuqson va kamchiliklarni aniqlash..., to'p..., uni o'rgan... va bartaraf etishdan iborat..., deyilgan nuqtai nazar. 3. O'sha «masalang» o'rniga tushsa, dashnom...ga qalqon bo'lishi, loyilla... asablarga suv purkab, seni ortiqcha dilsiyohliklar... asrashi ham mumkin! (O'. Usmonov). 4. Men, Rasulov Anvar, «Eng yaxshi kitobxon» ko'rik-tanlovini o'tkazish... institutimiz kutubxonasidan 10 (o'n) ta badiiy kitob ol...

**3-topshiriq. Yozma nutqingizni rivojlantiring.**

1. "Sohaning vujudga kelishi va rivojlanishi" mavzusida matn tuzing.
2. Kasb taraqqiyoti haqidagi ma'lumotlardan xronologik jadval tuzing.
3. Ish jarayonidagi muloqot vaziyatlarini aks ettiruvchi dialog tuzing.

## **YIGIRMA BESHINCHI DARS**

### **MAVZU. TERMINLARNING YASALISHI**

#### **Mashg'ulot rejasi:**

1. Sohaviy terminlarning morfologik usul bilan yasalishi.
2. Sohaviy terminlarning sintaktik usul bilan yasalishi.
3. Sohaviy terminlarning semantik usul bilan yasalishi.

O'zbek tili terminologiyasi ichki va tashqi manbalar hisobiga boyib boradi. O'zbek tili terminologik tizimlarining rivojlanishi, shakllanishi va takomillashuvida shu tilning ichki imkoniyatlari asosiy rol o'ynaydi. Chunki hayotda aro'y berayotgan ulkan o'zgarishlar, fan va texnika hamda madaniyatning rivojlanishi tilning ichki imkoniyatlaridan maksimal foydalanishni taqozo etadi. Har bir tilda bo'lganidek, o'zbek tilida ham u yoki bu tushuncha ni ifodalash uchun bir qancha usullardan foydalanadilar. Ular quyidagilardan iborat:

1. Terminlarning semantik usul bilan yasalishi.

2. Terminlarning morfologik usul bilan yasalishi.

3. Terminlarning sintaktik usul bilan yasalishi.

### **1. Sohaviy terminlarning morfologik usul bilan yasalishi.**

Morfologik usul bilan termin yasashda o'zakka so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shiladi. Bunday termin yasash o'zbek tilida eng mahsuldor usuldir.

Terminlarni yasashda -gich (-qich, -qich, -kich), -soz, -ma, -lik, -sh(-ish), -lash, -cha, -

chi affikslari faol ishtirok etadi: chang ajratgich, em buqlatgich;

mashinasoz, asbobsoz; moslama, tirkama; temirchilik, mashinistlik; burq'lash,

payvandlash; bakcha, vagoncha; aniqlovchi, to'ldiruvchi kabilar.

### **2. Sohaviy terminlarning sintaktik usul bilan yasalishi.**

O'zbek tili terminologiyasida sodda so'zli terminlarga nisbatan sintaktik usul bilan yasalgan terminlar salmoqli o'rinni egallaydi. Buning sababi shundaki, sintaktik usul bilan yasalgan terminlar barcha tillarda bo'lganidek, o'zbek tilida ham muhim nominativ manba sanaladi.

Ma'lumki, har bir til o'ziga xos grammatik qonuniyatlar asosida ish ko'radi. Terminlar tuzilish material, ya'ni qanday so'zlardan tashkil topganiga qarab bir necha xil bo'lishi mumkin: Ot+ot tipidagi terminlar: samolyot borti, bug' mashina, shamol tegirmon, moy juvoz, temir qopqoq, arava gupchagi, radionin g qulog'i, samolyotning parragi kabilar.

Nisbiy sifat+ot tipidagi terminlar: motorli qayiq, parrakli samolyot, magnetli diska, tirkama plug, halqasimon zichlagich kabilar.

Sifatdosh+ot tipidagi terminlar: o'ta sezgir apparat, sezgir asbob, o'zi yurar mashina, pilla tortadigan avtomat, qirquvchi asbob, yurgizuvchi aravacha kabilar.

### **3. Sohaviy terminlarning semantik usul bilan yasalishi.**

Qator terminologik sistemalarda semantik yo'l bilan termin yasashdan unumli foydalanib keladilar. Chunki semantik so'z yasash terminologiyada amal qilinadigan doimiy va an'anaviy yo'ldir. Terminlarni tekshirish jarayonida qator leksik qatlamlar semantik o'zgarish tufayli terminologik sistemadan joy olishi mumkinligini ko'rsatdi. Ular biror ma'noni ifodalash uchun xizmat qiladigan o'zbek tilining odatdagi so'zlaridir. Ulardan termin sifatida foydalanadilar:

1. Ro'zg'or buyumlari nomlari: qozon, cho'mich, quti, kurak, panjara, pichoq kabilar.

2. Odam yoki hayvon a'zolarining nomlari: barmoq, tirnoq, quloq, bo'g'iz, qanot kabilar.

3. Maishiy narsa-buyum nomlari: taroq, ko'zgu, qalpoq kabilar.

4. Texnikaga oid bo'lmagan so'zlar: kalit, burqi, pona, payvandlash kabi texnik termin sifatida qo'llaniladi.

Sanab o'tilgan odatdagi so'zlarni termin deb qabul qilinar ekan, o'sha so'z ifodalaydigan tushuncha belgilari yoki ma'nolaridan bittasi termin anglatishi lozim predmetning biror muhim belgisini ifodalashi lozim. Bunday so'zlar

termin bo'lishi uchun ular olimlar tomonidan ta'riflanadi va mantiqan qanday ma'no anglatishi chegaralab ko'rsatiladi. Shundan so'ng qaysi sohaning termini ekanligi qayd etiladi.

So'zning semantik taraqqiyoti tilda yangi so'zning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi va util terminologiyasini boyitishga xizmat qiladi.

**1-mashq.** Berilgan parchada qo'llanilgan terminlarni ajratib yozing, yasalishini izohlab bering.

Oqsil yoki boshqa biron moddaning yemirilgan har bir molekulasi o'rnida yangi molekula tiklanadi: hujayra hayot faoliyati jarayonida uzluksiz o'zgarib turadigan shakli va kimyoviy tarkibini shu yo'l bilan saqlab qoladi.

Hujayradagi moddalarning sintezlanish jarayoni biologik sintez yoki qisqacha aytganda, biosintez deb ataladi. Barcha biosintez reaksiyalarda energiya yutiladi. Biosintez reaksiyalarining yig'indisi plastik almashinuv yoki assimilyatsiya deb ataladi (lotincha „similis“ — o'xshash). Bu jarayonning ma'nosi shuki, hujayraga tashqi muhitdan kiradigan, ammo hujayra moddalaridan katta farq qiladigan oziq moddalar kimyoviy o'zgarishlar natijasida hujayra moddalariga aylanib qoladi.

## YIGIRMA OLTINCHI DARS

### MAVZU. SOHA BO'YICHA BELGILANGAN MAVZU ASOSIDA ILMIY TADQIQOT OLIB BORISH JARAYONLARI

#### Mashg'ulot rejasi:

1. Maqola matni talablari.
2. Tezis matni talablari.
3. Taqriz matni talablari.
4. Annotatsiya va rezyume matni talablari.

#### 1. Maqola matni talablari.

**Maqola** arabcha so'zdan olingan bo'lib, *nutq, kichik asar* ma'nolarini bildiradi. Shuningdek, to'plam, jurnal, gazeta va shu kabilar uchun yozilgan yoki ularda bosilgan, hajmi uncha katta bo'lmagan ilmiy yoki publitsistik asardir.

Maqola publitsistikaning alohida janri sifatida o'ziga xos ko'rinishlariga ega. U mavzusiga ko'ra ijtimoiy-siyosiy, **ilmiy-ommabop** yoxud, adabiy-tanqidiy bo'lishi mumkin. Va ularning har biri yana ichki bo'linish hamda xususiyatlarga egadir. Maqolada ijtimoiy hayot hodisalari chuqur tahlil qilinib, nazariy va ommaviy jihatdan umumlashtiriladi, davlat siyosati, iqtisodiyot, texnika, fan va madaniyatda erishilgan yutuqlar, ilg'or ish tajribalari ommalashtiriladi. nazariy maqola va targ'ibot maqolaning asosiy vazifasi mustaqillik, milliy g'oya, istiqloq mafkurasining asoslari va prinsiplarini; ilmiy maqolaning vazifasi fan, madaniyat, texnika yutuqlarini tushuntirish, ommalashtirish, o'quvchining g'oyaviy, ilmiy saviyasini oshirishdan iborat. Shu mantiqdan qaralsa, ilmiy-ommabop maqolalarning mohiyati oydinlashadi.

Maqolalar uch tarkibiy qismdan iborat bo'ladi: 1. Kirish — bunda tanlangan mavzuning dolzarbligi belgilanadi. 2. Asosiy qism — muallif tomonidan rejalangan fikr, muammo yoki yangilik bayon qilindi. 3. Xulosa — mavzu yuzasidan muallifning xulosalari, tavsiyalari beriladi.

Maqolalar ilmiy yoki publitsistik uslubda, adabiy til me'yorlariga to'liq amal qilingan holatda yoziladi. Maqola yozishda maqolaning mavzusini belgilash va unga sarlavha tanlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolaning sarlavhasi qisqa, lekin e'tiborni jalb qiladigan va, albatta, maqolaning bosh mavzusini yoritib beradigan bo'lishi lozim. Maqola Bundan tashqari, maqolalarda muallif haqida qisqacha ma'lumot va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati ko'rsatiladi.

Maqolada ijtimoiy hayot hodisalari chuqur tahlil qilinib, nazariy va amaliy jihatdan umumlashtiriladi, davlat siyosati, iqtisodiyot, texnika, fan va madaniyatda erishilgan yutuqlar, ilg'or ish tajribalari ommalashtiriladi, xalq xo'jaligidagi nuqsonlar tanqid qilinadi.

Ilmiy maqola qanday yoziladi?

Ilmiy maqola, har qanday boshqa maqolalar kabi, muayyan tuzilishga ega bo'lishi kerak. Ilmiy maqola uchun, tuzilishning asosiy qoidalari tanlanadi:

- sarlavha;
- abstrakt - qisqa ta'rif;
- kalit so'zlar;
- kirish;
- adabiyotlar tahlili;
- asosiy qism - metodologiya va natijalarni o'z ichiga olishi kerak;
- xulosalar;
- adabiyotlar ro'yxati.

## **2. Tezis matni talablari.**

**Tezis** – ma'ruza va ilmiy maqolaning asosiy mazmunini qisqacha ifodalangan shakli. Unda materiallarni berilishi va mazmuniga ko'ra tezislar birlamchi, original (asl) ilmiy asar bo'lishi ham mumkin, annotatsiya, referat, konspektga o'xshash ikkilamchi matn bo'lishi ham mumkin. Original tezislar muallifning sof ma'ruza, maqolalarining ixchamlashtirilgan ko'rinishi hisoblanadi. Ikkilamchi tezislar boshqa muallifga tegishli birlamchi matnlar asosida tuziladi. Tezislarda tegishli mavzular mantiqiy va qisqa bayon etiladi. Har bir tezis, odatda alohida abzasni tashkil etib, alohida kichik (mikro) mavzuni yoritishga xizmat qiladi. Agar reja ko'rib chiqilayotgan masalani faqat sanab o'tsa, tezislar bu masalalarning yechimini ochib berishi lozim.

Tezislar qat'iy me'yoriy mazmuniy-kompozitsiyon tuzilishga ega bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: preambula, tezisning asosiy mazmuni, yakunlovchi tezis.

Tezis mundarijasining qat'iy ravishda mantiqiy bo'linishi rasmiy yoki grafik shaklda qayd etiladi. Tezislar o'rtasidagi mantiqiy o'zaro bog'lanishni rasmiy ifodalash quyidagi usullar bilan ko'rsatilishi mumkin:

- har bir tezisning oldida kirish so'z (birinchidan, ikkinchidan)lardan foydalanish;

- oppozitsion fraza (ibora)lar (tashqi omillar – ichki sabablar)dan foydalanish;

- klassifikatsion frazalar (harakat fe'llari maydoni, holat fe'llari maydoni, yurish fe'llari maydoni)dan foydalanish.

Tezislarda quyidagi nutqiy shakllar bilan boshlanishi mumkin:

Ma'lumki, ...; Ta'kidlab o'tish lozimki, ...; Ammo ...; Bunda shunisi muhimki, ...; Shu narsa ko'zda tutiladiki, ...; Mutaxassislar maqsad qilib qo'yadilarki, ... va b.

Tezislarda asosiy axborotlar quyidagi leksik vositalar bilan o'zaro bog'lanishi mumkin:

... masalani qo'yadi. ... deb hisoblaydi. ... taqqoslaydi. ... misollar keltiradi. ... sanab o'tiladi. ... xarakterlaydi. ... ta'kidlaydi va b.

### **3. Taqriz matni talablari.**

**Taqriz** (arab. — ijobiy baho) — adabiy tanqid janri; yangi badiiy, ilmiy yoki ilmiyomtabop asar taxlili. Taqrizda asarning bibliografik tavsifi, shuningdek, mazmuni, unda ko'tarilgan muammolar, asarning g'oyaviybadiiy xususiyatlari, muallif ijotsida, adabiyotda tutgan o'rni xaqida ma'lumot bo'ladi; asarga baho beriladi, uning asosiy fazilatlar va nuqsonlari qayd qilinadi. Taqriz asosan keng kitobxonlar ommas uchun mo'ljallanadi, ularni yangi asarlardan ogoh qiladi, zarurini tanlab olishga ko'maklashadi. Ichki taqriz ham bo'ladi. Masalan, nashriyotga kelgan badiiy, tanqidiy va ilmiy-omtabop asar ichki taqrizga beriladi, biroq, bu taqriz matbuotda e'lon qilinmaydi.

Rus tanqidchiligi tarixida taqrizning rivojida V.G. Belinskiyning roli katta. U taqrizni haqiqiy san'at darajasiga ko'tardi. Taqriz badiiy asar haqida shunchaki ma'lumot beruvchi janr darajasidan adabiy hayotning muhim masalalarini ko'taruvchi, kitobxonni hayot va adabiyot haqida o'ylashga o'rgatuvchi, uning estetik didini tarbiyalashga yordam beruvchi janrga aylanadi.

### **4. Annotatsiya va rezyume matni talablari.**

Annotatsiya – kitob (maqola yoki to'plam)ning ixcham, qisqa tavsifi, uning mazmuni va qo'llanish sohasini ko'rsatuvchi ilmiy matn turi hisoblanadi. Annotatsiyada birlamchi matnda keltirilgan asosiy masalalar, muammolar sanab o'tiladi, ba'zi hollarda uning tuzilishi, kompozitsiyasi tavsiflanadi. Qoidaga ko'ra, annotatsiy soda gaplardan tashkil topadi.

Annotatsiya ikkita majburiy qismlardan iborat bo'ladi:

1. Birlamchi manbaning mazmuniy tavsifi, muallifning maqsadi.

2. Annotatsiy berilayotgan matnning muallifi (adresat) haqida ma'lumot.

Yuqorida keltirilgan qismlardan tashqari qo'shimcha qismlar ham bo'lishi mumkin: 1) birlamchi matnning kompozitsiyasi, tuzilishi to'g'risida ma'lumot;

2) birlamchi manbaga keltirilgan illustratsiya materiallari.

Annotasiyaning mazmuniy qismlariga tegishli fikrlarni ifodalash uchun quyidagi nutqiy qoliplardan poydalanish mumkin: Matn mazmunining tavsifi: Kitob (maqola)da ... ko'rib chiqiladi; kitobda ... bayon etilgan (ko'rsatib berilgan); maqola ... tadqiqiga bag'ishlangan; Maqolada ... haqidagi tadqiqatlar o'z ifodasini

topgan; Ishning asosiga ... maqsad qilib qo'yilgan; Muallif quyidagi masalalarga to'xtalib o'tgan (to'xtalishni maqsad qilib quygan) ... ; Muallif o'z ishida ... kabi muammolarga munosabatini bildirgan; Maqolaning maqsadi ... masalalarni ko'rsatib o'tishdan ( tadqiq etishdan, tahlil etishdan) iborat; Muallifning maqsadi ... larni tushuntirib berishdan (ochib berishdan, ko'rsatib berishdan, asoslab berishdan) iborat; Maqolaning maqsadi ... kabilarni o'rganishdan iborat (o'rganish hisoblanadi). Muallif ... kabi masalalarni o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Ishning kompozitsiyasi haqidagi fikrlar quyidagi ifoda birliklari orqali berilishi mumkin:

Kitob ... bobdan ( ... bo'limdan, ... qismdan) iborat, taskil topgan. Maqola ... qismlarga bo'linadi. Kitobda ... boblar ajratilgan.

Matnlarning kim uchun mo'ljallanganligini ko'rsatish uchun quyidagi nutqiy ifodalardan foydalanish mumkin: Maqola ... uchun mo'ljallangan ( ... lar uchun tavsiya etiladi). Ushbu to'plam ... lar uchun foydalanishni nazarda tutadi. ... keng kitobxonlar (o'quvchilar) ommasiga mo'ljallangan. Talabalar, magistrantlar, mazkur soha bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar, tadqiqotchilarga foydalanish uchun tavsiya etiladi. Kitob ... larni qiziqtiradi va b.

## **5. Quyidagi topshiriqlarni bajaring.**

**1-topshiriq.** Namuna asosida biron bir kitob uchun annotatsiya yozing.

Соловьев В.С. Философия искусство и литературная критика. – М., 1991.

Vladimir Sereyevich Solovyov (1853-1900) – XIX asrning oxirgi uchinchi o'n yilligida Rossiyaning aqliy, jamoatchilik va madaniy hayotida muhim o'rin tutgan siymolardan biri. Futafakir va shoir, u butun bir falsafiy izlanishlar olib borilgan butun bir davrning yakunlovchisi bo'lib maydonga chiqdi va XX asrning yangi g'oyaviy va badiiy oqimi, ayniqsa simvolizm oqimiga turtki berdi. V.S. Solovyovning asarlar to'plamida uning muhim estetik qarashlari mavzularga mos tarzda quyidagi bo'limlarga ajratilgan holda ko'rsatilgan: "Guzallik qiyofani o'zgartiradigan kuch sifatida", "Rassomning ma'naviy vazifasi", "Rus shoirlari haqida maqola", Ensiklopedik maqolalar. Taqrizlar. Qaydlar".

**2-topshiriq.** Quyidagi namuna asosida biron bir ilmiy maqola uchun annotatsiya yozing.

Lopatina E. V. Ingliz va rus tillarida zoonim komponentlardan tashkil topgan ilmiy-texnik terminlar kateqoriyalari.

Maqola ilmiy-texnik xarakterdagi ma'lum bir miqdor leksik birliklar tarkibida ma'noni shakllanishida muhimkomponent hisoblangan "zoonim" termini tushunchasi ochib berilgan. Shuningdek, bunday zoonimik terminlar qo'llanishi mumkin bo'lgan ishlab chiqarish sohasi ko'rsatilgan. Mazkur ishda zoonimik ilmi-texnik terminlar ma'lum bir kategoriyaga tegishliligi nuqtayi nazaridan tahlil etilgan, har bir kategoriyaga tegishli terminologik birliklarning miqdori belgilangan. Ilmiy adabiyotlarda mavjud, shuningdek maqola muallifiga tegishli kategoriyalar tasnifi keltirilgan. Tahlillar inglizcha va ruscha misollar bilan asoslab berilgan.

## **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH BO'YICHA TOPSHIRIQLAR**

1. Maqola matni talablarini tushuntiring.
2. Tezis matni talablarini tushuntiring.
3. Taqriz matni talablarini tushuntiring.
4. Annotatsiya va rezyume matni talablarini tushuntiring.

## **YIGIRMA YETTINCHI DARS**

### **MAVZU. DASTLABKI ILMIY TADQIQOT YOZISH**

#### **Mashg'ulot rejasi:**

1. Ilmiy tadqiqotning tarkibiy qismlari. kirish, asosiy qism, xulosa, adabiyotlar, perefraza (havola, iqtibos, sitata, abzats)
2. Ilmiy tadqiqotning kirish qismi.
3. Ilmiy tadqiqotning asosiy qismi
4. Ilmiy tadqiqotning xulosa va adabiyotlar qismi.
5. Ilmiy tadqiqotda perefraza (havola, iqtibos, sitata, abzats).

#### **1. Ilmiy tadqiqotning tarkibiy qismlari.**

**Ilmiy tadqiqot** - yangi bilimlarni ishlab chiqish jarayoni, bilish faoliyati turlaridan biri. Unga ob'yektivlik, ishonchlilik, aniqlik xos. Ilmiy tadqiqot hamma shartlarga amal qilib takrorlanganda hamisha birdek natija berishi, bahs etilayotgan masalani isbotlashi lozim. Ilmiy tadqiqot bir-biri bilan boglangan ikki bosqichdan — tajriba va nazariyadan iborat. Ilmiy tadqiqotning asosiy komponentlari: mavzuni belgilash, mavjud axborotni, tadqiqot sohasidagi shart-sharoit va metodlarni, ilmiy farazlarni oldindan tahlil etish, tajriba o'tkazish, olingan natijalarni tahlil etish va umumlashtirish, kelib chiqqan farazlarni olingan dalillar asosida tekshirish, yangi fakt va qonunlarni ifodalab berish, ilmiy bashorat yuritish. Ilmiy tadqiqotlarni fundamental va amaliy, miqdoriy va sifatiy, noyob va kompleks tadqiqotlarga ajratish keng tarqalgan. Ilmiy tadqiqotlarning metod va tajribalari fanning o'zidagina emas, balki ko'pgina iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni qal qilishda ham keng qo'llaniladi.

#### **2. Ilmiy tadqiqotning kirish qismi.**

Kirish qismi ilmiy ishning eng mas'uliyatli qismi hisoblanadi, chunki u barcha fundamental holatlarni o'z ichiga oladi. Bu tanlangan mavzuning dolzarbligi, maqsadi, mazmuni, tadqiqot ob'ekti va predmeti, tadqiqot metodi, nazariy va amaliy ahamiyati va h.z.

Dissertatsiyaning kompozitsion strukturasi nuqtayi nazaridan mavzu dolzarbligini asoslash kirish qismining 1-2 sahifasidan ortiq joy egallamasligi va nega ushbu mavzuga hozir murojaat qilish kerak, uning ilmiy va amaliy zaruriyati nimada, tadqiqot predmeti haqida zamonaviy tasavvur holati qanday ekanligini tushuntirishi kerak.

Dolzarlilik asoslab bo'lingach muammoning ilmiy ishlab chiqilganlik darajasi ko'rib chiqilishi kerak. Bunda o'tgan va hozirgi mamlakatimiz va xorijiy olimlarning ushbu muammo bilan turli rakurslarda qanday shug'ullanganliklari, yetarlicha yoritilmagan jihatlar, noto'g'ri yoritilgan adabiyotlar haqida so'z yuritilish kerak. Aynan shu mavzuga murojaatni xorijiy adabiyotda Vatanimizga tegishli materiallarning yetarlicha yoritilmaganligini asos qilib olish mumkin.

Ilmiy tadqiqot obyekti va predmeti ilmiy jarayon kategoriyasi sifatida umumiy va xususiy jihatlari bilan bir-birlari bilan bog'liqdir.

Obyektda tadqiqot predmeti bo'lib xizmat qiluvchi qism ajralib turadi. Aynan shu narsaga dissertantning e'tibori qaratiladi, aynan tadqiqot predmeti dissertatsion ish mavzusini belgilaydi va tutil varaqda uning sarlavhasidek belgilanadi.

Tadqiqot predmetini aniqlash mahorati tadqiqotchining, birinchidan, obyektning dolzarb dinamik holati sferasiga, ikkinchidan, obyektning tashkiliy tizimiga ta'sir ko'rsatuvchi aloqa va elementlar sohasiga yaqinlashganligi bilan bog'lanadi.

### **3. Ilmiy tadqiqotning asosiy qismi.**

Ilmiy ishning asosiy qismi uning to'liq hajmining 70% dan kam bo'lmagan qismini tashkil etishi kerak. U bayonning mantiqiy strukturasiidan kelib chiqib boblar va paragraflarga bo'linadi. Nomzodlik dissertatsiyasida 3 yoki 4 bob, doktorlik ishida esa 4 va undan ortiq bob bo'lishi mumkin. Har bir bob 2 va undan ortiq paragrafga ega bo'ladi. Boblar hajm jihatdan bir xil bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ilmiy ishning mantiqiy strukturasi darrov ayon bo'lib qolmaydi. U batamom aniq bo'lishi uchun siz uni himoyaga olib chiqilayotgan holatlarning batafsil isboti ko'rinishida qurilgan mantiqiy butunlik sifatida fikran maketlashtirishingiz kerak. Avval bunday "maket"ni reja shaklida, har bir paragrafini to'g'ri nomlab, to'g'ri joylashtirib ishlab chiqish lozim. Ishni boblar va paragraflarga bo'lish mavzuni yoritish mantiqiga xizmat qilishi kerak. Shuning uchun, bir tomondan, rejaga mavzu doirasidan chiqib ketadigan yoki u bilan bilvosita bog'langan strukturaviy birliklarni kiritmaslik kerak, ikkinchi tomondan esa, punktlar mavzuni to'liq yoritishi kerak.

### **4. Ilmiy tadqiqotning xulosa va adabiyotlar qismi.**

Ilmiy ishning xulosa qismi butun ish natijalari bo'yicha qilingan xulosalar va tavsiyalardan iborat bo'lishi kerak. Bu qism hajm jihatdan eng kichkina bo'lgani bilan alohida ahamiyatga ega, chunki aynan shu qismda ilmiy ishingizning yakuniy natijalari tugallangan, mantiqan mukammal shaklda ilmiy hamjamiyat e'tiboriga taqdim etasiz.

Xulosa – bu nafaqat erishilgan natijalar yig'indisi, balki o'ziga xos sintez, ishingizning alohida va yig'ma yakuni hamdir. Xulosada olingan natijalarni kirish qismda belgilangan maqsad va vazifalar bilan birlashtirish, xulosalarni jamlash o'z ishining muvaffaqiyatini baholash kerak. Ba'zida bu qismni xulosalar ro'yxati ko'rinishida qurish, uni punktlarga bo'lib, har birida alohida xulosani

asoslab berish mumkin. Agar ish nazariy natijalar bilan birga amaliy ahamiyatga ega bo'lsa ham buni xulosa qismda gapirib o'tish kerak, Bundan tashqari ish natijalari asosida kelgusidagi tadqiqotlar istiqbolini ko'rsatib o'tish, shu sababli yangi vazifalarni belgilash, yangi g'oyalarni rivojlantirish yo'llarini ta'kidlab o'tish mumkin.

Xulosadan keyin adabiyotlar ro'yxati keladi. Bu mavzu bo'yicha muallif foydalangan adabiy manbalar ro'yxatidir. Bunday ro'yxatga kiritilgan har bir manba Ilmiy ishning qo'lyozmasida aks etgan bo'lishi kerak. Qandaydir faktlarga havola bo'lganda, material qaerdan olinganligi ko'rsatilishi kerak. Havolalar bo'lmagan, dissertatsiyada foydalanmagan manbalarni ro'yxatga kiritish shart emas.

### **5. Ilmiy tadqiqotda perefraza (havola, iqtibos, sitata, abzats).**

**Iqtibos** (arab. — ziyo olmoq), **sitata** — biror asardan so'zma-so'z olingan parcha. Iqtibos bayon qilinayotgan fikrni ishonchli fikr bilan quvvatlash, muayyan fikrni tanqid qilish uchun hamda muhim faktik material — misol sifatida qo'llaniladi. Iqtibos, asosan, ilmiy (ko'pincha gumanitar) va rasmiy nutqda ishlatiladi hamda qo'shtirnoq bilan belgilanadi yoki alohida harf bilan yoziladi; shuningdek, manbaga havola qilinadi. Bunday ko'chirmalar foydalanuvchining fikri bilan qiyoslanganda uning mohiyatini to'g'ri tushunish imkonini beradi. Masalan, badiiy adabiyotning, so'zning g'oyaviy-estetik ta'sir kuchi, ahamiyatini quroldan ham kuchliroq ekanligi to'g'risidagi fikrni mustahkamlash maqsadida P. Tursunning "Adabiyot zambarakdan zo'r" yoki A. Qahhorning "Adabiyot atomdan kuchli" degan so'zlarini yoki bo'lmasa, "tig' yarasi bitar, ammo til yarasi bitmas" maqolini iqtibos sifatida qo'llash mumkin. Iqtibosdan ko'p hollarda epigraf va shior o'rnida ham qo'llaniladi. Agar muallif fikriga zarar yetmasa, iqtibosda orfografiya va punktatsiyani o'zlashtirish, so'z (so'zlar)ni tushirib qoldirish mumkin (bunda ko'p nuqta bilan belgi qo'yiladi).

### **Mavzuni tekshirish uchun topshiriqlar.**

1. Ilmiy tadqiqotning tarkibiy qismlari nimalardan tashkil topgan bo'ladi?
2. Ilmiy tadqiqotning kirish qismi qanday yoziladi?
3. Ilmiy tadqiqotning asosiy qismi qanday yoziladi?
4. Ilmiy tadqiqotning xulosa va adabiyotlar qismi qanday yoziladi?
5. Ilmiy tadqiqotda perefraza (havola, iqtibos, sitata, abzats) haqida ma'lumot bering.

## YIGIRMA SAKKIZINCHI DARS

### MAVZU. MATN VA UNING TURLARI. MIKRO MATN VA MAKRO MATN

#### **Mashg'ulot rejasi:**

1. Matn va uning turlari.
2. Mikro matn va makro matn.
3. Ilmiy va ilmiy-ommabor matnlar.
4. Ixtisoslikka oid ilmiy matnlarda sohaviy terminlar.

**Bilib oling.** Ma'lum bir fikrni batafsil ifodalash uchun gaplarni tilimizning muayyan qoidalari asosida bog'lab, matn tuzamiz. Mazmun va grammatik jihatdan bog'langan, bir mavzuni ifodalovchi gaplar matnni hosil qiladi.

Mavzu matndagi asosiy fikrning nima haqida ekanligidir. Shundan kelib chiqqan holda matnning sarlavhasi ham bo'lishi mumkin.

Matn ma'lum maqsad yoki fikrni sodda, qo'shma va murakkab gaplar orqali ifodalovchi til birligidir.

Matn nasr yoki nazm shaklida boklishi mumkin.

Tuzilishiga ko'ra matn ikki xil bo'ladi:

1. Sodda tarkibli matnlar.
2. Murakkab tarkibli matnlar.

Matn og'zaki yoki yozma usulda amalga oshirilishi mumkin.

Sodda tarkibli matn bir yoki bir necha gaplar (qo'shma gaplar)dan iborat bo'ladi. Sodda matnlarga talabalar tomonidan tuzilgan ayrim jumlar va kichik matnlar kiradi. Bunday matnlarda xabar, maqol, matai, masallar ifodalanib, hajmi jihatidan kichik bo'lsa-da, ma'lum maqsad to'liq ifodalanadi. Masalan:

- 1) Toshkent viloyati paxta topshirish rejasini bajardi (xabar).
- 2) Sichqon sig'mas iniga, g'alvir bog'lar dumiga (matal).
- 3) Qo'shning tinch — sen tinch (maqol).

Murakkab tarkibli matnda biror hkoya bilan bog'liq bo'lgan murakkab fikr ifodalanib, uning tarkibi qismlar, boblar, paragraflardan tashkil topadi. Agar bu qismlar mustaqil bo'lsa, ular orasida nuqta, so'roq, undov belgilari qo'yiladi, har bir fikr xatboshi (abzas)dan boshlanadi.

Murakkab matnlarga tarkibi keng tasvirlar, hikoya, masal, ertak, farmon, povest, roman, risola, maqolalar kabi adabiy, ilmiy, rasmiy nutq uslublari kiradi.

**2- topshiriq.** Quyidagi matnlardan sodda va murakkab matnlarni ajrating. Har bir matnning tarkibini tahlil qiling. Matnlarda ifodalangan g'oyani tushuntirib bering.

Dovud alayhissaiom aytgan ekanlar: „Ilm egalariga ayting, temirdan aso olsin, temirdan kavush kiysin, so'ng hassasi sinib, kavushi yeyilib ketguncha ilm izlasin“. (Rivoyat)

2. Yerdan o'zga joyda hayot yo'q emish,  
Yo'q emish samoda biror bir jonzod.  
Olimlar shundayin qarorga keimish,

Sira ajablanmang bu holdan, ustod.  
Ular xo‘b tinchibdi, toleyi kulib,  
Asli yo‘q narsani axtarmoq bekor.  
Men esa to hanuz umidga to‘lib,  
Izlayman zaminda do‘sti vafodor. (A. Oripov)

3. Buyuk ingliz yozuvchisi Shou haddan tashqari semiz bir kishi bilan uchrashib qoldi. Baqaloq tarashadek qotma Shouga qarab dedi:

— Sizni ko‘rgan odam, butun Angliyada ocharchilik ekan, deb o‘ylashi mumkin.

— Sizga qarab turib esa, — dedi Shou unga javoban, — bunday ofatning sababchisi shu ekan, deb o‘ylashi mumkin.

„Shifokorlar va dardmandlar xandasi “

**3- topshiriq.** Matnning mazmuniga ko‘ra sarlavha qo‘ying.

Do‘stlik qudratli va buyuk kuchdir. Bu muazzam va muborak so‘z butun dunyoda mag‘mr jaranglaydi. Sadoqatli do‘stlik tufayli xalqlar bir-biriga hamisha beg‘araz yordam berib keladilar. O‘zbek xalqi do‘stlikni azaldan e‘zozlaydi...

Do‘stlik — sharaf-u shon. Do‘stlik — kamolot bayrog‘i.

Do‘stlik — qalb quvonchi. Va nihoyat, do‘stga sadoqat chin insoniy fazilatdir. Bunga muyassar bo‘lgan kishilar esa eng baxtli kishilar sanaladilar.

Kulib boqsang do‘stlarga doim,

Taning yayrar, bolar muloyim.

Do‘stlik — bebaho oltin va qudratdir. Do‘stlik — bu qadrdonlik. Do‘stlik — muqaddas, chin ulfatchilikdir.

Hamdo‘stlik so‘zi... bu — lug‘at xazinasining durri noyobi. Hamdo‘stlik chamanini sof holda ko‘kartirish g‘oyat mushkul ishdur. Do‘stingning boshiga og‘ir mushkulotlar tushganda, yordam qulochini yoz. Do‘stlik ipini uzma, unga hamisha hamdard bo‘l. Do‘stingni joningday saqla, sadoqatli do‘stingni yurak tokchalariga o‘tqaz! (Sh. Orifiy)

**Esda tuting.** Matn (arabcha–yelka) nutqning yozuvdagi ifodasini bildiradi. Yozuvda yoki bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjat, bosma nashrning rasm, chizma va izohlarsiz asosiy qismiga nisbatan ushbu tushuncha qo‘llanadi. Shunday ekan, avvalo, boshlang‘ich sinf o‘qish kitoblarida darj etilgan barcha turdagi ijod namunalari, adabiy-badiiy asarlar matn deb yuritilishi mumkinmi, degan fikr ham paydo bo‘ladi. Ularning janri, uslubiga qarab tafovutlash mumkin bo‘ladi. Aytaylik, uslubiga ko‘ra– badiiy, ilmiy, publitsistik matn; janriga ko‘ra hikoya, qissa, ertak matni kabi. Biroq, shunisi diqqatga sazovorki, boshlang‘ich sinf o‘qish kitoblarining istiqlol yillarida nashr etilayotgan yangi avlodi adabiy, janriy istilohlarga e‘tibor qaratmoqda.

**Publitsistik matn** ko‘proq matbuotga xos bo‘lib, u xabar, maqola, taqriz, intervyu, reportaj kabilarda namoyon bo‘ladi. Ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni publitsistik matnlar yaratishga o‘rgatish uchun avvalo ularning bu usulning til xususiyatlari ustida ishlashiga to‘g‘ri keladi. Publitsistik matnning tili pishiq, aniq, ifodali, ravon, ixcham, jonli bo‘lib, u nutqning jangovarligi, ta’sirchanligi, o‘qimishlilik va ommabopligini ta’minlaydi.

**Ilmiy-ommabop matnlarda** esa ayrim murakkab tushunchalarga aniqlik kiritiladi va ular ko'pchilikning tushunishiga moslashtirilgan holdan beriladi. Unda tasvir unsurlaridan ham foydalaniladi.

**Quyidagi savollarga javob bering.**

1. Matn deb nimaga aytiladi?
2. Mavzu deganda nimani tushunasiz?
3. Matndagi gaplarning mazmuniy bog'lanishi qanday bo'ladi?
4. Matndagi gaplar grammatik jihatdan o'zaro qanday bog'lanadi?
5. Ilmiy va ilmiy-ommabop matnlar qanday farqlanadi?

## **YIGIRMA TO'QQIZINCHI DARS**

### **MAVZU. RASMIY-IDORAVIY USLUB VA UNING USLUBIY XUSUSIYATLARI**

**Mashg'ulot rejasi:**

1. Hujjatchilik va adabiy til me'yorlari.
2. Hujjat va uning turlari.
3. Hujjatlarning zaruriy qismlari.
4. Sohaga oid hujjatlar va ularning rasmiylashtirilishi.

**1-topshiriq. Quyidagi matnni o'rganing va o'g'zaki bayon qiling.**

Ish yuritish hujjatlari qo'llanish doirasi, maqsad va vazifalariga ko'ra to'rt guruhga bo'linadi: 1. Tashkiliy hujjatlar (guvohnoma, yo'riqnoma, nizom, shartnoma va boshqalar). 2. Farmoyish hujjatlari (buyruq, ko'rsatma, farmoyish). 3. Ma'lumot-axborot hujjatlari (ariza, bayonnoma, dalolatnoma, ishonchnoma, tavsifnoma, tarjimai hol, tilxat, tushuntirish xati, e'lon va boshqalar). 4. Xizmat yozishmalari (taklifnoma, telegramma, xatlar).

Tashkiliy hujjatlar mazmunan tashkilot, muassasa va korxonalarning huquqiy maqomi, tarkibiy tarmoqlari va xodimlari, boshqaruv jarayonida jamoa ishtirokining qayd qilinishi, boshqa tashkilotlar bilan aloqalarning huquqiy tomonlari kabi masalalarni aks ettiradi.

Yo'riqnoma qonun yoki boshqa me'yoriy hujjatlarni tushuntirish maqsadida chiqariladigan huquqiy hujjatdir. Korxona, tashkilot, muassasaning tashkiliy, ilmiy-texnikaviy, moliyaviy va boshqa faoliyat tomonlari xususida tartib-qoida

o'rnatish maqsadida davlat yoki jamoa boshqaruv organlari tomonidan chiqariladi,

ularning rahbarlari tomonidan tasdiqlanadi.

Nizom-ustav tashkilot yoki uning tarkibiy bo'linmalari, kichik yoki qo'shma

korxona va shu kabilar tuzilishi, huquqi, vazifalari, burchlari, ishni tashkil qilishlari tartibini belgilaydigan huquqiy hujjatdir. Nizom turli tadbirlarga nisbatan

ham tuzilishi mumkin. Nizom muassasalar tashkil topishi paytida tuziladi va yuqori tashkilotlar farmoyishi bilan (yoki tegishli hokimiyat tomonidan) tasdiqlanadi.

Muvaqqat komissiyalar, guruhlar va shu kabilarning huquqiy maqomlari ham nizom bilan belgilanadi.

## **2-topshiriq. Matnni o'rganing va o'g'zaki bayon qiling.**

Rasmiy hujjatlar ikki xil bo'lishi mumkin: ijodiy va qolipli.

Ijodiy hujjatlar, odatda, qog'ozda yoziladi. Bunga ariza, tarjimai hoi, tushuntirish xati, bayonnoma, vasiyatnoma, tavsiyanoma, tafsifnoma, qaror, tilxat, adres, telegramma, rasmiy tushuntirish xatlari kiradi. Bunday hujjatlarni avval qolda yozib, so'ngra mashinkada ko'chirish mumkin.

Qolipli hujjatlar maxsus shakllardagi rasmiy varaqlar (blank, formalar)dan iborat bo'lib, zarur savollar unga kiritilgan bo'adi. Bunday hujjatlarga xizmat safari guvohnomasi, shaxsiy varaqalar, mehnat daftarchalari, statistika-moliya hujjatlari, kasallik varaqasi, shartnoma, bitim, guvohnoma, yo'riqnoma, nizom, shtat jadvali kiradi.

Hujjatlarning shakliiy tomoniga qat'iy rioya qilinadi: hujjat yuboriladigan tashkilot yoki shaxs (lavozimi bilan) qog'ozning okng burchagiga o'z munosabatini bildiradi („Roziman“, „Tekshirilsin“ kabi), hujjat nomi bosh harflar bilan alohida xat o'rtasiga yoziladi. Hujjat matnidan so'ng xat oxirida sana va hujjat egasining imzosi va ismi, otasining ismi, familiyasi beriladi.

Hujjatlarning aynan o'zi, ko'chirmasi yoki uning ayni kserokopiyasi bo'lishi mumkin. Odatda, hujjatning ayni (asl) nusxasi idoralarda qabul qilinadi. Kserokopiyasi esa hujjatning aynan asl nusxasi yo'qolmasligi uchun saqlanadi. Ba'zi idoralarda vaqtincha, asl nusxa berilgunga qadar qabul qilinishi mumkin.

Ayrim hujjatlar keng hajmda bo'lsa (masalan, buyruq, qaror, bayonnomalar), ma'lum shaxs o'ziga zarur qismini ko'chirma nusxa qilib olishi mumkin. Buyruqdan ko'chirma olishda biror shaxsga yoki idoraga oid qismi ko'chiriladi. Buyruqdan ko'chirmada „asliga to'g'ri“ deb kotib yozadi va imzosini qo'yadi, sanasini ko'rsatadi.

## **3. Quyidaki matnni o'rganing va so'zlab bering.**

Farmoyish hujjatlar - davlat boshqaruv organi rahbarlarining yakka hokimligiga asoslangan huquqiy hujjat bo'lib, muayyan muassasa oldida turgan asosiy va kundalik vazifalarni hal qilish maqsadida qo'llaniladi.

Iqtisodiyotni boshqarishda tashkiliy-farmoyish hujjatlarining ahamiyati kattadir. Har qanday tashkilot yoki korxonani boshqarishda tashkiliy farmoyish hujjatlaridan to'liq foydalanadi.

Farmoyish hujjatlari guruhiga buyruq, ko'rsatma, farmoyish kabilar kiradi.

Buyruq - rahbarning biror ishni bajarish haqidagi farmoyishi. Mening betoblikdan keyin ishga qaytganim buyruq bilan rasmiylashtirildi. Bu ot “farmon qil” ma'nosini anglatuvchi *buyur* fe'lidani o'zbek tilida -(u)q qo'shimchasi bilan yasalgan; keyinchalik ikkinchi bo'g'indagi tor unli talaffuz qilinmay qo'yilgan: buyur + uq = buyuruq > buyruq.

Farmoyish — boshqaruvga doir huquqiy hujjat; konstitutsiyaviy huquqda davlat boshlig'i va ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan vakolatlari doirasida chiqariladi. Ijro etuvchi hokimiyat organining tez hal qilinishi kerak bo'lgan va boshqa joriy masalalarga oid qarori Farmoyish shaklida chiqariladi. Shuningdek, Bu hujjat korxona va tashkilotlar doirasida ham yuritiladi.

**3-topshiriq. Matn yuzasidan berilgan quyidagi savollarga yozma javob bering.**

1. Hujjatlar yaratilish o'rniga ko'ra qanday tasniflanishini tushuntirib bering.
2. Ichki hujjatlar deb qanday hujjatlarga aytilishini tushuntiring.
3. Tashqi hujjatlarga nimalar kirishini aniqlang.
4. Hujjatlar mazmuniga ko'ra necha turga bo'linishini tushuntiring.
5. Mazmuniy bayonining shakli jihatidan hujjatlar turini aniqlang.
6. Xususiy (individual) hujjatlarni aniqlang va izohlang.

## **O‘TTIZINCHI DARS**

### **MAVZU: FARMOYISH HUJJATLARI VA ULARNIIG TURLARI**

#### **1. Quyidaki matnni o‘rganing va so‘zlab bering.**

Farmoyish hujjatlar - davlat boshqaruv organi rahbarlarining yakka hokimligiga asoslangan huquqiy hujjat bo'lib, muayyan muassasa oldida turgan asosiy va kundalik vazifalarni hal qilish maqsadida qo'llaniladi.

Iqtisodiyotni boshqarishda tashkiliy-farmoyish hujjatlarining ahamiyati kattadir. Har qanday tashkilot yoki korxonani boshqarishda tashkiliy farmoyish hujjatlaridan to'liq foydalanadi.

Farmoyish hujjatlari guruhiga buyruq, ko'rsatma, farmoyish kabilar kiradi.

Buyruq - rahbarning biror ishni bajarish haqidagi farmoyishi. Mening betoblikdan keyin ishga qaytganim buyruq bilan rasmiylashtirildi. Bu ot "farmon qil" ma'nosini anglatuvchi *buyur* fe'lidan o'zbek tilida -(u)q qo'shimchasi bilan yasalgan; keyinchalik ikkinchi bo'g'indagi tor unli talaffuz qilinmay qo'yilgan: *buyur + uq = buyuruq > buyruq*.

Farmoyish — boshqaruvga doir huquqiy hujjat; konstitutsiyaviy huquqda davlat boshlig'i va ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan vakolatlari doirasida chiqariladi. Ijro etuvchi hokimiyat organining tez hal qilinishi kerak bo'lgan va boshqa joriy masalalarga oid qarori Farmoyish shaklida chiqariladi. Shuningdek, Bu hujjat korxona va tashkilotlar doirasida ham yuritiladi.

#### **2. Buyruq matni va uning tuzilishiga xos xususiyatlarni o‘rganing.**

Buyruqlar vazirlar tomonidan yoki idora nomidan qarorlar qabul qilish yakka tartibda amalga oshiriladigan idoralar rahbarlari tomonidan qabul qilinadi.

Buyruq doimiy ravishda shaxsan rahbar tomonidan tayyorlanadi, ko'rsatma va farmoyishlar rahbar muovirlari tomonidan beriladi.

Buyruqlarning bir qator turlari mavjud bo'lib ularga:

- a) umumiy masalalar bo'yicha
- b) shaxsiy tarkib bo'yicha

v) asosiy faoliyat bo'yicha buyruqlar kiradi.

Buyruqning asosiy qismlari quyidagilardan iborat: Vazirlik, korxona yoki muassasa nomi, buyruqning nomi, sanasi, raqami, buyruq chikkan joyning nomi, sarlavxasi, buyruq matni, rahbar yoki o'rinbosar imzosi va hokazo. Buyruqning farmoyish qismi yangi satrdan, bosh harflar bilan yoziladigan "BUYURAMAN" so'zi bilan boshlanadi. Buyruqda ishning bajarilish muddati mazmunidan kelib chiqib umumiy tarzda yoki xar bir farmoyishda aniq ko'rsatish mumkin.

Buyruqda adliya maslahatchisi imzosi ham bo'lishi kerak. Adliya maslahatchisi buyruqni ko'rishda quyidagilarga e'tibor beradi: masalan, buyruq bilan rasmiylashtirish maqsadi qanchalik to'g'ri kelishi; buyruq loyihasining amaldagi qonunlarga, hukumat qarorlariga qanchalik muvofiq kelishi; mazkur idoraning ilgari berilgan buyruqlari bilan ziddiyat yo'qmi yoki ularning qisman takrorlanishi va boshqalar.

Buyruqning asosiy matni asoslovchi va farmoyish qismlaridan tarkib topadi.

Asoslovchi qismda buyruqdan maqsad, shart-sharoitlar, sabablar ko'rsatiladi, asos qilib olinayotgan buyruqqa havola qilinadi. Ayrim hollarda buyruqqa asos bo'lgan hujjat uning farmoyish qismi tegishli bandida ham ko'rsatiladi.

#### **4. Farmoyish matni va uning tuzilishiga xos xususiyatlarni o'rganing.**

Farmoyish korxona ma'muriyati hamda bo'limlar rahbarlari tomonidan amaliy masalalar yuzasidan qabul qilinadigan hujjatdir. Odatda farmoyishlarda harakat muddati cheklangan bo'lib uning kuchi bo'limlarning tor doirasiga ayrim mansabdor shaxslar va fuqarolarga taalluqli bo'ladi. Farmoyishning matni xuddi buyruqniki singari zaruriy qismlardan tashkil topadi. Faqat uning kirish qismida

"Buyuraman" so'zi o'rniga "Tavsiya qilaman", "Ruxsat beraman" kabi so'zlar ishlatiladi.

#### **5. Ko'rsatma matni va uning tuzilishiga xos xususiyatlarni o'rganing.**

Ko'rsatma korxonalarda axborot metodik tushdagi masalalar, shuningdek buyruqlar, yo'riqnomalar va boshqa hujjatlarning ijrosi bilan bog'liq bo'lgan tashkiliy masalalar yuzasidan chiqariladigan huquqiy hujjatdir. Ko'rsatmaga birinchi bo'lib rahbar bosh muhandis ularning o'rinbosarlari imzo chekish huquqiga ega. Ko'rsatma korxonaning xos ish qog'oziga bosiladi. U ham buyruq kabi, odatda, sarlavha bilan yoziladi, asos va farmoyish qismlaridan tarkib topadi.

Asos qismida, falon "maqsadda", falon "buyruqni bajarish uchun" kabi taomilga kirgan iboralar qo'llanadi va "Yuklayman", "Tavsiya etaman" so'zlari bilan farmoyish qismi boshlanadi. Muayyan xodimga uning xizmat lavozimi vazifalariga kirmaydigan ishlar yuklatilsa "Tavsiya etaman" so'zi qo'llanadi. Ko'rsatmaning farmoyish qismi buyruqning farmoyish qismiga o'xshash bo'ladi.

#### **6. Quyidagi topshiriqlarni bajaring.**

1. Oliy ta'lim muassasasi rektori buyrug'i matnini tayyorlang.
2. Fakultet dekani farmoyishi matnini tayyorlang.
3. Farmoyish hujjatlarida qo'llanadigan tayanch so'zlarni yozing.
4. «Ish yuritish» kitobidan buyruq, buyruqdan ko'chirma, farmoiy va ko'rsatma namunalari bilan tanishing. O'zingiz ishga qabul qilish haqidagi buyruq, farmoiy va ko'rsatma loyihasini tayyorlang.

## MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI UCHUN MATERIALLAR

### BIRINCHI VARIANT

**1-topshiriq.** Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida 29 ta harf mavjud. Nutq tovushlari bilan harflar munosabatini o'rganib, quyidagi savollarga misollar asosida javob bering:

1. Alifboda maxsus harf vositasida ifodalanmagan nutq tovushi mavjudmi?

2. Alifboda ikki tovushni ifodalaydigan harflar ham bormi?

3. Qaysi nutq tovushlari yozuvda ikki harf yordamida ifodalanadi.?

| Alifboda harf<br>olmagan nutq tovushlari | Ikkitadan nutq<br>tovushini ifodalovchi<br>harflar | Ikki harf<br>yordamida<br>ifodalanadigan<br>tovushlar. |
|------------------------------------------|----------------------------------------------------|--------------------------------------------------------|
| 1) j (jurnal, ajdar)                     | 1) o (obod,<br>ochirib, tonna)                     | 1) shch (mishchan,<br>borshch)                         |
| 2) ...                                   | 2) ...                                             | 2) ...                                                 |

**2-topshiriq.** Yangi «Imlo qoidalari»dan unli tovushlarning yozuvda ifodalanishini o'rganib va «Imlo lug'ati»ni kuzatib, kirill yozuvidagi e, ё, ю, я harflarning vazifalari hamda ularni lotin-o'zbek alifbosida qanday ifodalanishini aniqlang; ularning so'z tarkibining turli o'rinlarida qo'llanishiga misollar kiltirib, quyidagi shaklda izohlang:

| Harf         | Iski imlo qoidasida                  | Yangi imlo qoidasida                                                     |
|--------------|--------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------|
| 1) e<br>(ye) | E (el, bel, kel)<br>й+э (ер, объект) | Barcha o'rinlarda faqat<br>bir e tovushini ifoda etadi: el,<br>bel, kel. |

**3-topshiriq.** Quyidagi so'zlarda j harfi ikki xil tovushni ifodalab kelgan. Misollarni shu asosda guruhlariga ajrating va bu ikki tovush orasida qanday farq borligini izohlang.

Murojaat, gijda, javob, juda, jurnal, reja, jamoatchilik, mujgon, xujjat, ijodiy, Rojkov, bajarmoq, tojik, tarjimon, jang, tajriba, jaket, vijdon, vujud, boj, rivojlanmoq, gajak.

### Namuna:

1-guruh

2-gurux

Murojat  
Javob

gijda  
jurnal

...

...

**4-topshiriq.** «Imlo lugati»dan foydalanib x va h harflarining so'z tarkibida kelishiga 50 tadan misol topib guruhlab yozing.

**Namuna:**

X harfli so'zlar

h harfli so'zlar

Abxaz

ayyuhannos

Aviatexnika

alahsiramq

...

...

**5-topshiriq.** O'zbek tilida v tovushi o'zining talaffuz xususiyatiga ko'ra lab-lab, sirg'aluvchi va lab-tish, portlovchi ikki turi farqlanadi. «Imlo lugati »dan foydalanib v tovushining shu ikki turiga 10 tadan misol topib yozing.

**Matn**

### **Yolg'on va bo'hton haqida**

Yolg'on va bo'hton axloq buzilishidan darak beruvchi fe'llardandir. Bu fe'llar eng qabih fe'llardan hisoblanadi. Bunday fe'l sohiblari odamlar haqida turli-tuman bemani so'zlarni so'zlab yuradilar.

Yolg'on bilan bo'htonning farqi shundaki, yolg'onchi o'z ishlari haqida yolg'on gapirsa, bo'htonchi boshqalar haqida yolg'on gaplarni tarqatib yuradi. Bu xildagi odamlar xalqning obr-u nomusiga, kasb-u koriga daxldor bemani so'zlarni tarqatishlari bilan oqibat natijada ko'pchilikning nafratiga uchraydi. Bo'htonchining siri ochilgach, qilgan bo'htonlari uchun hatto jazoga loyiq bo'lib qoladi. Demak, har bir kishi bunday nomaqbul fe'llardan saqlanishga qattiq tirishishi va bunday fe'llardan o'zini saqlamaydigan kishilardan uzoq yuruvga urinishi lozim.

(Xayoliddin al-Xasaniy)

**6-topshiriq.** Matnni sinchiklab o'qing va quyidagi topshiriqlarni bajaring:

1. Asos va qo'shimchalar imlosi qoidalari asosida yozilgan so'zlarni ajratib yozing.
2. So'zlarni qo'shib yozish qoidalari asosida yozilgan so'zlarni ajratib yozing.
3. So'zlarni ajratib yozish qoidalari asosida yozilgan qo'shma so'zlarni topib yozing.
4. Chiziqcha bilan yozish qoidalari asosida yozilgan qo'shma so'zlarni ajratib yozing.
5. Tutiq belgisi ishlatilgan so'zlarni ajratib yozing va bu belgining ishlatilishini izohlang.

## **IKKINCHI VARIANT**

**1-topshiriq.** Hozirgi o'zbek adabiy tilidagi nutq tovushlari bilan lotin-o'zbek alifbosidagi harflar munosabatini o'rganib, quyidagi savollarga javob bering.

1. Hozirgi o'zbek tilida nechta unli tovushlar bor va ular yozuvda qancha hamda qaysi harflar vositasida ifodalaniladi.

2. Hozirgi o'zbek tilida undosh tovushlar nechta va ular yozuvda qancha hamda qaysi harflar vositasida ifodalaniladi.

3. O'zbek tilida nutq tovushlari bilan alifbodagi harflar sonining teng kelmasligini qanday izohlaysiz, Lotin-o'zbek alifbosida ham shu xususiyatlar mavjudmi?

**2-topshiriq.** O'zbek tilining asosiy imlo qoidalaridan o harfining talaffuz xususiyatlarini o'rganib shu asosda quyida keltirilgan so'zlarni ikki guruhga ajratib yozing. Xarf ko'rsatadigan ilk tovush orasidagi фарғни изоқланғ.

Obod, soha, o'zaro, aloqa, non, qardosh, yordam, munosabat, yonmoq, tabora, bormoq, jahon, maydon, hisoblamoq, opera, chorak, yapon, tashkilot, vayron, moddiy, tarmoq, mototsikl, baho, avtomobil.

**Namuna:**

|          |            |
|----------|------------|
| 1- guruh | 2-guruh    |
| obod     | matotsikil |
| soha     | opera      |
| ...      | ...        |

**3-topshiriq.** «Imlo qoidalarini»ni o'rganib quyidagi savollarga javob bering.

1. Ayirish (ъ) belgisining vazifasi nimadan iborat edi, yangi imlo qoidalarida uning vazifasi saqlanganmi?

2. Yumshatish (ь) belgisi qanday so'zlarda qo'llanilgan, uning vazifasi yangi imlo qoidalarida saqlanganmi?

3. Tutuq belgisi qanday hollarda qo'llanadi? Uning vazifasini misollar bilan alohida –alohida ko'rsating va izohlang.

**4-topshiriq.** «Imlo qoidalarini»dan harflar imlosini o'rganib quyidagi savollarga javob bering.

1. O'zbek tilida yonma-yon keladigan bir xil unlilar bormi? Ularni misollar bilan ko'rsating.

2. O'zbek tilida turli unlilar yonma-yon keladimi? Ularni misollar yordamida izohlang.

3. O'zbek tilida bir xil undoshlar yonma-yon keladigan so'zlar mavjudmi? Ularni misollar yordamida ko'rsating.

**5-topshiriq.** Darslik va «Imlo qoidalarini» dan «Bo'g'in», «Bo'g'in ko'chirish» mavzularini o'rganib, quyidagi so'zlarni namunada berilgan tartibda ajratib yozing va izohlang.

Namuna:

| Bo'g'inga<br>ajratish | Bo'g'in<br>ko'chirish | Izohi                                                                                                                                                      |
|-----------------------|-----------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1) An-var             | An-var                | Yozuvda so'z bir yo'lga sig'may qolganda uning bo'g'ini boshqa yo'lga ko'chiriladi.<br>Yakka harfdan iborat bo'g'in so'zning qolgan qismidan ajratilmaydi. |
| 2) o'-zi              | O'zi                  |                                                                                                                                                            |
| 3) ...                |                       |                                                                                                                                                            |

Anvar, o'zi, hikoya, nomini, olingan, ilindi, ko'ngil, ko'ngli, uyingiz, unda, jarangdor, manglay, murojaat, mudofaa, ona, onasi, maorif, o'ngida, yetardi, yemish, yulduz, yarim, ma'lim, taajjub.

**6-topshiriq.** Matnni ko'chirib yozing va imlo qoidalari bo'yicha tahlil qiling.

#### Matn

Notinch ko'ngilga shirin uyqu kelmaydi. Tinch yashashni istasang pastkash odam bilan dushmanlik qilma.

Mol-u puling ketsa ketsin, ammo vaqtingni zoye ketkizma.

Go'zallik salomatlikning eng birinchi sababi va illatlardan qutilishning ulug' yo'lidir.

Go'zallik badanning quvvatini ko'paytiradi va go'zalligiga go'zallik qo'shadi.

Go'zal yuz ko'z nurini oshiradi.

Yozuviga boqma yozganiga boq.

Tinchlikdan ko'ra o'lkan ne'mat bo'lmaydi.

Muhtojligi kam odamning umri ozod bo'ladi.

Salomatlikdan ko'ra yaxshiroq boylik yo'q.

Beli yara otning boshiga tushgan ish sog'lom otga oson ko'rinadi.

G'amlardan, dardlardan ozod har yurak, o'zganing dardini qandayin bilsin?!

Tinch bo'lay desang nafsing xohishiga qarama-qarshi ish qil.

Salomatlikning qadri ketgandan so'ng bilinadi. Uyquga ketish jonni bir nafas xatarga topshirishdir. Chunki uyqu o'lim elchisidir.

(«Atalar so'zlari»)

#### UCHINCHI VARIANT

**1-topshiriq.** O'zbek tilining asosiy imlo qoidalaridan harflar imlosini o'rganib, so'zlarning tallaffuz va yozilish xususiyatlarini quyidagi tartibda izohlang. ( harf imlosi berilgan qoidaning paragraf va bandini ko'rsating)

| Aytilishi     | Yozilishi    | Qoidasi                                      |
|---------------|--------------|----------------------------------------------|
| Obit<br>Qisim | Obid<br>Qism | 13-qoidaning 2-bandi.<br>3-qoidaning 2-bandi |

Obid, qism, davr, yusuf, fabrika, ko'payib, muqaddam, kitob, yoshlikdan, erishgan, ketdi, traktor, daryo.

**2-topshiriq.** «Imlo qoidalarining» so'zlarning qo'shib, ajratib va chiziqcha bilan yozilishiga bag'ishlangan qismlarini o'rganing. So'ng quyidagi matnda berilgan qo'shma, juft va takroriy so'zlarni ajratib, namunada berilganday izohlang.

| So'z         | So'zning tuzilishiga ko'ra turi | Yozilish usuli           | Qoidasi  |
|--------------|---------------------------------|--------------------------|----------|
| Mayda-chuyda | Takroriy so'z                   | Chiziqcha bilan yoziladi | 51-qoida |

Qo'lingdan nima kiladi, Samad, xafaligim oshib, uyga quruq qaytdim. Mayda-chuyda kutib o'tirgan bola-chaqaning quti ichdi. Mol ketdi - jon ketdi; ishga ham qo'lim bormaydi. Arza-parza bitdirmsammi, diyman. Ko'chada unga-bunga kengash solsam, ariza ma'qul deyishdi. Shu yaqinda, o'zi o'rdada turadigan bir arzachi bor emish. Ketgan ustiga ketgan, deb do'kon tagi yarimta bo'z bor ekan, qo'ltig'imga tiqib oldim. Ana shu toblarda so'roqlab arzachi mirzanikiga borsam, hozir o'rdadan kelib, endi to'nini yichib turgan ekan. (A.Q)

**3-topshiriq.** O'zbek tilining asosiy imlo qoidalaridan «Bosh harflar imlosi» qismini o'rganib chiqing. So'ng quyidagi matndan bosh harf bilan yozilgan so'z va turg'un bog'lanmalarining har birini qoida asosida izohlang.

| So'z yoki turg'un birikma | Qaysi qoida asosida yozilgan |
|---------------------------|------------------------------|
| Zamonali                  | 66-qoida                     |
| «Xamsa»<br>...            | 69-qoida<br>...              |

1. Zamonali Oyko'lda o'qituvchilar tanqisligini esladi. (P.Q) 2. Biz Yer, Quyosh, Oy, Venera, Mars kabi sayyoralar haqida ajoyib yangiliklarni bilib oldik. 3. Alisher Navoiyning «Xazoyin ul maoniy», «Xamsa» kabi yirik asarlari mumtoz adabiyotimizning yuksak namunasidir. 4. Kecha «Xalq so'zi» gazetasida «Navro'z» jamoa xo'jaligi to'g'risida maqola bosilgan ekan. 5. Vodiylarni yayov kechganda, Bir ajib his bor edi menda. (H. O.)

**4-topshiriq.** Quyida berilgan so'zlar qavs ichidagi qo'shimchalarni qo'shib yozing va ularning yozilishini namunadagidek izohlang.

|   | <b>So'z va qo'shimcha</b> | <b>Yozilishi</b> | <b>Qaysi qoida asosida</b> |
|---|---------------------------|------------------|----------------------------|
| . | O'rik(-ga)                | O'rikka          | 37-qoidaning               |
| . | Xirurg (-ga)              | Xirurgga         | 3-bandi                    |
| . | ...                       | ...              | ...                        |

O'rik (-ga), xirurg(-ga), mitallurg (-ga), tut(-gan), kelajak(-ga), eg(-gan), to'q(-guncha), dramaturg(-ga), tayoq(-ga), oyoq(-ga), oq(qan), oshiq(-gan), o'tloq(-ga), yog'(-gan), yoq(-gani), yoq(guncha), sog'(gani).

**5-topshiriq.** Quyidagi so'zlarga qavs ichida berilgan harflardan mosini qo'yib ko'chiring.

Mu (h-x) okama, (h-x) osil, bera (h-x)m, ja (h-x) on, (h-x) osiyat, (h-x) ronologiya, (h-x) usn, (h-x)ursand, (h-x) akim, (h-x)oliq, (h-x) sho (h-x)ista, Bu(h-x)oro, (h-x)arajat, (h-x)otima, ta(h-x)allus, ba(h-x)t, (h-x)islat, (h-x)asis, (h-x)aqiqat, (h-x)ayron, (h-x)alovat.

**6-topshiriq.** Quyidagi matnni ko'chirib yozing.

Ardasher o'tmishning dono kishilaridan biri edi. U o'z hodimiga uchta xat yozishni buyurdi. So'ng unga dedi: «Ey xodim, agar mening yuzumga g'azab tug'yonini ko'rsang, biror narsa ustidan qat'iy hukm chiqarmasim-dan avval xatlardan birini menga ko'rsat. Shunda ham g'azabim bosilma-sa, ikkinchi xatni ko'rsat. Shunda ham taskin topmaganimni ko'rsang uchunchisini ko'rsat!»

Aytishlaricha, birinchi xatning mazmuni shunday edi: «Shoshilma, irodangni g'azab qo'liga asir qilma, shoshgan kishi doimo afsus chekib, keyinchalik pushaymonlik tortadi!» Ikkinchi xatning mazmuni esa quyidagicha edi: «Davlat qo'limda deb o'zingdan ojizlarga jazo beraverma, kuni kelib, zamonlar o'zgarsa, ular ham sen qanday muomala qilgan bulsang shunday muomala qilishadi!» Uchinchi xatning mazmuni esa quyidagicha edi: «Ey g'azablanayotgan kishi, shoshib hukm chiqarma, gazabingni bosib insof yuzasidan ish ko'r!»

**She'r**

Muncha qattiq chopma otingni, o'g'lon,  
Olib qochsa uni qaytarmoq gumon.

Sendan chiqqan hukm xaq hukm bo'lsin,  
Zolim g'amda kuysin, ojiz shod kulsin!

(Abdul Barakot Qodiriy)

Matnni sinchiklab o'qing va quyidagi topshiriqlarni bajaring:

1. Talaffuzi bilan yozilishi farq qiluvchi so'zlarni ajratib yozing.
2. Fonetik tamoil asosida yozilgan so'zlarni ajratib yozing.
3. Morfologik tamoil asosida yozilgan so'zlarni ajratib yozing.

## TO'RTINCHI VARIANT

**1-topshiriq.** O'zbek tilining asosiy imlo qoidalaridan unli harflar imlosini o'rganib, quyidagi masalalarni bajaring. So'zlarga a yoki o harflarning mosini qo'yib ko'chiring:

J.. . hon, t.. . mon, hash.. . mat, bol.. . xona, xashar.. . t, t.. . mosha, t.. . mom, . . toqli, bayon. . . t, b. . . qish, b. . . shoq, hal. . . v. . . t, d.- . . vom, dil. . . ro, d.. . vo, d.. . ston, diy. . . n.. . t, mukof.. . t, j. . . xir, muloq.. . t, avt.. . mat, ta.. . m.

2. Nuqtalar o'rniga i, ye, harflaridan mosini qo'yib quyidagi so'zlarni ko'chiring:

B.. . xi, d.. . abet, .. . xtiyot, d.. . atez, . . . xtirom, d.. . l, .. . xtro, d.. . am.. . tp.. . r, m.. . xr, s.. . xr, id.. . al, nom.. . r, m. . . xr. . . bon.

3. Nuqtalar o'rniga i va u harflarining mosini qo'yib quyidagi so'zlarni ko'chiring:

Ko'ng.. . l, qut.. . lamoq, so'q.. . r, yug.. . rmoq, to's.. . q, buk. . . r, o's. . . q, bug. . . n, buld. . . r. . . q, bo'g'.. . z, bult. . . r, o't.. . n, vuj.. . d, ko'p.. . k, kuvg'.. . n, uyq.. . , qull.. . q, qul.. . pnay, q'ul.. . v.

**2-topshiriq.** O'zbek tilining asosiy imlo qoidalaridan ungdosh harflar imlosi qismini o'rganib, quyidagi mashqlarni bajaring:

1. Nuqtalar o'rniga d yoki t harflaridan mosini qo'yib quyidagi so'zlarni ko'chiring:

Mada.. . , oqiba.. . , dokla.. . , hayba.. . , jasa. . . , rasama, taboba.. . , asa.. . , nadoma.. . , xasa.. . , qoma.. . , qas.. . , dar. . . , tangi.. . , qan. . .

2. Nuqtalar o'rniga j va ch harflaridan mosini qo'yib so'zlarni ko'chiring.

Guru.. . , va.. . , xo. . . , fala. . . , ro'ka.. . , mahra.. . , sa.. . , ha.. . , rivo.. . , av.. . , extiyot.. . , qulo.. . , xori.. . , omo.. . , lan. . . , ilin. . . , kar. . . , lun.. . , ravo. . .

3. Nuqtalar o'rniga b va p harflaridan mosini qo'yib so'zlarni ko'chiring.

Ada. . . , za. . . , g'aza. . . , yuzla. . . , qoli.. . , nisha. . . , liko.. . , choyshab.. . , laqo.. . , siro. . . , mazxa.. . , ukro.. . , ze.. . , nayo.. . , asa.. . , aji. . . , mayi.. . , tur.. . , kosi.. . , to. . .

**3- topshiriq.** O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarining «Asos va qo'shimchalar imlosi» qismini o'rganib, quyidagi so'zlarning yozilishini namunadagidek izohlang (qoidaning paragrafini va bandini izohlang ).

|  | <b>Soʻz shakli</b> | <b>Qaysi qoida asosida yozilgan</b> |
|--|--------------------|-------------------------------------|
|  | Soʻroq (soʻro+q)   |                                     |

Soʻroq, oraligʻida, yuqori, qishlogʻi, koʻngliga, hozirdanoq, huvvilab, ishlov, boʻyoq, ulgʻay, mening, 5-sinf, XXI asr, 4–sentabr, 2002 –yil.

**4- topshiriq.** Oʻzbek tilining asosiy imlo qoidalaridan «Soʻzlarni» qoʻshib ajratib va chiziqcha bilan yozish qismlarini oʻrganib quyidagi matnda berilgan shu turga kiruvchi soʻzlarni namuna asosida izohlang.

|  | <b>Soʻz</b> | <b>Tuzilishiga koʻra turi</b> | <b>Yozilish usuli</b> | <b>Yozilish qoidasi</b> |
|--|-------------|-------------------------------|-----------------------|-------------------------|
|  | Zamonali    | Qoʻshma soʻz                  | Qoʻshib yoziladi      | 38-qoida                |
|  | ...         | ...                           | ...                   |                         |

1. Zamonali Oykoʻlda oʻqituvchilar tanqisligini esladi. (P, Q) 2. Toshpoʻlat qoʻshnayni yaxshi chaladi. (P, T.) 3. Er-xotinning bir yostiqqa bosh qoʻyganiga oʻttiz sakkiz yil boʻpti. (S. Axm) 4. Qoʻni-qoʻshni, kichik-katta ogʻamlarga salom ayting. (X) Soʻngi yillarda shahrimizda koʻplab katta-katta , baland-baland binolar, rang-barang xiyobonlar, turli–tuman korxonalar barpo boʻldi.

**5-topshiriq.** «Asosiy imlo qoidalari»dan «Bosh harflar imlosi» qismini oʻrganib, bosh harf bilan yoziladigan soʻzlarning turli koʻrinishlariga misol topib yozing va namunadagidek izohlang.

|  | <b>Soʻz</b> | <b>Yozilish qoidasi</b> |
|--|-------------|-------------------------|
|  | Fargʻona    | 67-qoida                |
|  | Navoiy      | 66-qoida                |
|  | ...         | ...                     |

Fargʻona viloyati Buvaydo tumanidagi «Gʻalaba» jamoa xoʻjaligining ahil jamoasi uyushqoqlik bilan mehnat qilmoqdalar. (Gazetadan) Biz adabiyot darsida «Toshbaqa bilan Chayon » masalidagi toshbaqa va chayon obrazlariga tavsif ber

**6-topshiriq. Matnni koʻchirib yozing.**

### **Matn**

Oʻtmishda zolim bir kishi boʻlib, ziroat va tijorat ahlining moliga zulm changalini urgan edi. Xalq uni duoyibad qilib, shaniga nafrat ogʻzini ochgan edi.

Mazkur zolim bir kuni qo'liga burgut olib ovga chiqdi. Ovdan qaytib kelgach, quyidagi mazmunda xabar tarqatdi: «Odamlarga zulm qilgan va sitam tig'ini urgan qo'limni bugundan tiydim. Xalqparvarlik yo'lida o'zimni sobitqadam ayladim. Umidim shuki, bugundan e'tiboran hech qanday zolimning zulmi hech bir odamning uyiga yetib bormaydi. Hech qanday sitamkorning qo'li hech qanday ojizning eshigini topmaydi!».

Bu xabardan xalq qaytadan jon topdi va bechoralarning umid chamanida murod guli bu bashoratdan gul ochdi. Bayt:

Muborak bu xabar yetgach nogaxon,

Yuraklar qo'vonib qayta topdi jon.

Oxiri uning odilligi shu darajaga yetdiki, qo'zichoq she'r ko'ksidan sut emadigan bo'ldi, qo'y esa o'z suti bilan she'r og'zini yuvdi, yuz esa echkiga yaxshi ko'z bilan bordi, dasht qushlari esa daryo qushlarining ini yoniga in qura boshladi, g'ozlar esa burgut bilan sirdoshga aylandi.

Zolimning yaqinlaridan biri bir kuni munosib vaqt topilgan vaqtda uning bu xatti xarakatlaridan savol qildi, fe'li o'zgarganligining boisini so'radi. Zolim shunday deb javob berdi: «Ovga yurganimda qayoqdandir bir it kelib, tulkinning oyog'ini tishlab sindirdi, yo'ldan o'tib ketayotgan bir yulovchi esa tosh bilan urib, itning oyog'ini sindirdi. Qilmishiga yarasha yuz berayotgan bu voqealarni ko'rib o'zimga keldim».

(Xoji Samandar Termiziy)

**7-topshiriq.** Matnni o'qing va so'ng matndan fonetik ,morfologik, tarixiy-ananaviy tomoyillar asosida yozilgan so'zlarni topib , imlo xususiyatlarini izohlang.

## BESHINCHI VARIANT

**1-topshiriq.** Quyidagi so'zlarga qavs ichidagi qo'shimchalardan mosini qo'shib, fe'ling ortirma nisbatini yasang va ularning yozilishini imlo qoidalari asosida quyidagicha izohlang.

|   | So'z va<br>qo'shimcha | Yo<br>zilishi | Yozilish qoidasi                             |
|---|-----------------------|---------------|----------------------------------------------|
| . | Tik(-dir,-<br>tir)    | Tik<br>tir    | 37-qoidaning 2-bandi<br>37-qoidaning 2-bandi |
| . | Tuz(-dir,-<br>tir)    | tuz<br>dir    |                                              |
| . |                       |               |                                              |

Tik(-dir,-tiz), tuz (-dir, -tiz), pishir (-dik, -tik), tort (-dir, - tiz), o'z (-dir, -tir), un (-dir, - tiz), ilin(-tir, -dir), tizil (-dir, - tir), qut (-qar-kaz), o't (-kaz, -gaz), yur (-giz-g'iz), o't(-kaz-qaz), cho'moli (-dir,- tir), yit(-gaz, - kaz).

**2-topshiriq.** «Imlo qoidalaridan x va h tovushlarining fonetik xususiyatlarini o'rganib, quyidagi so'zlarga qavs ichidagi harflardan mosini qo'yib yozing:

(h-x) islat, mu(h-x)it, ma(h-x)fiy, (h-x)ujjat, iste(h-x)kom, ru(h-x)sat, (h-x)amro, Ra(h-x)im, Mo(h-x)ira, (H-X)olmatov, Zulay(h-x)o, ta(h-x)min, (h-x)imiya, ba(h-x)tiyorlik, beguno(h-x).

**3-topshiriq.** «Imlo qoidalaridan Bo'g'in ko'chirish qismini o'rganib, quyidagi so'zlarni namuna asosida bo'g'inga ajratib yozing.

**Namuna:** Tuy-g'u, me-tro, qo'r- qinch.

Absolyutizm, abstrakt, avjlanmoq, aviabaza, aviakonstruktor, aviatransport, adolatlilik, adyutant, kassir, kostyum, amplituda, antibiotek, arslon, badbaxt, broshyura, bo'yinturuq, vaznli, voyvoylamoq, g'ing'illamoq, vangilamoq, gangimoq, vogeanavis, ko'ngil, daraxt, dardlashmoq, daryo, diafragma, juyali, izolyator, hadyalik, kafedra, gugurtcho'p, uringan.

**4-topshiriq.** «Imlo qoidalaridan «Asos va qo'shimchalar imlosi» qismini o'rganib, quyidagi so'zlarga qavsda berilgan so'z o'zgarturuvchi qo'shimchalardan mosini qo'yib yozing:

**Namuna:** Kurtak(ga)- kurtakka.

Bog'(ga), yog'(ga), cho'g'(ga), tog'(ga), tug'(ga), barg(ga), yaproq(ga), qishloq(gacha), katalog(ga), qishloq(gacha), xirurg(ga), gudok(ga), kubok(ga), ket(gan), o't(gan), sot(gan), och(gan), tug(gan), chiq(gan), choch(gan), och(gan), chiq(gan), yutaq(gan), to'lish(gan), kechik(gan), teg(gan), chek(gan), bir(ta), bo'g'(cha), ik(gin), bo'g'(gin), teg(gach), cho'k(gach), ochiq(gach), tiq(gach), kichik(gina), baqaloq(gina), ochiq(gina), guldek(gina).

**5-topshiriq.** «Imlo qoidalaridan so'zlarni «Qo'shib yozish», «Ajratib yozish», «Chiziqla bilan yozish» qismlarini o'rganib, quyidagi so'zlarni imloga moslab yozing.

Avia transport, avto baza, bad bashara, baland parvoz, besh batar, besh burchak, general mayor, dala chichqon, ko'r sichqon, dala bog', ilon baliq, yer tandir, yon bosh, jigar pora, zar pechak, ikki xonali, ko'p burchak, ko'p bolali, yo'g'on ichak, nav bahor, nomoz shom, gul, oyoq qo'l, ajdar gul, baland past, sabzi piyoz, gul bior, yer to'la, yoqa vayron, ildiz poya, achchiq chuchuk, baland baland, katta katta, narx navo, oziq ovqat, ayri bosh, ayri shox, bandi devona, gul toji, xo'roz do'ppi furush, kelin kuyov.

**6-topshiriq.** Quyidagi matnni o'qing va undagi fonetik, morfologik, tarixiy-ananaviy, etimologik tomoyillar asosida yozilgan so'zlarni ajratib yozing va izohlang.

## **Матн**

Hakimlar aytadilarki, aql sohibi bo'lgan kishi yetti xil kishi bilan kengashmaydi: ular nodon, dushman, xasadchi, riyokor, qo'rqq, mol- parast va

xo-yu xavasga berilgan kishilardir. Chunki nodon kishi befaxmligi tufayli xato va yaramas maslahat beradi. Xasadchi esa qo'lingdagi mol-u mulkingni sovirlilishini istaydi. Rioli kishi esa seni qanday qilib bo'lsa-da, rozi qilishni o'ylaydi, fikringga qarshi hech narsa aytmaydi, sen nimani xohlayotgan bo'lsang, o'shani qilaverishga undaydi. Mol parastni fikri-zikri mol yig'ish bo'lgani uchun, bergan maslahati orqali biror narsa undirib olishga urinadi. Xayo-xavasga intilgan nafs bandasi esa o'zining nuxsonli aqli bilan kishini to'g'ri fikrdan chetlatadi.

Olimlardan Axnaf aytadi: «Ochning qornini to'ydirmay turib, tashnaning chanqog'ini bostirmay turib, asr kishini ozod qilmay turib, kambag'alning xojatini chiqarmay turib, biror ish yuzasidan maslaxat-u mashvarat qilma!».

(Favokix Al-Julasso)

**7-topshiriq.** Matnni sinchiklab o'qing, so'ng quyidagi topshiriqlarni bajaring:

1. «Asos va kushimchalar imlosi» qismidagi qoidalar bo'yicha yozilgan so'zlarni ajratib yozing va izohlanlang.

2. «Imlo qoidalari» dan «Qo'shib yozish» qoidalari asosida yozilgan so'zlarni ajratib yozing va izohlang.

3. «Imlo qoidalari » ning «Ajratib yozish» qismi qoidalari asosida yozilgan so'zlarni ajratib ko'rsating va izohlang.

4. «Imlo qoidalari » ning «Chiziqcha bilan yozish» qismida berilgan qoidalar asosida yozilgan so'zlarni ajratib yozing va izohlang».

## OLTINCHI VARIANT

**1-topshiriq.** «Imlo qoidalari»dan so'zlarni qo'shib, ajratib va chiziqcha bilan yozishga bag'ishlangan qoidalarini o'rganib quyidagi so'zlardan juft otlar yasang hamda yozing.

Bola, joy, o'g'il, ota, urug', tanish, oshno, kiyim, mol, chaqa, qiz, yer, rog', ovqat, qo'rol, ona, qarindosh, oziq, tog', kechak, suv, bo'ston, aslaha, sigir, bilim, og'ayni, buzoq, anjom.

**2-topshiriq.** O'zbek tili grammatikasidan otlarning yasalishi qismini o'rganib quyidagi savollarga javob bering.

1. Siz istiqomat qiladigan hududda qo'shma ot bilan ifodalangan joy nomlari mavjudmi? Ularning nomlarini yozing.

2. Qanday qo'shma otlar ajratib yoziladi.? Misollar yordamida izohlang.

3. Qo'shma so'z shaklida bo'lgan qaysi gullarning nomini bilasiz? Ularning nomlarini yozing va yozilishini izohlang.

4. Qanday qo'shma otlar qo'shib yoziladi? Ularga misollar yozing.

5. Qisqartma otlar qanday hosil qilinadi? Ularga misollar yozing va yozilishini izohlang.

**3-topshiriq.** «O'zbek tili gramatikasi» va «Imlo qoidolari»dan juft so'zlarning yasalishi va yozilishiga bag'ishlangan qoidalarni o'rganib quyidagi mashqlarni bajaring.

1. Berilgan so'zlar orasidan juft so'zlarni alohida ko'chiring va qanday hosil bo'lganligini izohlang.

Qovun-tarvuz , ko'zoynak, yuzma-yuz, idish-tovoq, mingoyoq, tez-tez, asalari, Amudaryo, baland-past, uch-to'rt, tevarak-atrof, chopa-chopa, gulchechak, ko'ksulton, oshqovoq, yaxshi- yomon, yoz-u qish, o'g'il-u qiz.

2. Quyidagi so'zlardan juft so'zlar yasang.

Qazon.. , asbob .. , bo'lar .. , yavod. . . , idish.. , yoz.. , opa.. , kecha.. , oq.. , gul.. , kuch.. , tez.. , aka.. , asta.. , baland.. , qo'y.. , mayda.. , avra.. , ostin.. , katta.. , issiq..

**4- topshiriq.** Quyidagi she'riy parchadan qo'shma so'zlarni ajratib yozing va imlo xususiyatlarini «Imlo qoidolari» asosida izohlang.

Mayshat-u kayf-u safo bir yoqda,  
Mehnat bilan jabr-u jafo bir yoqda.  
Hech soni yo'q mungluqlarning azasin,  
Bazm-u ishrat, soz-u navo bir yoqda.  
Komil bo'lib, elga ko'p aralashdi,  
Ish o'rgatib ber nechaga yorlashdi,  
Och sariqning holin ko'rib, raxm etib,  
Kambag'alga , muxtojga hamdamlashdi.

(E. Jumanbulbul).

### Matn

Anushervonning o'g'li Xurmuz Axvoz viloyatiga borgan paytda usha yer hokimi bilan muloqatda bo'ldi va bir kuni unga dedi: «Senda yagona bir aybdan boshqa hech qanday ayb ko'rmadim. Ammo usha ko'rgan aybim, bilgilki, o'nta aybni o'z orqasidan ergashtirib yuradi». Hokim: «u qanday ayb ekan? Orqasidan ergashtirib keladiganlari esa qaysilar, aytib ber!»--dedi. Xurmuz dedi: «Usha ayb qilish va o'zini katta tutishdir». Bilgilki, unga ergashadigan ayblarning birinchisi mensimaslik bo'lib uning oqibati xalq nafratiga yo'liqishdir. Ikkinchisi odamlarning kasbi korini taftish va tatqiq qilib, ularga dashnom bergan holda, o'zi esa kasb hunarning birortasiga ham ega bo'lmaslik. Uchinchisi - o'qishdan or qilish, buning natijasida ilm-u odobdan bebahra qolish. To'rtinchisi, o'tirishda barchadan o'zini ustun va dono bilish, buning natijasida o'ziga dushman ortirish va obro'yini yerga to'kish. Man-manlik tufayli chegaradan chiqish, balandroq amalni xohlab qolish, natijada hor-u zobun bo'lib, o'z martabasidan ham ajrash. Oltinchisi – odamlarning haq- xuquqini hurmat qilmaslik, bemorlardan hol so'ramaslik va shunga o'xshash narsalardan ko'z yumush. Yettinchisi – odamlarga xavf solish, ularni masqara qilish, natijada beqadir bo'lish. Sakkizinchisi - maslahatsiz ish tutish, natijada hijolat chekib, nadomat tortish. Tuqqizinchisi - odamlar meni ulug' faxmlaydi deb uylash va shu gumonda yurish. O'ninchisi - fozil va komil

kishilarga qo'loq solmay, haqorat ko'zi bilan qarash, natijada ularning nazaridan qolish.

(«Jovidoni xirad»)

**Topshiriq.** Matnni sinchiklab o'qing, so'ng matnda uchraydigan so'zlarni «Asos va qo'shimchalar imlosi», «Qo'shib yozish», «Ajrati yozish», «Chiziqli bilan yozish» kabi qoidalar asosida ajratib yozing va izohlang.

## ETTINCHI VARIANT

**1-topshiriq.** «Imlo qoidalari»dan «Bosh harflar imlosi» qismini o'rganing va quyidagi mashqlarni bajaring.

1. Matnda berilgan gaplarni bosh harflar imlosiga amal qilgan holda ko'chiring.

... yillar o'tdi. ulug'bek katta yigit bo'ldi. institutni bitirdi. uylandi. salomatxon opa nevara ko'rib, ismini davron qo'ydi...

Men salomatxon opani tez-tez yo'qlab turaman. u kishiga tassalla berish uchun emas, aksincha, o'zim salomatxon opadan tasalli istab yo'qlab boraman. Har safar boshimga biror musibat tushsa yo beror nohaqlikdan ranjib, to'lib ketsam, negadir esimga davron aka tushadi, tushadi-yu, salomatxon opani qo'msab qolaman va har safar u kishining mehriga qonib, ko'nglim tog'day o'sib qaytaman. (O. Yoqubov)

2. Bosh harflarning qo'llanish o'rinlariga ikkitadan misol topib yozing.

**2-topshiriq.** «Imlo qoidalari»dan bo'g'in ko'chirish qoidalari o'rganib quyidagi mashqlarni bajaring:

1. Quyidagi so'zlarni bo'g'inga ajratib yozing va bo'g'in ajratish va bo'g'in ko'chirish o'rtasidagi farqli tomonlarni izohlang.

Palto, a'zo, non, e'lon, ona, bola, tong, qat'iy, pesa, so'nggi, tola, soat, a'lo, kongress, kech, vada, grim, ong, kasb.

2. Quyidagi so'zlarning bo'g'in ajratish bilan bo'g'in ko'chirish farq qiladiganlarini alohida, farq qilmaydiganlarini alohida guruhlab yozing.

Aziz, uzun, ipak, insonparvarlik, ekin, yilim, intelligensiya, yopiq, yaqin, yurak, kauvchik, mudofaa, taajjub, rioya, ufq, fe'li, mardligi, saviya, qal'a, dunyo, daryo, xadya, fan, tenglik.

**3-topshiriq.** «Imlo qoidalari»dan «Asos va qo'shimchalar imlosi» qismini o'rganib quyidagi savollarga javob bering:

1. So'z asosiga qo'shilganda asos yoki qo'shimchada tovush o'zgarishi hosil bo'ladigan qanday ot yasovchi qo'shimchalarni bilasiz, misollar keltiring.

2. Qanday qo'shimchalar so'zlarga morfologik tamoyil asosida qo'shiladi, ularga misollar keltiring.

3. So'z asosiga fonetik tamoyil asosida qo'shiladigan qanday qo'shimchalarni bilasiz. Ularga misollar keltiring.

4. -gan, -kan, -qan, -r, - ar, qo'shimchalari bilan yasalgan sifat-doshlar qatnashgan gaplar yozing va ularning imlo xususiyatlarini izohlang.

**4-topshiriq.** «Imlo qoidolari»dan qo'shma so'zlarning yozilishiga tegishli qismlarini o'rganib quyidagi mashqlarni bajaring:

1. Tarkibida tepa, bosh, va gul so'zlari bo'lgan 4-5 ta qo'shma ot toping va ularning imlo xususiyatlarini izohlang.

Qo'shib , ajratib va chiziqcha bilan yoziladigan qo'shma sifatlarning har biriga 10 tadan misol yozing va imlo xususiyatlarini izohlang.

Qo'shib, ajratib va chiziqcha bilan yoziladigan yana qaysi so'z turkumlariga tegishli qo'shma so'zlarni bilasiz, misollar keltiring va izohlang.

**5-topshiriq.** Matnni o'qing va undagi so'zlarning yozilishi xususiyatlarini imlo qoidolari asosida tahlil qiling.

## HIKMAT

Biror kimsa bilan do'stlik yo'lini tutish va suhbatdoshda sakkizta haq mavjud bo'lib, ularga to'la amal qilish muhimdir.

Birinchisi – mol haqi bo'lib, unda uchta daraja mavjud. Birinchi daraja shundayki, sen o'z ayol va farzandlaringni qanday muhofaza qilib, bekam-u ko'st yashashlarini bo'ynigga olgan bo'lsang, do'stlarga nisbatan ham shunday yo'l tutasan. Ikkinchi va o'rtacha daraja shundayki, sen do'stlaringni ham o'zingdek tasavvur qilasan, masalan, sen o'z mol mulkingga qanday egalik qilsang, ularni sarflashda ham qanchalik erkin bo'lsang, do'stlaringni ham xuddi shunday yo'l tutushlariga imkon berasan. Uchinchi va oliy daraja shundayki, do'stlaringning ishini va ularning manfaatini o'z manfaatingdan yuqori qo'yasan.

Ikkinchisi – nafs haqidir. Bu shundan iboratki, do'stlar boshiga ish tushib, sendan narsa yoki yordam so'rab kelmasidan avval sen ularning hojatlarini ravo qilishga kirishasan.

Uchinchisi – til haqidir. Til deyishdan murod nutqdir , ya'ni do'stga qattiq gapirilmaydi, uning ayblari yuzga solinmaydi, kamchiligi odamlardan berkitiladi, yaxshiligi maqtaladi, yolg'on muomala qilinmaydi, uning shodligi va suririga sabab bo'ladigan haq gaplar gapiriladi.

To'rtinchisi -- haq-a'zolar haqidir, ya'ni uning jism a'zolaridan biror yomonlik yoki nuqson hosil bo'lsa uni kechiradi. Biror ishga uzini pesh qilsa, uni kechiradi.

Beshinchisi – vavo haqidir. Vafoning ma'nosi esa do'stlik bobidagi sabot, unga o'lguncha ruoya qilishdir. O'lgandan keyin esa bu haqni uning bolalariga yoki do'stlariga nisbatan davom ettirishdir. Shuning uchun donolar: "Tirikligida ko'rsatilgan ko'p vafodan o'lgandan keyin ko'rsatilgan ozgina vafo afzaldir!" – deydilar. Chunki o'lgandan keyin ham davom etgan vafo tiriklik paytidagi vafoga qaraganda saf va toza, riyodan holiy bo'ladi.

Oltinchi – ixlos haqidir. Bu shundan iboratki, do'st uzoqda yoki oldida bo'lgan paytlarda ham bir xilda turadi, o'zgarmaydi, ikki o'rtada bo'lgan muhabbat va sadoqatga rioya qilishda zarracha nuqsonga qo'l qo'ymaydi.

Yettinchisi - yo'qlash haqidir. Bu shundan iboratki, o'lik yoki tirikligida uning o'zini ham, avlodini ham yaxshi so'zlar bilan tilga oladi. Ularga hamisha omad tilaydi, o'ziga nimaiki yaxshi narsa tilasa, ularga ham qo'shib tilaydi.

(Mahmud ibn Muhammad.)

## GLOSSARIY (LOGISTIKA)

**Logistika faoliyati** - bu tizimni faol holatga keltiradigan tarkibiy qismlari. Faoliyat tashkiliy tamoyilga va buzg'unchi elementlarga ega. Ikkinchisi tizimga yo'naltirilishi mumkin, uni kuch-quvvat uchun sinab ko'rish yoki tashqi muhitga kiritish mumkin; bu holda ular logistika tizimini yuqori tajovuzkorlik bilan ta'minlaydi. Logistika tizimi yaratilish kuchlari ustun bo'lsa, ijobiy ishlaydi.

